

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

UDK_____

Qo'lyozma huquqida

Mirzaahmedova Gulshanoy Mansurjon qizi

**Mavzu: “O'zbekistonda matbaachilikning vujudga kelishi va
rivojlanish tarixi”(XIX asr oxiri XX asr boshlarida Fag'ona vodiysi
misolida)**

Magistratura bo'limi

5A110601 – Ijtimoiy-gumanitar fanlar o'qitish

metodikasi(Tarix) yo'nalishi

Magistr akademik darajasini olish uchun tayyorlagan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar:_____

Ish ko'rildi va himoyaga tavsiya etildi

Tarix fanlari nomzodi

Tarix o'qitish metodikasi kafedra

R.Xolmatov

mudiri_____

T.f.n.dotsent Q. Akbarov

“ _____ ” 2019-yil

Qo'qon - 2019

Mundarija

Kirish.....	3
I bob. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonga matbaachilikning kirib kelishi va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni.	
1.1-§. Turkistonga matbaachilikning kirib kelish zarurati va shakllanish jarayonlari.....	13
1.2-§. Muhammad Azim xoji Marg'iloniy tomonidan Farg'ona vodiysi matbaachiligiga asos solinishi.....	32
II bob. Farg'ona vodiysi matbaachiligi va unda mahalliy ziyolilarning o'rni.	
2.1-§. Is'hoqxon Ibratning "Matbaayi Is'hoqiya" bosmaxonasi va uning xalq ma'naviy hayotini boyitishdagi roli.....	46
2.2-§. Vodiyl matbaachiligi ravnaqida madaniyat va ma'rifat markazi bo'lgan Qo'qon matbaachiligi maktabining tutgan o'rni.....	58
III bob. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Farg'ona vodiysi matbaachiligi tarixini O'zbekiston tarixi darslarida qo'llanilish jarayonlari.	
3.1-§. Qo'qon matbaachiligi mavzusini o'qitish jarayonida ta'lim samaradorligiga erishishda loyiha texnologiyasidan foydalanish.....	88
3.2-§. Qo'qon matbaachiligi mavzusi bo'yicha 2 soatlik dars ishlanmasi....	101
Xulosa.....	106
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	109
Ilo	
va.....	116

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Vatanimiz O'zbekiston milliy mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng, tariximizni har qanday mafkuraviy ta'sirlardan holi tarzda xolisona va haqqoniy, adolat hamda tarixiylik nuqtai nazaridan yoritish imkoniyati vujudga keldi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning "...Haqqoniy tarixni bilmasdan turib o'zlikni ahqlash mumkin emas"¹ degan fikrlari tarixchi olimlarimiz zimmasiga katta mas'uliyat yuklagan edi. Jamiyatimizni yanada rivojlantirish, xalqimizning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishda tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etishi haqida to'xtalib, birinchi prezidentimiz "...tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi"², deb bejiz ta'kidlamagan edilar. Mustamlakachilik davrida soxtalashtirilgan tariximizni tiklash, uni ro'yi-rost yoritish bugungi kunda tarixchi olimlar oldiga qo'yilgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Barchamizga ma'lumki, har bir mustaqil davlat o'zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. "Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi"³, - degan edilar prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev. Darhaqiqat, O'zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilik, to'siq va sinovlarni o'z kuchi va irodasi bilan yengib o'tishga qodir.

Tarixiy o'tmishimizning muhim tarmog'i bo'lgan matbaachiligimiz tarixini hali noma'lum sahifalarini tiklash uchun imkon yaratildi. Hozirga qadar tadqiqotchilar tomonidan matbaachilik tarixini yorituvchi talaygina ilmiy ishlar,

¹Karimov.I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "Sharq", 1999. 7-bet.

²Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T."Ma'naviyat", 2013.97-bet

³Mirziyoyev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T."O'zbekiston", 2017.132-bet.

maqolalar, risolalar va kitoblar yaratilgan. Biroq, ularning aksariyati mustabid tuzum davridagi hukmron kommunistik mafkura talablari asosida yozilganligi sababli, ko'p hollarda matbaachiligimizning taraqqiyot yo'li haqida xolis tasavvur bera olmaydi. Turkiston matbaachiligi tarixining xususiyati shundaki, Yevropa va Osiyodagi ko'plab mamlakatlarga nisbatan anch kecha tashkil topdi va taraqqiy etdi. Dastlab matbaachilik va matbuot hududimizni XIX asrning 60-yillarida qurol kuchi bilan bosib olgan rus mustamlakachi hukmdorlari rahnamoligida vujudga keldi va rivojlana boshladi. Mustamlakachilik va mustabid tuzumi davrida vujudga kelgan xususiy matbaalarimiz va ma'rifatparvarlarimiz faoliyati hukmron kuchlar tazyiqi ostida ko'p sinovlarga uchradi, tez fursatda yopib yuborildi. Mavzuning dolzarbligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

Birinchidan: Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, XIX asr oxiri XX boshlarida Farg'ona vodiysining matbaachilik tarixi hanuzgacha yaxlit mavzu sifatida o'rganilmagan;

Ikkinchidan: XIX asr oxiri XX asr boshlarida vujudga kelgan mahalliy-xususiy matbaalar va ularni tashkil etilishida milliy ziyolilarning tutgan o'rni, hamda ularning amaliy faoliyatlari to'laqonli tadqiq etilmagan;

Uchinchidan: O'zbekiston tarixini o'rganishda eng ishonchli manba sifatida shu davr matbaasi materiallari hisoblanadi. Ammo XIX asr oxiri XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida mavjud bo'lgan matbaa materiallari tarixiy manba sifatida ahamiyatli o'rganilmagan;

To'rtinchidan: Barcha ta'lim muassalarida O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda matbaa materiallaridan o'quvchilar ongida tarixiy tushuncha va tasavvurni shakllantirishda foydalanish mumkin. Dars samaradorligiga erishish masalasi esa o'qituvchi pedagoglar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi;

Shuni alohida qayd etish joizki, mustabid tuzumi davrida ma'rifatchilik harakatining o'zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi ahamiyati tarixiy haqiqatga zid ravishda buzib talqin qilindi. Shuning uchun bugungi kunda

Turkiston matbaachiligi tarixini xolisona, tarixiy izchillik nuqtai nazaridan o'rganish juda ham muhim va biz tarixchilar oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Rossiya imperiyasi istibdodi va sovet totalitar tuzumi davrida o'zbek xalqi mustamlakachilik siyosatining barcha qabihliklariga qaramasdan, milliy o'zligini saqlashga harakat qilganligini unutmasligimiz lozim. Respublikamizning birinchi prezidenti I.A.Karimov haqli ravishda ta'kidlaganidek, "Biz o'zimizni hamisha mustaqil millat-o'zbek xalqi sifatida xis etib kelganmiz va bu bilan faxrlanamiz. Bunga tarixiy, ilmiy, madaniy asoslarimiz bor"⁴. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tarix fanida ham ko'plab o'zgarishlar ro'y berdi. Natijada sovet mustamlakachiligi davrida ta'qiqlangan tarixiy manbalarning ilmiy muomalaga kiritilishi natijasida O'zbekiston tarixining rus va sovet mustamlakachiligi davri masalalarini ob'ektiv va ilmiy xolislik asosida o'rganish imkoniyati vujudga keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "...Biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur"⁵. Aynan mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixi fanining yangi yo'nalishlari paydo bo'ldi va xalqimiz tarixining eng ko'p soxtalashtirilgan sovet davri tarixini tarixiy haqiqat nuqtai-nazaridan zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanib yoritgan tarixiy tadqiqotlar yaratildi. O'zbekiston tarix fani taraqqiyotining bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda yoritish tadqiqotchilar oldiga asosiy vazifa qilib qo'yilmoqda. Biz bugungi kunda muhim ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning jonli guvohi bo'lish bilan birgalikda, Vatan taraqqiyoti va istiqloli uchun hissa qo'shishga imkon yaratilgan davrda yashamoqdamiz. Shu nuqtai nazardan qaraganda, biz o'z tariximizni xolisona va haqqoniy baholab, ma'naviy merosimizni boyitish va rivojlantirishga o'z hissamizni qo'shishimiz, bugungi jahon ilmu fani va madaniyatining yuqori

⁴Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. "Turkiston" gazetasi muxbirining bergan savollariga javoblar. T., "Turkiston" gazetasi, 1999-yil, 2-fevral.

⁵Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. T., "O'zbekiston". 1999, 149-bet.

cho'qqilarini egallashdek buyuk vazifaga har tomonlama munosib va qodir bo'lishimiz darkor.

Magistrlik dissertatsiyasining davriy chegarasi. Tadqiqot uchun davriy chegara XIX asr oxiri XX asr boshlari Farg'ona vodiysi matbaachilik tarixini o'rganish qilib belgilangan. Bu davr oralig'ida o'lkamizda bir qancha mahalliy-xususiy matbaachilikka asos solindi va xalqimiz ma'naviy ongini o'stirishga xizmat qilindi.

Dissertatsiya mavzusining o'rganilish darajasi: Mavzu tarixiga oid ilmiy adabiyotlarni metodologik yondashuv va ilmiy-amaliy tarafdin ikki davrga bo'lish mumkin:

1. Rus mustamlakachiligi va sovetlar hukmronligi yillarida nashr etilgan to'plamlar va chop etilgan adabiyotlar.

2. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va nashr etilgan kitoblar.

Birinchi guruhga oid dastlabki maqola va asarlar rus mustamlakachiligi va sovet tuzumi yillarida nashr qilingan bo'lib, ularning ko'p qismi bizgacha yetib kelmagan. Bu asarlarda ayrim matbaa va matbuot organlari xususida fikr yuritilib, milliy matbaachilik nashrlarining tafsilotlari ataylab buzib talqin qilinganligi va rasmiy organlarning faoliyatlari qo'llab-quvvatlanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'zbek matbaasi va matbuotining ilk tadqiqotchisi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning "Turkistonda matbuot" maqolasi yozilish sanasiga ko'ra, aynan shu mavzudagi dastlabki ish bo'lishi bilan birga, unda o'zbek matbaachiligi tarixida nashr etilgan kitoblarning o'z davrida millatimizga qay darajada xizmat qilganligi haqqoniy va xolisona yoritilgan⁶. Bundan tashqari adabiyotshunos olim va jamoat arbobi, qatag'on yillari qurboni Ziyoy Saidning 1927-yilda e'lon qilingan "O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar" kitobi xam o'zbek vaqtli matbuoti

⁶Abduazizova N.A., Qayumov A. Turkiston matbuoti tarixi tarixchilar nazdida. T., "Jamiyat va boshqaruv". 2004. №4.

hamda matbaasi tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, tarixchi N.F.Simonov yozgan asarda ham bolshevistik matbuot haqida bir qancha ma'lumotlar berib o'tilgan⁷. O'zbek yozuvchisi va o'ttizinchi yillar nashriyot xodimi bo'lgan Husayn Shamsning 1936 yilda chop etilgan "Matbaachilik ham uning qisqacha tarixi" kitobida ham matbaachiligimiz tarixiga oid muhim ma'lumotlar berilgan.

Bu guruhga yana mustabid tuzumi davrida yaratilgan adabiyotlarni kiritishimiz mumkin. Bu adabiyotlarda asosan Turkistondagi matbaachilik va matbuot organlarining faoliyati yoritilgan bo'lib, ular asosan T. Ernazarov va A. Akbarovlarning maqola va asarlarida o'z ifodasini topgan⁸. XX asrning 70–yillarida T. Ernazarov va A.Akbarovlar tomonidan O'zbekiston matbuoti tarixining uch jildlik kitobi nashr etildi. Ayniqsa, T. Ernazarov Turkistonda vaqtli matbuotning vujudga kelishi va rivojlanishi, dastlabki manbalarni o'rganishdan tortib, gazeta hamda jurnallar, arxiv va statistik ma'lumotlardan foydalanib, O'zbekiston matbuoti sohasida ilk qadam qo'ygan, izlanuvchan olim, tadqiqotchi sifatida qadrlidir. U 1959 yilda nashr qilingan "Turkistonda vaqtli matbuot" kitobida ba'zi dalillarni juda ehtiyotkorlik bilan bo'lsada, bayon etishga jur'at eta olgan.

Ikkinchi guruhga O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng yaratilgan tadqiqotlarni kiritish mumkin. Mustaqillik yillari davomida K.Rahmonov⁹, A.Rasulov¹⁰, N.Abdualazizova¹¹, S.Shodmonova¹², X.Uzoqov¹³,

⁷Simonov N.F. Turkistonda bolshevistik matbuot(1902–1907 yy). T., "O'zFan nashriyoti", 1941. 56-bet.

⁸Ernazarov T., Akbarov A. Turkistonda vaqtli matbuot. T., "O'zDavnashr", 1959. 145-bet.

⁹Rahmonov K. Buxoro Respublikasining matbuot organi. T., "Jamiyat va boshqaruv", 2004. №2. 44-45-betlar.

¹⁰Rasulov A. Turkiston madaniy hayotida tatarlar. T., "Ijtimoiy fikr, inson huquqlari", 2004. №1. 128 - 131-betlar.

¹¹Abdualazizova N.A. Turkiston matbuoti tarixi tadqiqotchilar nazdida. T., "Jamiyat va boshqaruv", 2004. №2, T., Ma'naviyat ko'zgusi, "Jamiyat va boshqaruv", 2007. №3. 41 - 43-betlar.

¹²Shodmonova S.1917 yilda Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning davriy matbuotdagi monitoringi. T., "Ijtimoiy fikr, inson huquqlari", 2006. №1. 173 - 177-betlar.

M.Jabborov¹⁴, B.O`rinova¹⁵, F.Achiq¹⁶, K.Rahmonov¹⁷, S.Halimova¹⁸, G.Nishonova¹⁹ va boshqalar kitob, risola, dissertatsiya va maqolalar yozdilar. Turkiston matbaasi va matbuoti tarixiga yangi manbalar va yangicha yondashuv asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshidagi O'zbekistonning yangi tarixi markazi olimlari tomonidan bir necha asarlar yaratildi. Masalan: T.Pidaev²⁰, N.A. Abduazizova²¹, Z.Esenboev²² R.Mahmudova²³, E.Axunjanov²⁴, R.Xolmatov²⁵ kabi olimlarning asarlari shular jumlasidandir. Bu borada Turkiston matbuoti va matbaasi tarixini o'rganishda olima N.A. Abduazizovaning xizmatlari katta. Uning matbaachilik va matbuot tarixiga oid yuzdan ortiq maqolalari, o'ndan ortiq kitoblari chop etildi. Olima o'z ilmiy tadqiqotlarida ilk o'zbek noshirlik ishlarining paydo bo'lishi, genezisi va shakllanish bosqichlari, milliy matbuotning yuzaga kelishi, gazeta va jurnal nashr

¹³Uzoqov X. O'zbekistonda mustaqillik uchun kurash tarixi 1900-1940(jurnalistlar faoliyati misolida): Tarix fan. nom. dis. T., 264- bet.

¹⁴Jabborov M.R. Farg'ona viloyati tarixining "Turkestanskiy sbornik" da yoritilishi(XIX asr oxiri XX asr boshlarida): Tarix fan. nom. dis. T., 2000. 159 - bet.

¹⁵O`rinova B.Z. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni yoritilishida vaqtli matbuotning roli(1991-2000-yillar): Tarix fan. nom. dis. T., 2002. 194 - bet.

¹⁶Fatma Achiq. "Yosh Turkiston" tarixiy-adabiy manba sifatida: Filologiya.fan.nom.dis. T., 2002. 165 - bet.

¹⁷Raxmonov J.K. "Buxoro axboroti" va "Ozod Buxoro" gazetalari – Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixini o'rganish manbasi: Tarix fan. nom. dis. T., 2008. 195 - bet.

¹⁸Halimova S.A. "Sadoi Turkiston" gazetasi: yo'nalishi, til, uslub va janr xususiyatlari: Filologiya.fan.nom.dis. T., 2008. 158 - bet.

¹⁹Nishonova G.U. O'zbek publistikasining shakllanishi hamda rivojlanishida "Oyna" jurnalining o'rni va ahamiyati: Filologiya.fan.nom.dis. T., 2008. 150 - bet.

²⁰Pidayev T. Matbuot millat chirog'i. T., O'zbekiston Milliy Enstiklopediyasi, 1999. 77 - bet.

²¹Abduazizova N.A. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917-yy). T., "Akademiya", 2000. 238- bet, Milliy jurnalistika tarixi(Genezis va evolyutsiya). 1-jild, T., "Sharq", 2008. 506 - bet.

²²Esenboyev Z. Matbuotga baxshida umr. T., "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 2001. 158- bet.

²³Mahmudova R.M. Toshbosma asarlar va ularning o'zbek adabiyoti tarixidagi ahamiyati (XIX asr oxiri — XX asr boshlari). Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 1971. 31-bet

²⁴Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. T., "Tafakkur bo'stoni", 2011.384-bet.

²⁵Xolmatov R.N. Farg'ona noshirlari va nashrlari. T., "O'zbekiston", 1986 yil. 32-bet.

etishning sivilizatsiyaviy hodisa sifatidagi mohiyatini, sovet totalitarizmi sharoitida o'zbek matbuotining tajribalari va nuqsonlarini yaxlit holda ochib bergan.

Biroq, yuqorida ko'rsatilganlar bilan kifoyalanib, Farg'ona vodiysi tarixini chuqur o'rganib bo'lmaydi, albatta. Bu esa o'z-o'zidan tarixchi tadqiqotchilar oldida ulkan vazifalar turganligini, tarixning o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan qirralariga yanada ko'proq e'tibor berish zarurligini ko'rsatadi. Bundan tashqari xorijlik tadqiqotchilar tamonidan chop etilgan adabiyotlar bizga yanada mavzuni kengroq yoritishga imkon beradi.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy vazifasi Farg'ona vodiysida matbaachilikning vujudga kelishi, ularning faoliyati haqida to'laqonliroq to'xtalib, matbaachilik tarixiga chuqur kirib borish, o'sha davr mahalliy matbaachilarining millat taraqqiyoti tarixidagi munosib o'rni haqida muayyan tasavvur hosil qilish va bu masalani xolisona, tarixiylik nuqtai nazaridan ochib berishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish o'z navbatida quyidagi vazifalarni belgilab beradi:

— XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti va uning matbaachilikka ta'siri masalasini manbalar va ilmiy tadqiqot materiallari asosida o'rganish va tahlil etish;

— Farg'ona vodiysida XIX asr oxiri XX asr boshlarida matbaachilikning vujudga kelish tarixini o'rganish;

— XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'lka aholisining ma'naviy ongini o'stirishda matbaachilikning beqiyos xizmati va ularning asosiy maqsad va vazifalarini ochib berish ;

— XIX asr oxiri XX asr boshlarida vadiy matbaachiligi va unda tarixiy jarayonlarning yoritilishi masalasini manbalar asosida o'rganish va ularni qiyosiy tahlil qilish;

— XIX asr oxiri XX asr boshlarida vujudga kelgan xususiy matbaalar va ularni tashkil etilishida milliy ziyolilar, jadidchi ma'rifatparvarlarning tutgan o'rni, ularning amaliy faoliyatlarini tadqiq etish;

— Farg’ona vodiysi mahalliy matbaalari faoliyatining mustaqillikdan keyingi yillarda o’rganilish jarayonini tahlil qilish;

— Farg’ona vodiysi matbaachiligining mustaqillik davrida o’rganilishi va ta’lim jarayonida mahalliy manbalardan foydalanishning samarali usullarini ochib berish;

— Tadqiqot ishi yuzasidan umumiy xulosalarni ishlab chiqish.

Magistrlik dissertatsiyasining manbaviy asoslari. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o’lkasida podsho Rossiyasi ma’muriyati tamonidan ta’sis qilingan matbaa nashrlari, xususiy nashrlar bundan tashqari davriy nashrlar Turkestanskiy vedmosti, Turkiston viloyat gazet, Ferganskiy oblast vedmosti gazeta materiallari, shuningdek, o’lkada chop etilgan jadidchilik matbuoti nashrlari, xususan, Tarjimon, Sadoyi Farg’ona, Sadoyi Turkiston, Taraqqiy, Kengash, El bayrog’i, Ulug’ Turkiston va boshqalarda e’lon qilingan maqolalar va xabarlar magistrlik dissertatsiyasi uchun manbaviy asos bo’lib xizmat qildi.

Magistrlik dissertatsiyasining metodologik asoslari. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q”, “Yuksak ma’naviyat — engilmas kuch”, “O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” va boshqa asarlarida O’zbekiston tarixiga oid bildirilgan fikr-mulohazalar, xalqimiz tarixini o’rganishga oid qabul qilingan qaror va farmoyishlari, ma’ruza va nutqlarida ilgari surilgan ilmiy, nazariy fikrlar va g’oyalar, tarix fani haqidagi konseptual ko’rsatmalari o’rganilayotgan mavzu uchun nazariy-metodologik asos bo’lib xizmat qiladi. Tadqiqot ishining metodologik asosini O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning respublikamiz tarixchi olimlari oldiga qo’ygan vazifalari tashkil qiladi.

Tadqiqot ishini yoritish davomida ob’ektivlik, tarixiylik, sababiylik, va holislik, tarixga sivilizatsiyali yondashuv metodlaridan foydalanildi. Voqea va jarayonlar qiyosiy va tahliliy usullar bilan va xronologik izchillikda tadqiq qilindi.. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Farg’ona vodiysi matbachiligi va unda tarixiy

jarayonlarning yoritilishi masalasini manbalar asosida o'rganish va ularni qiyosiy tahlil qilishga alohida ahamiyat berildi. Shuningdek, tadqiqotda vodiy matbachiligi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan yetakchi tarixchi olimlarning ishlarida qo'llanilgan zamonaviy konsepsiya, nazariy-metodologik xarakterdagi fikrlar, tavsiyalar e'tiborga olindi.

Dissertatsiyaning ob'yekti va predmeti. Tadqiqot ishining ob'yekti sifatida XIX asr oxiri XX asr boshlari oralig'i Farg'ona vodiysi misolida olingan bo'lib, vodiy matbaachiligi tarixini o'zida aks ettiruvchi moddiy - ma'naviy hamda yozma manbalarning mustaqillik yillarida o'rganilishi va ta'lim jarayonida mavzuni o'qitishda manbalarning ahamiyati tadqiqot ishining asosiy predmeti hisoblanadi.

Magistrlik dissertatsiyasining nazariy va uslubiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "Yuksak ma'naviyat — engilmas kuch", "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" va boshqa asarlarida O'zbekiston tarixiga oid bildirilgan fikr-mulohazalar, xalqimiz tarixini o'rganishga oid qabul qilingan qaror va farmoyishlari, ma'ruza va nutqlarida ilgari surilgan ilmiy, nazariy fikrlar va g'oyalar, tarix fani haqidagi konseptual ko'rsatmalari o'rganilayotgan mavzu uchun nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Magistrlik dissertatsiyasi ishining metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning respublikamiz tarixchi olimlari oldiga qo'ygan vazifalari tashkil qiladi.

Magistrlik dissertatsiyasi ishini yoritish davomida ob'ektivlik, tarixiylik, sababiylik va holislik, tarixga sivilizatsiyali yondashuv metodlaridan foydalanildi. Voqea va jarayonlar qiyosiy va tahliliy usullar bilan va xronologik izchillikda tadqiq qilindi.

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy yangiligi. Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi shundaki, mavzuni yoritishda tarixiy-qiyosiy usullardan keng foydalanilgan holda umumlashtirilib, quyidagicha tahlil etildi:

— Mustabid tuzum davrida hukmron kommunistik mafkura ta'sirida bo'lgan o'tmishimizdagi qator tarixiy jarayonlar yoritildi;

— Vodiy matbaachiligining o'ziga xos xususiyatlari, Turkiston o'lkasining boshqa hududlardagi matbaachilik faoliyatidan farqli jihatlari tahlil etildi;

— XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Farg'ona vodiysidagi xususiy matbaalar faoliyati va ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi;

— Vodiy matbaachiligining XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi taraqqiyotida muhim o'rin tutgan marifatparvarlarimiz faoliyati atroflicha yoritilgan;

— XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan bugungi kunga qadar yaratilgan matbaachilikka doir manbalar tahlil qilinib, vodiy tarixi o'rganilgan;

— Farg'ona vodiysi mahalliy matbaalari faoliyatining mustaqillikdan keyingi yillarda o'rganilish jarayoni tahlil qilingan.

— XIX asr oxiri XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida mavjud bo'lgan matbaa materiallari tarixiy manba sifatida ahamiyatli o'rganilgan.

— Ta'lim jarayonida samaraga erishish uchun matbaa materiallaridan tarixiy manba va ko'rgazmali qurol sifatida kengroq foydalanish uchun tavsiyalar berildi.

Dissertatsiyaning nazariy va amaliy ahamiyati. Ilmiy tadqiqot ishi davomida to'plangan ma'lumotlardan maktabda tarix fani darslarida, oliy o'quv yurtlarida qo'shimcha kurslar tashkil etishda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda o'qitilayotgan mavzularga mos holda ma'ruza va seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishda, hamda mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini bajarish jarayonlarida unumli foydalanish mumkin.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxatidan, ilovalardan iborat.

I bob. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonga matbaachilikning kirib kelishi va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'рни.

I.1-§. Turkistonga matbaachilikning kirib kelish zarurati va shakllanish jarayonlari.

Chor Rossiyasi tomonidan Turkiston o'lkasining istilo qilinishi natijasida Rossiya imperiyasining mustamlaka hududi sifatida Turkiston general-gubernatorligining (chor ma'murlari Turkistonni shunday ataganlar) shakllanish jarayoni qariyb yigirma yil, ya'ni 1865 yildan 1884 yilgacha davom etdi. Qonli janglardan keyin 1865 yilda chor qo'shinlari Toshkentni bosib oldi. 1867 yil 11 iyulda dastlab ikki viloyat - Sirdaryo (Turkiston) va Yettisuvni o'z ichiga olgan, markazi Toshkentda joylashgan Turkiston general - gubernatorligi tashkil etildi. Markaziy Osiyo xonliklarini (1868 yilda Buxoro amirligini va 1873 yilda esa Xiva xonligini) bosib olish yo'li bilan ularni Rossiya imperiyasining vassali deb tan olishga erishildi. 1876 yilda Qo'qon xonligi qo'shini tor-mor keltirildi va xonlik tugatildi, uning hududida Farg'ona viloyati tuzildi. Uzoq davom etgan urush va turkman xalqi qarshiligiga barham berilishi natijasida 1884 yilda Turkistonning g'arbiy va janubi-g'arbiy hududlari, ya'ni Turkmanistonning bosib olinishi chor Rossiyasining Markaziy Osiyoda olib borgan istilochilik siyosatining asosiy bosqichlari bo'ldi²⁶.

1886 yilda chor hukumati tomonidan qabul qilingan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq, uning tarkibiga uch viloyat: Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlari kiritildi. Turkiston o'lkasi tarkibidan turli yillarda Yettisuv (1867-1882 va 1899-1917 yillar) va Kaspiyorti (1899-1917) viloyatlari ham o'rin oldi. Shu tariqa chor Rossiyasi tomonidan istilo qilingan hududlarga birinchi marta rasman "Turkiston o'lkasi" degan nom berildi. Umumiy boy tarix, o'ziga xos bir-biriga yaqin madaniy an'analar, diniy-axloqiy qarashlar va qadriyatlar tizimiga ega bo'lgan, asrlar davomida turkiy va fors-tojik tillarini o'z

²⁶ O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob.T., "Sharq", 2000. 464-bet.

ona tilidek qabul etib, birgalikda muloqot vositasi sifatida ishlatib kelgan va yagona Turkiston xalqini tashkil etgan etnik birlashmalar va ular yashab turgan ona zaminlari chor Rossiyasi mustamlakasiga aylandi. Rus mustamlaka istibdodi tizimi siyosiy va iqtisodiy zo'ravonlik, tabiiy va mehnat resurslaridan vahshiyona foydalanishning barcha mavjud usullarini to'liq ishga soldi, tub aholining milliy davlat tuzilishi, ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy hayotining barcha sohalarida o'z hukmronligini o'rnatdi. Ishlab chiqarish kuchlarining sifat jihatidan yangilanishi va rivojlanishiga ochiq-oydin qarshilik ko'rsatdi.

Turkiston xalqlarining yagona etnogenetik ildizlari va qardosh xalq sifatidagi belgilarini qabul qilmaslik va inkor etish, bu xalqlarni etnik farqlariga qarab ongli tarzda ajratish va bir-biriga qarshi qo'yish, uning ma'naviy ehtiyojlari va ma'rifiy talablariga, tarixiy-madaniy o'tmishiga bepisand qarash, keng ko'lamda ruslashtirish siyosatini olib borish va ayni vaqtda eski feodal, o'rta asrlarga xos tartib-qoidalar va xurofiy aqidalarning tarafdorlari, ya'ni mutaassib shaxslarga homiylik qilish, erkin va hur fikrlilikka yo'l qo'ymaslik - xullas, mustamlaka hukmronligi tizimining tarkibiy qismi hisoblangan barcha ob'ektiv va sub'ektiv omillar majmui chor Rossiyasining Turkistonda olib borgan mustamlakachilik siyosatining yaqqol isboti edi. Turkiston xalqini harbiy kuch vositasida istilo qilib, o'lkani mustamlakaga aylantirish borasida Rossiya imperializmi bu yerni xom ashyo manbaiga va o'z sanoatining mollari sotiladigan tobe' bozorga aylantirish siyosatini o'tkazdi. Turkiston general-gubernatorligi ijtimoiy adolatsizlik va milliy jabr-zulmga asoslangan hokimiyat edi. Bu yerda chorizm zulmi, o'lkani boshqarishda shafqatsizlik va zo'ravonlik, ruslashtirish va rus nufuzini ko'paytirish siyosati, mahalliy zodagonlarning feodal jabr-zulmi, jamiyatning ma'lum qatlamlariga xos bo'lgan mutaassiblik va jaholat, o'rta asrlar darajasidagi ta'lim, qashshoqlik, kasallik va epidemiyalar mujassamlashgan edi.

Chor mustamlaka ma'muriyati byudjetning 87% ni ochiq va maxfiy politsiyani ta'minlashga va atigi 1,8% ni maorif, shunda ham faqat rus ta'lim tizimi ehtiyojlariga sarflar edi. Milliy ta'lim tizimi esa xususiy tadbirkorlik, o'zini o'zi

mablag' bilan ta'minlash va o'z xarajatlarini o'zi oqlash hamda xayr-ehsonlar hisobiga faoliyat ko'rsatar, unga byudjetdan bir tiyin ham ajratilmas edi. Shunday bo'lsada, rus chorizmining mustamlakachilik siyosati hukm surgan sharoitda Turkistonga intellektual, iqtisodiy va ma'rifiy rivojlanish, texnologik va madaniy andozalarning Yevropacha yangi usullari va metodlari kirib kelganini inkor etolmaymiz. Ob'ektiv tarzda ayrim hollarda esa hatto mustamlaka siyosatiga zid ravishda xalqaro savdo, qishloq xo'jalik va sanoat ishlab chiqarishlari uchun yangi shart-sharoitlar vujudga keldi. Xonliklar o'rtasida ichki urushlar chiqishi ehtimoli kamaydi, oldingi feodal parokandalik tugatildi, milliy o'zlikni anglashning o'sishi va Turkiston xalqlarining milliy birlashishi jarayonlari kuchaydi.

XIX asrning oxirgi yigirma yili va XX asrning dastlabki o'n besh yilida Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy hayotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Shaharlarda yangi qurilgan masjidlar va madrasalar qoshida chor ma'murlarining farzandlari uchun tashkil etilgan maktablar, tub aholi vakillarining bolalari uchun mo'ljallangan rus-tuzem maktablari qoshida kutubxonalar ochildi. Turkistonda kitobat madaniyati uchun yangi bo'lgan qiroatxona va kitob do'konlariga ega noshirlik uylari, rus va Yevropa tillaridagi adabiyotlarni o'zida jamlagan jamoa kutubxonalari paydo bo'ldi. 1870 yilda Turkistonda birinchi yevropacha kutubxona - Toshkent, keyinchalik Turkiston Jamoa kutubxonasi ish boshladi. Bu kutubxona faoliyati o'z nomiga ko'ra, burjuacha ommaviylik tamoyiliga asoslanishi lozim edi. Mazkur tamoyil kutubxona fondlaridan mulkiy va ijtimoiy holati, milliy mansubligidan qat'iy nazar, barcha shaxslar foydalanishi mumkinligini nazarda tutardi. Lekin amalda bu tamoyil to XX asrning 20-yillari boshlariga qadar ham to'liq amalga oshirilmay keldi. 1870 yilda Turkistonda davriy matbuotga asos solindi. 1870 yil 28 aprel (10 may)da Toshkentda rus mustamlakachi ma'murlarining rasmiy gazetasi – "Turkestanskiye vedomosti" ning birinchi soni chiqdi.

Turkistonda 1870-yildan boshlab chop etilgan to'ng'ich gazeta – «Turkestanskije vedomosti» gazetasi rasmiy va davriy nashr bo'lib, O'lkadagi

hukumat manfaatlari asosida tashkil qilingan edi. Metropoliyadan ancha uzoq masofada joylashgan Turkistonda tashkil etilgan bu gazeta o'lkani har tomonlama o'rganish hamda u bilan rus axolisini tanishtirish, ularga madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy xabarlar berish maqsadida tashkil etilgan. Mazkur gazeta Rossiya imperiyasidagi "Guberniya vedomost" lariga tenglashtirilib chiqarilgan, ammo ular bitta guberniyaga, "Turkestanskije vedomosti" gazetasi esa Turkiston general-gubernatorligiga xizmat qilishi lozim edi²⁷.

Gazeta terilgan va chop etilgan joy Turkiston general-gubernatorligi harbiy okrug shtabining bosmaxonasi arabcha shriftga ham ega bo'lib, undan "Turkestanskiye vedomosti" ning o'zbek va qozoq tillaridagi ilovalarini chop etishda foydalanildi. 1883 yildan boshlab ilovalar "Turkiston viloyatining gazetasi" nomida o'zbek tilida chiqadigan mustaqil rasmiy nashrga aylandi. "Gazet o'qimoq odamlarga ko'p foydalar kelturadur, nechukkim gazetalar har xil viloyat va xalqlar xususida xabarlar beradur. Bu xabarlarni gazet o'quvchilar tez vaqtda oladurlar. Shul sababdankim, har xil xabarlar telegraflar birlan tez gaplashib, tez fursatda mashhur bo'lib qoladur va katta gazetlar har kun bosiladur va ham bul xabarlar gazetlarda qisqagina qilib bosilgan sababidin, har bir odamga o'qumoq uchun bemaoldur"²⁸.

80-yillarda tub millat vakillarining farzandlari uchun mo'ljallangan, rus tilida va mahalliy tillarda ta'lim beriladigan rus-tuzem maktablari, 90-yillarda esa yangi usuldagi milliy maktablar, ya'ni usuli jadid maktablarining paydo bo'lishi xalqning ijtimoiy ongida, Turkiston jamiyatining umumiy ma'rifiy va madaniy darajasida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lishiga zamin hozirladi, yangi kitobxonning shakllanishiga, nafaqat qo'lyozma kitoblar muxlislari, balki bosma kitoblar muxlislari sonining ko'payishiga ham imkoniyat yaratdi. Turkiston shaharlarining ijtimoiy hayotida sodir bo'lgan o'zgarishlar dunyoviy bilimlar tarqalishi jarayonining chuqurlashishiga, Turkistonga Yevropacha madaniyat, shu jumladan,

²⁷Shodmonova S. Turkiston tarixi – matbuot ko'zgasida.T., "Yangi nashr", 2011, 18-bet

²⁸Abduazizova. N . Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917). T., "Akademiya". 2000, 79-b.

kitobat madaniyatining kirib kelishiga yo'l ochdi. Turkiston xalqlarining ijtimoiy-madaniy rivojlanishi XIX asrning 70-yillarida milliy matbaachilikning paydo bo'lishiga olib keldi. O'zbek va turkman tilidagi dastlabki kitoblar XIX asrning boshida Turkistondan tashqarida - Rossiya va Tataristonda chop etilgan edi. Chunonchi, 1802 yilda Rossiya Fanlar akademiyasining bosmaxonasida o'zbek tilidagi birinchi darslik - XVIII asr oxirida o'zbek ma'rifatparvari Inoyat Boqi Atnometov tomonidan tuzilgan "Alifbe" kitobi chop etildi²⁹. 1814 yilda Qozon universiteti bosmaxonasi turkman muallifi Alining "Kitobi qissai hazrati Yusuf" - "Yusuf alayhissalom qissasi" asarini chop etdi³⁰. Oradan o'n yil o'tgach, 1824 yilda Qozonda Turkiston xalqlarining tugab borayotgan o'rta asrlardagi tarixiga oid boy manba - Xiva xoni Abulg'azi Bahodirxonning "Shajarai turk" asarining bosma shakli dunyo yuzini ko'rdi³¹. Turkistonda birinchi bosmaxona 1868 yilda Toshkentda, Turkiston harbiy okrugining shtabi qoshida ochildi. Shu yili bosmaxonada birinchi kitob - sayyoh va olim N.A. Severtsovning "Chu va Norin cho'qqilari ostonasidagi tog'li mamlakat va undan sobiq Xitoy Turkistoniga olib boradigan yo'llar to'g'risida" asari (rus tilida) chop etildi. 1871 yilda shu bosmaxonada Turkistonda birinchi o'zbek tilidagi kitob - "1871 yil taqvimi" bosmadan chiqdi. Bu taqvim "Turkiston viloyatining gazet" muharriri tarjimon Shohimardon Ibrohimov tomonidan tuzilgan edi. 1868—1917 yillarda Turkiston o'lkasi hududida turli davrlarda jami 70 dan ortiq bosmaxona va tosh bosmaxona faoliyat ko'rsatdi³². Bosmaxonalar hunarmandlik ustaxonasi ko'rinishida bo'lib, kam quvvatli dastgohlar bilan jihozlangan edi. Bu bosmaxonalarning barchasi kapitalistik tipdagi xususiy korxonalar bo'lib, ularning egalari, eng avvalo, daromad olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Faqat harbiy okrug shtabi, Harbiy - xalq boshqarmasi, general-gubernator kantselyariyasiga qarashli davlat

²⁹ Ziyaev X. Bukxaryu- dvesti let. Pravda Vostoka. 1984,31 iyulya.

³⁰ Yazberdiev A. Turkmenskaya kniga na arabskoy grafike. Ashxabad, O'lo'm, 1981, s.

³¹ O'zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar jamg'armasi, inv.№ 12611.

³² Chabrov G.N. Iz istorii poligrafii i izdatelstva literaturi na mestnix yazikax v do revolyutsionnom Turkestane (1868-1917). - V kn.: Istoriya nauki. Kn. 7. Tashkent, 1954, s. 82 G' Trudo' SAGU. Novaya seriya. Vo'p. 57.

bosmaxonalari hamda Xiva xoni Muhammad Rahimxon II ning saroy tosh bosmaxonasi bundan mustasno edi.

Turkiston o'lkasida bosmaxonalar va tosh bosmaxonalar rus savdogarlari, iste'fodagi harbiylar va amaldorlar, tub millat vakillari tomonidan tashkil etilardi. Agar rus tilidagi kitoblar faqat bosmaxona usulida va faqat ruslarga qarashli bosmaxonalarda chop etilsa, fors va turkiy tillardagi kitoblar o'lkaning tub aholisi vakillariga qarashli bosmaxonalarda va toshbosmaxonalarda chop etilar edi. Chop etish usuli texnologik jihatdan sodda va arzon bo'lgan, ko'rinishdan an'anaviy qo'lyozma kitoblarni eslatadigan toshbosma kitoblar (nashrga tayyorlash chog'ida ularning matni qo'lda ko'chirilardi) kitobxonlar ommasining asosiy talablariga javob berardi. Ammo, toshbosma nashrlar faqat bosmaxonalarning egalari, kitobfurushlar va noshirlarning foyda olishga intilishlariga javob berardi desak noto'g'ri bo'ladi. Ob'ektiv tarzda ular keng aholi orasida ma'rifat tarqatishga xizmat qilardi. Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalarining she'riy to'plamlari, ilmiy asarlari, usuli jadid maktablari va eski maktablar uchun mo'ljallangan darsliklar, Turkiston tarixiga oid kitoblar, ma'rifiy va demokratik yo'nalishdagi nashrlar, qo'shni Sharq mamlakatlari va Rossiya ma'rifatparvarlarining tarjima asarlari, Qur'oni Karim nashrlari, unga yozilgan tafsirlar, madrasalar va diniy maktablar uchun darsliklar Turkiston milliy kitob repertuarida muhim o'rin tutardi³³. Milliy matbaachilik va nashriyot ishining rivojlanishi Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratdi. Jamiyatning turli tabaqalari va ijtimoiy guruhlar vakillari bu imkoniyatdan o'z manfaatlarida foydalanishga harakat qildilar. Asosiy g'oyaviy-siyosiy kurash bir nechta g'oyaviy oqimlar o'rtasida kechdi:

1. Chor mustamlakachi ma'muriyatining g'ayrimilliy assimilyatorlik (hukmron xalq tili va madaniyatini boshqa xalqlarga zo'rlik bilan singdirish, etnografik ma'noda - bir xalqning o'z tili, madaniyati va milliy o'zligini yo'qotgan holda boshqa xalqqa qo'shilishi), izolyatsionistik (xalqlar va millatlarni dunyo

³³ Xolmatov R.N. Farg'ona noshirlari va nashrlari. T., "O'zbekiston". 1986 yil, 12-bet.

hamdo'stligidan va bir-biridan ayirish, bir-biriga qarshi gij-gijlash) siyosati ruhi bilan sug'orilgan rus buyuk davlatchilik shovinizmi mafkurasini.

2. Aholimng muayyan qismi, chunonchi, ruhoniylar, yirik va o'rtahol yer egalarining o'rta asrlarga xos xurofiy, eskicha qarashlarini ifodalovchi eski feodal mafkura.

3. Ahmad Donish (1827-1897), Furqat (1859-1909), Muqimiy (1850-1903), Sattorxon Abdulg'afirov (1843-1901), Berdaq (1827-1900), Avaz O'tar (1884-1919), Zavqiy (1853-1921), Anbar Otin (1870-1914) singari yirik ma'rifatparvarlarni maydonga chiqargan feodalizmga qarshi ma'rifatchilik mafkurasini.

4. XIX asrning 90-yillari XX asrning dastlabki yigirma yilida keng faoliyat ko'rsatgan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Siddiqiy Azjiy, Abdulla Avloniy, To'lagan Xo'jamiyrov (Tavallo), Sadriddin Ayniy, Ahmad Zaki Validiy, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi Vatan mustaqilligi uchun otashin kurashchilarni tarbiyalagan, feodalizmga va mustamlakachilikka qarshi yangi milliy, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifatchilik harakati bo'lgan - jadidchilik³⁴.

Turkiston xalqining chuqur fundamental o'ziga xosliklari, uning teran, sermazmun ma'naviy va axloqiy qadriyatlari, asrlar osha shakllangan madaniy an'analari zahirida vujudga kelgan, tub xalq manfaatlarini ifoda etuvchi birdan-bir ijtimoiy-siyosiy va milliy harakat - jadidchilik va uning vakillari ma'naviy-madaniyat va ma'rifatni yangilash va rivojlantirishga juda katta hissa qo'shdilar, xalq tafakkuri va ma'naviy salohiyatini boyitdilar, XIX asr oxiri - XX asr boshidagi yangi tarixiy sharoitda strategik ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha dolzarb masalalarni o'rtaga tashladilar va ularga muvofiq yechim topdilar. "Jadidchilikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktabi edi. Bu tabiiy, hamonki, maqsad jamiyatni yangilamoq ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa, yetishturmoq lozim. Eski, an'anaviy usulda bu ishni

³⁴ Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. T., "Ma'naviyat", 2002. 17-18-betlar.

amalga oshirish qiyin, chunki zamon o'zgargan, u tezkorlikni talab qiladi. Ikkinchidan, bugungi o'quvchi tarix, jug'rofiya, iqtisod, fizika, kimyo, matematika kabi zamonaviy fanlarni bilishi kerak. So'nggi uch-to'rt asr dunyo taqdirini boshqacha o'zanga solib yubordi. Ovrupani oldinga olib chiqdi. Uning qo'lini sarbaland qildi. Endi Ovrupa ilm-fanini egallamasdan dunyo bilan barobar yashab bo'lmaydi. Bu ilm-fanni o'zlashtirmoq uchun Ovrupa tillarini bilmoq kerak. Ayni paytda o'zlikni ham saqlamoq lozim. Din-diyonat ham zarur. Xullas, yashamoq uchun uchala jihatni ham ushlamoq kerak bo'ladi. Ushlaganda ham hech birini suiste'mol qilmaslik lozim. Aks holda muvozanat buziladi. Muvozanat buzilishi esa, yomon oqibatlarga olib keladi. Masalan, yolg'izgina din ushlansa, dunyo qo'ldan ketadi. Faqat o'zlik, millat desak, yana dunyodan ajrab qolamiz. Birovning biz bilan ishi bo'lmaydi. Ovrupalashsak, o'zlik yo'qoladi. Bu ham fojea. Muvozanat kerak. Buni jahon tajribasi daf'alarcha sinovdan o'tkazgan"³⁵.

5. Rossiya sotsial-demokratlari.

6. Konstitutsion demokratlari.

7. Monarxistlar.

8. Sotsial revolyutsionerlar.

9. Bolsheviklar mafkurasi.

Mazkur har xil g'oyaviy oqimlar o'rtasidagi kurash kitobat ishida, chunonchi, bilimning turli sohalarida chop etilgan bosma kitoblarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishida (kitob ko'paytirish qo'lyozma usulining tez barham topishi bilan baravar) va kutubxonachilik ishining rivojlanishida ham o'z aksini topdi.

Kitoblar adadini ko'paytirishning an'anaviy qo'lyozma usulidan milliy bosma kitob noshirligiga o'tilishining o'ziga xos jihatlari mavjud. Arab imlosidagi alifbe asosida mahalliy tillarda bosma kitoblar, ya'ni litografik- toshbosma usuli bilan kitob ko'rinishida nashr etilishi Turkistonda kitob noshirligi ishi ravnaq topishining o'ziga xos jihati bo'ldi. Rus tilida esa kitoblar harf terish usuli bilan tipografiya (bosmaxona)da chop etilar edi. Milliy kitob noshirlari nega aynan

³⁵ Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. T., "Ma'naviyat", 2002. 17-18-betlar.

litografik matbaachilik usulini tanlagani ham o'z tarixiy sababiga ega. Gap shundaki, har qanday jamiyatdagi kitobat ishi bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlar odatda konservativ, ya'ni muhofazakor va barqaror tabiatga ega bo'ladi³⁶. Tarixan shakllangan barqaror yozma kitobat an'alarini izdan chiqishi, kitobat ishi shakllari va ko'rinishlari, kitoblar nusxalarini ko'paytirish usullari almashishi har qaysi davrda, har qaysi xalqda hamisha murakkab va og'riqli kechadi. Turkistonda va hech bir istisnosiz barcha musulmon mamlakatlarida bosma kitob matbaachiligi G'arb mamlakatlariga qaraganda tarixan ancha keyinroq vujudga kelganligi ham bunga yorqin bir misoldir. Mazkur tarixi jarayon tahlili Turkistonda va unga chegaradosh bo'lgan bir-biriga o'xshash ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, madaniy-mafkuraviy muassasalar va an'analarga ega mamlakatlarda bosma kitob matbaachiligiga o'tilishini tizginlab turgan bir qator umumiy ob'ektiv va sub'ektiv omillar mavjudligini namoyon etadi³⁷. Bu eng avvalo, ikki ming yildan ziyodroq davr mobaynida bir o'zi ustuvor hukmronlik qilib kelgan qo'lda xat yozish san'atidir. Kitoblar adadini ko'chirib ko'paytirishning zabardast qo'lyozma usuli bo'lgan xattotlik – kotiblik san'ati va hunarmandchiligi an'anasidir. Bu ayni mahalda jamiyatning texnologik yangiliklarga ehtiyotkorlarcha munosabati va texnikaviy tafakkur darajasi hamda ijtimoiy ong shakllari holatidir. Va nihoyat, musulmon ruhoniylarining ilm-fan, texnika, ishlab chiqarishning yangi ixtiroi sifatida bosma kitob noshirchiligiga keskin salbiy munosabati hisoblanadi. “Musulmonlar yevropaliklardan o'qotar qurollarni hech ikkilanmasdan qabul qilishgan edi, biroq g'ayridinlarning boshqa bir ixtiroi bo'lmish bosma kitob matbaachiligini o'zlashtirish uchun esa shariat rahnamalarining alohida maxsus qarori talab etilardi, negaki bosma kitoblardan foydalanish din bilan chambarchas bog'liq bo'lgan maktab hayotiga tub to'ntarishni olib kirgan bo'lur edi”³⁸. Asrlar davomida kitoblar adadini

³⁶ Xolmatov R.N. Farg'ona noshirlari va nashrlari. T., “O'zbekiston”. 1986 yil, 20-bet.

³⁷ Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. T., “Tafakkur bo'stoni”, 2011, 373-bet.

³⁸ Bartold V.V. Kultura musulmanstva. Soch. T., 6. M.: 1966. S. 200.

ko'paytirishning yangi usuliga musulmon ruhoniylari va islom davlatlari hukmron tabaqalarining aniq bir tizimga solingan munosabati eng muhim sabablardan biri ekanligini sharhlab o'tgan edi akademik V.V.Bartold o'zining "Musulmon madaniyati" asarida.

Sharq va G'arb madaniyatlari chorrahasida joylashgan Turkiyadek bir mamlakat misolida hunarmandchilik taraqqiyoti davrining bosma kitob matbaachiligidek chinakamiga buyuk kashfiyoti o'z oldida bartaraf etishiga to'g'ri kelgan sub'yektiv omil bo'lmish barcha to'siqlar va qiyinchiliklarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ilk yevropacha tipografiya (bosma matbaa) Istambul shahrida 1494 yilda ochilgan edi. XVI asrda bu yerda arman, XVII asr boshlarida esa grek tipografiyasi vujudga kelgan. XVIII asrda Usmonli imperiyasi sarhadida endilikda katoliklar, armanlar va greklar jamoalariga qarashli bo'lgan o'nlab bosmaxonalar ishlab turmoqda edi. Biroq ayni mahalda, Usmonlilar imperiyasida turk tilida ham, boshqa sharq tillarida ham bosma kitoblarni nashr etish davlat tomonidan taqiqlab qo'yilgani ma'lum. Boshqa mamlakatlarda turli tillarda nashr etilgan din va ilohiyot mavzusidagi kitoblarni mamlakat hududiga olib kelishga ham ruhsatnoma berilmagan edi. Faqat Usmonlilar sulmoni Ahmad III ning 1727 yil 5 maydagi Turkiyada bosma kitob matbaachiligini joriy etish to'g'risidagi farmonidan keyingina birinchi turk matbaachisi Ibrohim Mutaferrih o'sha yil dekabrda Istambul shahrida dastlabki turk bosma matbaasini ochishga muvaffaq bo'ldi³⁹.

Shunga o'xshash mahalliy aristokratiya va musulmon din peshvolari tomonidan bosma arab imlosidagi matnni xushlamaslik holatiga biz Turkistonda ham duch kelamiz. Ularning bosma kitob noshirligiga salbiy munosabatda bo'lishlariga jamiyatda ustuvor hukmronlik qilgan qo'lyozma ko'chirish ana'analari ham, akademik V.V.Bartold tomonidan ta'kidlab o'tilgan omillar ham ta'sir o'tkazgan edi. Shunga qaramasdan, musulmon olamiga mansub mualliflar

³⁹ Ersoy O. Turkiyene matbaaynin girisi ve ilk bosilan eserler. Ankara, 1959. S. 33.

kitoblarining bosma nashrlari Turkistonda XVIII asr oxiridayoq paydo bo'la boshlaydi.

Turkiston xalqlari milliy eski bosma kitoblari repertuarining salmoqli qismini toshbosma kitoblar tashkil etadi. Qo'lyozma, bosma (harf teruv) va toshbosma kitoblarining ayni bir paytda yonma-yon rivojlanishi esa, mustamlaka Turkistonda kitobat madaniyati taraqqiyotining o'ziga xos jihati hisoblanadi. Harf terilmaydigan, oldindan qog'ozga qo'lda yozib chiqilgan va tosh qolipga tushirilgan aynan o'zidek aks ettirilgan matndan nusxa izlar — “ottisklar” (poligrafiya terminologiyasi bo'yicha) olinadigan usul Turkiston shaharlarida keng qo'llandi va tarqaldi. Milliy kitob noshirlari tomonidan bosmaning aynan ana shu usuli tanlab olinishi va uning milliy kitob matbaachiligida mustahkam o'rin egallashining asosiy sabablaridan biri litografiya bosma usuli kitobni bosmadan chiqarish jarayonida xattot mehnatidan ajralmagan holatda unumli foydalanilishi, mohiyat – e'tibori bilan qo'lda kitob ko'chirishning ming yillik an'alariga sodiqlik hodisasi mujassamlashgan edi. Boz ustiga, litografiya usuli xattotning ko'p asrlik qo'lyozma kitoblar yaratish sohasidagi bilimlarini matnshunoslik nuqtai nazaridan ancha to'liq va sifatli qo'lyozmalarni qayta ko'chirish uchun tanlab olishda, shuningdek, qo'lda kitob ko'chirganda xuddi oldingidek kitobat qadriyatlarini boyitish va ko'paytirishga o'z malaka va mahoratini sarflashi uchun ham yangi imkoniyatlar sari yo'l ochib berdi. Shu tufayli toshbosma matbaa usuli milliy kitobat ishi va bosma kitob ishlab chiqarishning o'ta eskirgan an'analarga noiloj kelib qo'shildi. Harf teruvga asoslangan bosma matbaa usulidan farq qilgan toshbosma matbaa usulida harf teruvchilar, muharrirlar, musahhihlar ishi bilan bog'liq bo'lgan ko'plab sermehnat jarayonlarni amalga oshirishni talab qilmas, harf teruv va bosma dastgohlari, qimmatbaho va nodir arab shriftlarini sotib olish xarajatlaridan xalos etar edi⁴⁰. Xususiy tadbirkorlik barqaror va ustuvor bo'lgan bir sharoitda toshbosma matbaa usuli harf teruv bosma matbaa usuliga qaraganda

⁴⁰ Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. T., “Tafakkur bo'stoni”, 2011, 375-bet.

ancha arzonga tushar, bu ham nihoyatda ahamiyatli bir hol edi. Litografiya kitob bosmasi vujudga kelishi va rivoj topishi Turkiston xalqlari taraqqiyotida muhim bosqich bo'ldi. Bosma litografiya usuli keng tarqalishi faol kitob noshirchiligini boshlab bergan holda o'zida salmoqli tarixiy ahamiyatni ham mujassam etgan edi. Birinchi navbatda, litografiyalash uchun "material" bo'lib xizmat qilgan tarix, falsafa, leksikografiya bo'yicha avvallari qo'lyozma holida ommabop bo'lgan ishlar, mumtoz adabiyotga oid asarlardan endilikda ko'p sonli kitobxonlar bemalol foydalanadigan bo'ldi. Ana shu nashrlar tufayli biz qo'lyozmalari saqlanib qolmagan yoki nodir qo'lyozmalardagina mavjud bo'lgan asarlar haqida ham bilib olamiz. Yuqorida aytib o'tilganlardan tashqari, Turkiston milliy bosma kitob noshirchiligida litografiya bosma usuli mustahkam o'rin egallashi va ravnaq topishida xattotlik (kotiblik) san'atida turli-tuman maktablar va oqimlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, usta xattotlar ancha arzon haq evaziga har qanday qo'lyozmani qayta ko'chirib bera olishardi⁴¹. Kitoblar adadini ko'paytirishning qo'lyozma usuli endilikda xalqning kitoblarga nisbatan ortib borayotgan talab va ehtiyojlarini qondirolmazligi hodisasi ham muhim omil hisoblanadi.

XIX asr 80-yillarining o'rtalari 90-yillarining boshlarida Turkiston shaharlarida vujudga kelgan qo'lyozma kitoblarga nisbatan arzon toshbosma kitoblarga barqaror talabdan o'z bosmaxonalarini ishga tushirgan xususiy tadbirkorlar, xususiy litografiya orqali u yoki bu nashrni bosmadan chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni o'z zimmasiga olgan noshirlar va shunchaki, buyurtmachilar, kitoblar adadiga buyurtma tayinlash, ulgurji sotib olish va chakana sotish bilan shug'ullangan kitobfurushlar foydalanib qolishdi. Kitobga bo'lgan talabni mavzu va tipologik jihatdan e'tiborga olib, fan va adabiyot tarixidan xabardorligidan, shuningdek, kitob ko'chiruvchi xattot mehnati va uning sharq qo'lyozmalari matnshunosligidagi bilimlaridan, sharq xalqlari kitoblari repertuarini bilishidan foydalanib, noshirlar va kitobfurushlar rang-barang mavzudagi kitoblarni nashr etishga kirishdilar. Hindiston, Turkiya, Eron va Turon singari turli

⁴¹ Xolmatov R.N. Farg'ona noshirlari va nashrlari. T., "O'zbekiston". 1986 yil, 25-bet.

mamlakatlar noshirchilik amaliyoti, kitob savdosi, kitob bozori va repurtuarining o'ziga xosligi va tipik jihati bu - o'lkalarda ularning xalqlari uchun mushtarak bo'lgan mualliflar doirasi, ya'ni shoirlar, faylasuflar, din peshvolari, tarixchilar asarlari nashr etilishi va muomalada bo'lishidir. Bu hol esa mualliflar asarlari tillari (fors, tojik, umumturkiy yozma-adabiy til yoki turkiy tilning chig'atoy dialekti (lahjasi), o'zbek, ozarbayjon va turk, shuningdek, arab tili) bu mamlakatlar aholisi savodxon qismining ko'pchiligiga bemalol va erkin tushunarli ekanligi bilan izohlanadiki, jamiyat qatlamlari savodxonligi to'g'risida so'z yuritishga esa hojat yo'q. Zero, hech bo'lmaganda ikki tilni — turkiy va forsiy tilni bilish savodxonlikning barqaror alomati va sharti edi. Zullisonaynlik, ya'ni ikki tillilik (turkiy va forsiy tillar nazarda tutilmoqda) yoki hatto uch tillilik IX— X asrlar davridanoq Turon va Eronning ko'plab olim va shoirlariga xos edi. Masalan, buyuk Abu Ali ibn Sino o'z asarlarini arab va fors tillarida dunyoga keltirgan. O'zbek va turkman mumtoz adabiyotlari namoyondalari Navoiy va Bayramxon o'z asarlarini turkiy va forsiy tillarida, Nasimiy va Fuzuliy esa turkiy, forsiy va arab tillarida yaratgan edilar. Aytib o'tilgan omillar Hindiston, Eron, Turkiya, shuningdek, Tatariston (Qozon)dan keltirilgan turkiy, forsiy va arab tillaridagi bosma kitob mahsulotlari mahalliy nashrlar bilan muvaffaqiyatli raqobat qila olishining asosiy sababi bo'ldi. 1940-yilda Alisher Navoiy asarlari toshbosma nashrlarini tavsiflay turib, sharqshunos A.A.Semyonov Hindiston, Eron va Turkiya litografiyalarida Turkistondan doim kitobfurushlar buyurtmasi bo'yicha katta miqdorda kitoblar chop etilganiga e'tiborini qaratgan edi. Jumladan, u Istambul litografiyalarida toshbosma kitoblar chop etishga buyurtmalar bergan buxorolik kitobfurush Eshon Solihxo'ja nomini tilga olib o'tadi⁴².

XIX asming so'nggi choragi va XX asrning dastlabki ikki o'n yilligida Turkiston kitob bozoridagi xorijiy toshbosma kitoblarning asosiy qismini Bombay, Lakhnay, Lahor, Dehli, Istambul, Qozon va Tehrondan keltirilgan nashrlar tashkil

⁴² Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. T., "Tafakkur bo'stoni", 2011, 376-bet.

etgandi. Bular “Muzaffariy”, “Karimiy”, “Haydariy”, “Muhammadiy”, “Hasaniy”, “Nasimiy”, “Safdariy”, “Yusufiy”, “Mohtobiya”, “Panjobiy”, “Hamidiya”, “Husomiy”, “Islomiya”, “Intizomiy”, “Iftixor” va boshqa litografiyalar nashrlaridir. Import bosma kitob nashrlarining tarkibiy-mavzuiy tahlil qilinishi ular orasida diniy-ilohiyot adabiyotlari, asosan, Qur’on va unga yozilgan tafsirlar, ilohiyot, shariat qonunchiligi va huquqi bo’yicha kitoblar ko’pchilikni tashkil etganidan dalolat beradi. Ikkinchi o’rinni adabiy - badiiy kitoblar, forsiyzabon va turkiy tilli mualliflarning to’plamlari (devon, bayoz, tazkira, bir jilddagi asarlar to’plami (kulliyot)) egallaydi. Uchinchi o’rin o’quv adabiyoti va tarixiy asarlarga (saroy tarixiy solnomalari, risolalar, xronikalar, ularning tarixiy majmui), to’rtinchi orin tibbiyot, farmakologiya bo’yicha kitoblar, lug’atlar, maxsus bibliografik asarlar, beshinchi o’rin esa geografiya, astronomiya va matematikaga oid kitoblarga tegishlidir.

Bosma kitob matbaachiligining toshbosma usuliga o’tilishi bilan kitob ishlab chiqarishni qo’lyozma usulida ko’p asrlar davomida mavjud bo’lgan matnni nashrga tayyorlash va uni chop etishning butun boshli tartibi o’zgarishga uchradi. Toshbosma kitob nashr etish jarayoni to’rt asosiy amaliyotdan iborat edi. Jumladan, kitob matnining asli xattot tomonidan adadini ko’paytirish uchun tayyorlanishi, kotib tayyorlangan matnni tosh qolip (forma)ga o’tkazishi, tosh qolipda aynan o’zidek aks ettirilgan matndan nusxa ko’chirib olish va nihoyat, taboqlash va muqovalash jarayonlari. Bosmaxona xo’jayinlari ma’lum miqdordagi to’lov evaziga foydalanib turish uchun dastgohlar va asbob-uskunalarni berib turishar, bosmadan chiqarish jarayonini matbaachilik (poligrafiya) materiallari (maxsus eritmalar, qog’oz va bo’yoqlar), texnik jihozlar bilan ta’minlashni o’z zimmasiga olishar, buyurtmachilar va noshirlar bilan shartnomalar tuzishar edi. Ko’p hollarda litografiya egasi va noshir vazifalari bitta shaxsda o’rindoshlashgan bo’lar edi. Toshbosma korxonasi egasi bo’lish har doim ham ayni mahalda matbaachilik ishlab chiqarish texnologiyalarini yaxshi bilishni anglatmas, ko’pgina bosmaxona xo’jayinlari bilimdon mutaxassislar orasidan texnik direktorlarni

moddiy ta'minlab turishar, texnik direktorlar esa u yoki bu kitobni chop etish bilan bog'liq bo'lgan hamma ishlarni yurgizar edi. Misol uchun, 1896-yilda Toshkent shahrida o'z toshbosma korxonasini ochgan V.M.Ilin nashriyot-matbaachilik jarayonlariga hech mahal chuqur kirib bormagan. Bu bilan esa V.M.Ilin tomonidan texnik direktor lavozimiga tayinlangan Sergey Ivanovich Jabskiy shug'ullanar edi. Qo'qon shahridagi G.Shumakov va I.Vayner toshbosma matbaachiligi korxonalarida ham xuddi shunday ahvolni ko'rish mumkin. Biroq bu narsa ularga korxona mulkdori maqomida o'z familiyalarini kitoblarda qayd etilgan tipografiya yoki litografiya nomiga qo'shib qo'yishga monelik qilmagan⁴³. Litografiyalarning rus egalaridan farq qilgan mahalliy millatga mansub toshbosma ishlab chiqarish korxonasi tashkilotchilari litografiya bosma usuli sir-asrorini mukammal egallagan, vaziyat taqozo qilib qolgan taqdirda ottisklar - nusxa izlar olish uchun aslini o'zlari qayta ko'chirishlari mumkin, o'zlari iste'dodli va mohir xattot bo'lgani uchun matnni tanlab olishi va tahrir qilishi, hatto o'z asarlarini kitob ko'rinishida bosmadan chiqarishi mumkin edi. Qo'lyozmani bosmadan chiqarishga tayyorlash bosqichida noshir noshirchilik jarayonining markazida bo'lgan. Noshir nafaqat o'z shaxsiyatida muharrir va musahhih funktsiyalarini birlashtirgan, qolaversa, nashr etilishi rejalashtirilgan qo'lyozma kitoblar matnlari matnshunoslik talablari masalasida yaxshi, sifatli bo'lishi, qayta ko'chirilgan va nashr etilgan, shuningdek, qayta nashr etilayotgan kitoblarning badiiy va ilmiy saviyasi uchun bosh javobgar shaxsga aylangan edi. Ayrim hollarda nashr etishga tayyorlanayotgan asar matnini noshirlar o'zi qo'lida ko'chirishgan. Turkiyzabon, forsiyzabon va arabiyzabon qo'lyozma kitoblarning ko'p asrlik tarixini obdon biladigan va tushunadigan malakali va boy tajribali xattotlar - kotiblar aytib o'tilgan ana shu barcha jarayonlarda noshirlarning eng yaqin yordamchisi va maslahatchisi sifatida ish ko'rishgan. Noshirlar litografiyalar egalari bilan barcha muzokaralarni yuritishgan, nashr mualliflari, xattotlari, homiylari bilan shartnomalar tuzishar, kitoblarning

⁴³ Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. T, "Tafakkur bo'stoni", 2011, 378-bet.

badiiy bezalishi, ularning bichimlari, ichki va tashqi ko'rinishlarini belgilagan holda qayta ko'chirish uchun qo'lyozmalarni tanlab olishar edi⁴⁴. Nashrga tayyorlash, kitobni bosmadan chiqarish va uni sotishni tashkillashtirish, butun jarayonni moliyaviy mablag' bilan ta'minlash qoida tariqasida buyurtmachilar tomonidan amalga oshirilgan. Noshirlarning o'zi, litografiya egalari, kitob mualliflari, kitobfurushlar, sherikchilikka asoslangan nashriyot-matbaa shirkatlari, shunchaki oddiy odamlar, kitobsevarlar va kitob shaydolari buyurtmachi bo'lishi mumkin edi. Ular ilimli, ziyoli va o'z davrining ma'rifatparvar kishilari bo'lishgan. U yoki bu kitobni nashr etishga undovchi harakat turlicha bo'lgan: eng birinchi mo'may foyda undirish, jamiyat a'zolari orasida o'z asarlarini keng tarqatish, shon-shuhrat qozonishdan tortib xalqni ma'rifatli qilishga imkon yaratib berish, uning intellektual salohiyatini, milliy madaniyatga ravnaq bag'ishlash, ilmiy bilimlarni tarqatishgacha bo'lgan eng olijanob va vatanparvarlik maqsadlari uchraydi. Toshbosma kitoblar noshirlari va buyurtmachilari ism-sharifi nashrlarning titul varag'ida yozib qo'yilgan. Toshbosma kitoblar tadqiqotchisi R.Mahmudova tomonidan adabiy-badiiy va o'quv nashrlarini o'rganish jarayonida nashrni moliyaviy mablag' bilan ta'minlash, ko'pincha qo'lyozmani nashrga tayyorlashni ham o'z zimmasiga olgan 80 dan ziyod kitob noshirlari, buyurtmachilari va homiylari nomlari aniqlangan⁴⁵. Yigirmanchi asrning dastlabki o'n yilliklarida toshkentlik noshir va kitobfurush Mulla Mirza Ahmad Mirza Karim o'g'li rang-barang adabiyotlarni bosmadan chiqarishga tayyorlash bo'yicha o'z faoliyati tufayli adabiy doiralarda keng tanilgan edi. Mulla Mirza Ahmad Mirza Karim o'g'lining nomi 30 dan ziyod kitoblarda sharaflangan. Ana shu kitoblardan ayrimlari ikki-uch marta nashr etilgan, shu bois uning nomidan nashr etilgan

⁴⁴ Xolmatov R.N. Farg'ona noshirlari va nashrlari. T, "O'zbekiston". 1986 yil, 29-bet.

⁴⁵ Mahmudova R.M. Toshbosma asarlar va ularning o'zbek adabiyoti tarixidagi ahamiyati (XIX asr oxiri — XX asr boshlari). Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 1971. 31-bet

ellikka yaqin kitob xususida so'z yuritish mumkin. Ko'pgina kitoblarda toshkentlik boshqa noshirlar - Mulla Ya'qubxo'ja binni Poshshoxo'ja, Qavomiddin Maxdum, Mulla Zufar Shukurmuhammad, Mulla Zuhuriddin maxsum qori, Mulla To'ychi, Saidrasulxo'ja Azimxo'ja maxsum o'g'li, Mulla Abdurahmon, Mulla Muhammad Musa qori Toshkandiy, Mulla Akmalxon Islomboy o'g'li, Saidakbarxo'ja Saidumarxo'ja, Mulla Abduraufxon Toshkandiy, Mulla Muhammad qori mullazoda, Mulla Mir maxdum binni Shoh Yunus, Qori Usmon binni Abdulxoliq Toshkandiy, Abdulla hoji (binni) Asadulla hoji, samarqandlik Sayyid Abdusalim, Mulla Sharifxo'ja Xo'jandiy va boshqalarning ism-sharflari uchraydi. Milliy bosma kitob noshirchiligi ishiga Farg'ona vodiysidan bo'lmish noshirlar Azim hoji Marg'iloniy, Is'hoqxon Ibrat, Ashurali Zohiriy, Mirzo Xayrulla Xo'qandiy, Ibrohim Davron, Oxundzoda Abdurauf Mashhadiy, Husayn Makayev, Mulla Mahmud Hakim Shodi Muhammad o'g'li Yayfoni, Mulla Iskandar Barotboy o'g'li, Saidnosir Mirjalol o'g'li, Mirza Umid Marg'iloniy betakror hissalarini qo'shishgan edi.

Toshbosma kitob matbaachiligi paydo bo'lishi bilan xattotning mavqei va ahamiyati ham o'zgarishga uchradi. Garchi uning qo'lyozmalarni qayta ko'chirish bo'yicha mehnati kitobni nashr etishga tayyorlash jarayonining bosh mezonini bo'lib qolaversa-da, xattot ishtirokisiz bironta ham litografiya ish yurita olmasa-da, xattot bilim va tajribalarini qo'llash sohasi sezilarli darajada torayib boraverdi. Badiiy bezaklarni tanlab olish, sahifaning kompozitsion qiyofasini hal qilish, ichki naqshlar xarakterini belgilash funktsiyalari, qayta ko'chirish uchun eng maqbul matn aslini tanlab olish bo'yicha matnshunoslik ishlari, uni tahrir qilish va solishtirib o'qish vazifalari endilikda noshirga o'tgan edi. Asta-sekin xattot mutlaqo texnik xarakterdagi ishlarini bajargan holda qo'lyozmalarni oddiy qayta ko'chiruvchisiga aylanib boraverdi. Biroq uning bilim va tajribalari ko'p hollarda o'ziga nisbatan ehtiyoj tug'dirmasdan qolmasdi - yirik xattot hammavaqt noshirlar maslahatchisi sifatida ish ko'rishi mumkin. Injiq san'at sohibining fikr-mulohazalari inobatga olinar, o'z kasbi ustasi maqomida e'zozlanar, estetik didiga

to'liq ishonishar, shuning uchun ham ko'pincha xattotni qo'lyozmaning zarur bo'lgan variantini, nashrning uzil- kesil mukammal matnini, nashr bichimini, badiiy bezaklarini, husnixat uslubini va hokazolarni oldindan tanlash va tanlab olishdek murakkab jarayonda ishtirok qilishga jalb etishar edi.

XIX asr oxiri XX asr boshlari ko'plab o'zbek va tojik xattotlari o'z hunari bobida yuksak san'at an'alariga amal qilishni davom ettirdilar. Toshbosma kitoblar matni ko'chirilayotganda qo'lyozma kitoblarning an'anaviy estetikasini - tashqi va ichki nafosatini saqlab qolishga harakat qildilar. Toshbosma kitoblar matnini nashrga tayyorlashda qaysidir darajada ishtirok etgan barcha xattotlar ism-shariflarini shu o'rinda birma-bir aytib o'tishning iloji yo'q, albatta. Turkistonda toshbosma kitob matbaachiligi mavjud bo'lgan kezlarda ularning yalpi miqdori 140 - 150 kishi chegarasida o'zgarib turganini aytib o'tish mumkin, xolos. R.Mahmudova, masalan, nashrlarning faqat bir turini - o'zbek tilidagi adabiy-badiiy kitoblarni tavsiflaganda 70 dan ziyod ism-sharifni aniqlagan edi.

Toshbosma usulida kitob nashr etish jaravonida Komil Xorazmiy (1822 yilda tavallud topgan), Domla Ibrohim binni Domulla Qalandar hoji, Bayoniy, Ibrohim Sulton, Saidxo'ja, Shomurod Shone'mat o'g'li (1850-1922), Shohislom Shoh Muhammad o'g'li, Husniddinxon Shamsiddinxon o'g'li, Mirza Ahmad Rizo Xhojiakbarxon Muhiddinxon o'g'li, Sirojiddin maxdum Siddiq Mirzohid, Oxund o'g'li Xondayliqiy, Mulla Ortiq Haybatulla Xislat, Abdulqodir Murodiy, Rojiy Xo'qandiy, Mirzo Hoshim Xo'jandiy, Mahmudjon sahhof Muhammad Niyoz, Is'hoqxon Ibrat, Mirzo Xayrulla Xo'qandiv, Ibrohim Davron, Muhammad Zufar Muhammad Hasan, Yusufjon Zokirjon o'g'li, Yo'ldosh Jumavoy o'g'li, Abdulla maxdum Muhammad Nosir - Abdulla Nosirov, Muhammad Temir Mirzo Muhammad o'g'li va boshqa o'z ishining ustalari milliy xattotlik san'ati an'analari ravnaq topishiga hissa qo'shdilar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan kitoblar adadini ko'paytirishning an'anaviy qo'lyozma usulidan bosma kitob noshirligiga o'tilishi yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek oson kechmadi. Musulmon

ruhoniylarining ilm-fan, texnika, ishlab chiqarishning yangi ixtirosi sifatida bosma kitob noshirchiligiga keskin salbiy munosabati ushbu tarixiy vaziyatni murakkablashtirardi.

Arab imlosidagi alifbe asosida mahalliy tillarda bosma kitoblar, ya'ni litografik- toshbosma usuli bilan kitob ko'rinishida nashr etilishi Turkistonda kitob noshirligi ishi ravnaq topishining o'ziga xos jihati bo'ldi. Litografiya kitob bosmasi vujudga kelishi va rivoj topishi Turkiston xalqlari taraqqiyotida muhim bosqich bo'ldi. Bosma litografiya usuli keng tarqalishi faol kitob noshirchiligini boshlab bergan holda o'zida salmoqli tarixiy ahamiyatni ham mujassam etgan edi. Milliy matbaachilik va nashriyot ishining rivojlanishi Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratdi.

I. 2-§. Muhammad Azim hoji Marg'iloniy tomonidan Farg'ona vodiysi matbaachiligiga asos solinishi.

Farg'ona vodiysi matbaachiliga xususida gapirishdan avval Markaziy Osiyodagi birinchilardan bo'lgan “Xurshid” nomli toshbosma matbaasi haqida to'xtalib o'tishni joiz deb bildik. Turkistondagi birinchi toshbosma matbaasi - litografiya XIX asr 70-yillari boshlarida Xiva xoni Sayyid Muhammad Rahimxon II saroyi qoshida vujudga kelgan edi. Bu toshbosma matbaasiga ilm-fan va san'at xomiysi, “Feruz” taxallusi bilan ijod qilgan ham shoir, ham xon bo'lgan Muhammad Rahimxon II ning tashabbusi bilan asos solingan edi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, litografiya dastgohlari xon tomonidan Jenevadan (Shveytsariya), boshqa ma'lumotga ko'ra, Erondan olib keltirilgan edi. Turkman kitobshunosi O.Yazberdiev isbotlab berganidek⁴⁶, Xiva toshbosma matbaasining eng birinchi nashri 1874 yilda amalga oshirilgan. Bu o'zbek tilida nashr etilgan ilk toshbosma kitob bo'lib, xorazmlik shoir va tarixchi Shermuhammad Munis (1778— 1829) she'riy asarlari to'plami “Devon ul- Munis” (Munis devoni) edi. Shermuhammad Munis Xorazm tarixiga oid “Firdavs ul-iqbol” (Jannat bog'i) dek mashhur solnoma muallifi bo'lib, 1812 yilga qadar hikoya qiluvchi bu solnoma keyinchalik shoirning jiyani va shogirdi Muhammad Rizo Ogahiy (1809— 1874) tomonidan to'ldirilgan va nihoyasiga yetkazilgan edi. Xorazmda dunyoga kelgan kitoblar orasida davr jihatidan ikkinchisi Abdunosir Farog'iyning fors va arab tillariga oid bolalar darsligi bo'lib, u “Nisob us-sibiyon” (Bolalar nasibasi) deb nomlangan (1876). “Xivada saroy qoshidagi bosmaxona borligi haqida xonlik sarhadidan tashqarida ancha paytgacha ma'lum bo'lmasdan kelgan edi”, deb yozadi O.Yazberdiev o'z tadqiqotida. 1908 yilda Toshkent, Buxoro va Xiva xonligiga tashrif buyurgan rus sharqshunosi – turkolog, A.N.Samoylovich bu toshbosma matbaasi haqida “hatto Toshkentda, hech bo'lmaganda, general-gubernator kantselyariyasida hech vaqoni bilishmasdi, u haqda hech kim xabar

⁴⁶ Yazberdiev A. K voprosu o nachalnom periode knigoizdatelskoy deyatelnosti Xivinskoy litografii (1874 - 1880) G' G' Izvestiya AN Turkmenkoy SSR. Seriya obshestvenno'x nauk. 1971, №4 S. 58.

ham jo'natmagan" - edi, deya alohida ta'kidlaydi⁴⁷. Toshbosma kitoblar tarixi bilan birinchi bo'lib shug'ullangan va 1912 yilda Turkiston Xalq kutubxonasi tasarrufida bo'lgan toshbosma kitoblar qo'lyozma katalogini tuzib chiqqan taniqli sharqshunos A.A.Semyonov Xiva bosmaxonasida chop etilgan kitoblar favqulodda nodirligiga ishora qilgan edi. A.A.Semyonovning e'tirozli ta'kidlovi mutlaqo haqqoniy, chunki saroy toshbosma matbaasi tijorat muassasasi bo'lmasdan, unda bosmadan chiqarilgan kitoblar adadi ming nusxadan ham oshmas edi. Shuning uchun ham Xiva toshbosma matbaasi kitoblari bosmadan chiqqanidan keyinoq nodir kitobga aylanib qolardi.

Xo'sh, xalq Otajon "bosma" deya ataydigan matbaachining toshbosmasi qanqay bo'lgan? Yuqorida aytib o'tganimizdek, 1908 yilda Xivaga kelgan rus sharqshunosi A.N.Samoylovich o'zi yana mazkur toshbosma matbaasi haqida quyidagilarni xabar qiladi: "Xiva xonligida toshbosma matbaasi mavjudligi yoki mavjud bo'lganligi to'g'risida men xivalik (xorazmlik Shermuhammad) Munis devonining 1874 yildagi Xiva nashridan (Armaniy) Vamberi tanlab olgan iqtiboslar bilan tanishib chiqqan kezlarimdanoq bilar edim. Faqat Xivaga yetib kelganimdan keyingina bitta-yu bitta Xiva toshbosma matbaasi (ming sakkiz yuz) yetmishinchi yillardan buyon mavjudligini va xonga tegishli ekanligini bilib oldim. Toshbosma matbaasi doimiy inshootga ega emas, chetdan buyurtmalar qabul qilmaydi, tanaffuslar bilan bir necha yil ishlayapti. Nashr etilgan kitoblar savdoga chiqarilmaydi, xon tomonidan sovg'a tariqasida tarqatib beriladi. Feruz 1900 yili toshbosmani Ko'hna Arkdan Qibla Tozabog'ga ko'chirgan ekan. 1908 yil bahorida xonning toshbosma matbaasi Tozabog' bog'ining markaziy chordarasida, chordaraning kungay tarafini egallagan holda ishlab turgan edi. Chop etilishi kerak bo'lgan asar xattotga toshbosma siyohi bilan nusxa ko'chiradigan bir xonaga kelib tushadi. Boshqa bir xonada nusxa sahifama-sahifa toshga tushiriladi va undan nusxa izlar olinadi. Hozirgi kundagi tosh o'zida to'rt sahifani sig'diradi, avvalgisi

⁴⁷ O'sha yerda

esa faqat bitta sahifa sig'dirgan, xolos. Bosma dastgohi qo'lda harakatga keltiriladi, uning oldida ikki ishchi turadi: birisi charxni aylantirib turadi, boshqasi esa sahifalarni almashtirib turadi. Uchinchi bir ishchi esa alohida stolda bo'yoqni valikka aylantirib surkab chiqadi. Ish borishi ustidan usta ko'z-quloq bo'lib turadi"⁴⁸.

Xiva saroy toshbosma matbaasiga 1874 yilda asos solindi va ba'zi chiqarilgan kitoblarida saroy matbaasining "Xurshid" nomi ostida nashriyot markasi ham qo'yilgan. Xiva "Xurshid" toshbosma matbaasining birinchi ustasi Otajon Abdalov litografiyaning taxmin qilingan ellik yilligida, 1924 yili ana shu sanani aytgan edi⁴⁹. Xorazm Xalq Sotsialistik Respublikasi ilk gazetasi "Inqilob quyoshi"ning bir maqolasida "bosmachi" Otajon Abdalov tarjimai holiga oid ayrim ma'lumotlar keltirilgan. Gazetadagi maqolaga xivalik Umar Qurbonov tomonidan chizilgan birinchi o'zbek "bosmachi" sining portreti ham ilova qilingan⁵⁰. U 1856 yilda tavallud topgan ekan. Boshlang'ich ta'limni, o'sha zamon bolalari singari odatdagidek istiqomat manzilidagi mahalliy domulla qo'lida olgan. 1873 yilda Petro-Aleksandrovsk (hozirgi To'rtko'l shahri) rus-tuzem maktabida o'qigan. Toshbosma kitob matbaachiligi san'atini Otajon Abdalovga Xiva xoni tarafidan Erondan taklif etilgan usta Ibrohim Sulton o'rgatgan. Feruzxon Petro Aleksandrovsk(To'rtko'l)dagi rus-tuzem maktabini bitirib, Pirnaxosdagi "Koshilo" yonida ishlab yurgan Otajon Abdalovni matbaachiga shogirdlikka berdi. Saroy toshbosma matbaasidagi xizmatining ilk to'rt yilida (1874— 1878) Otajon Abdalov shogirdlikda bo'lgan, keyin esa mustaqil ishlay boshlagan. Ish qizib, ustoz-shogird matbaaxonada ayrim hujjatlarni, 1876 yili esa ilk bor Forog'iyning "Nisob us-sibiyon" asarini chop etishdi. Shartnoma muddati tugab, Ibrohim Sulton

⁴⁸ Samoylovich A.N. Xivinskie pridvorni'e knigoxranilixa i knigopechatnya. 50-varaq."Izvestiya AN Turkmenskoy SSR Seriya obxes. Nauk". 1981, №1, 82-bet. O.Yazberdiev tomonidan e'lon qilingan.

⁴⁹ Inqilob quyoshi. 1924, № 16.

⁵⁰ Otajon Abdalov portreti berilgan gazeta sahifasi fotosurati professor G.N.Chabrov tomonidan "Sotsialisticheskiy Uzbekistan" jurnalida e'lon qilingan. 1956, №2, 19-bet.

Eronga ketgach, butun ish Otajonga qoldi. U o'ziga Muhammad Yoqub, Xudirgan xarrot, Xudoybergan muhrkon, Ismoil devonlarni shogird qilib oldi va matbaaxona faoliyati yanada qizg'in tus oldi.

Natijada 1880 yili Navoiyning "Xamsa", 1882 yili "Chor devon", Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqin", Komilning "Devoni Komil" kabi asarlari toshbosmada chop etildi. Shuningdek, Feruzxon saroyidagi shoirlarning devoni ham Otajon Abdalov tomonidan nashr qilindi.

E'tiborlisi shundaki, Feruzning yozganlari bir necha jild devon holiga kelib qolgan bo'lsa-da, matbaaxonasida o'z asarini chop ettirishga shoshilmadi. Farobiy, Navoiy, Ogahiy asarlari toshbosmada nashr qilinganidan so'nggina 1897 yili o'z g'azallarini kitob holida chop qildirdi.

1910 yili ma'rifatparvar Xiva xoni Feruz vafot etgach, ishlar o'lda-jo'lda qoldi. Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, Xiva "Xurshid" toshbosma matbaasida oxirgi kitob 1910 yilda nashr etilgan. Shundan keyingi muddat bilan sanalashtirilgan Xiva toshbosma nashrlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida ham, Qo'lyozmalar instituti to'plamlarida ham uchramaydi. 1910 yil 10 oktyabrdan to 1911 yil 26 fevralgacha bo'lgan muddatda Turkiston o'lkasida nashr etilgan adabiyotlar bibliografik tavsifnomalarida bironta ham Xiva nashri tilga olinmagan⁵¹. Shunday qilib, Xivadagi saroy toshbosma matbaasining noshirchilik faoliyati 1874— 1910 yillarda davom etdi deya qat'iy xulosa chiqarish mumkin.

Muhammad Rahimxon II dan keyin taxtga o'tirgan Asfandiyorxon Otajon Abdalovni isyonkor shoir Avaz O'tar g'azallarini toshbosmada chop etgani uchun zindonband ham qildi. Garchi u yaxshilar yordami bilan qatldan omon qolib, ozodlikka chiqsa-da, matbaaxona ishi to'xtab qolgan edi. Taraqqiyparvar Otajon bosmaning jadidlarga qo'shilganini eshitgan Said Abdullaxon uni 1919 yili yana qamoqqa oldirdi. 1920 yil hibsdan chiqqan oltmish to'rt yoshli Otajon bosma

⁵¹ Zimin L. Bibliografiya G' G' Srednyaya Aziya. Yejemesyachnoe literaturno-istoricheskoe izdanie. T., Kn. II. 1911, 144-bet.

keksaligiga qaramay, shijoat bilan ishga kirishdi. Matbaaxonada ishlar jonlanib, endi nafaqat kitoblar, 1920 yilning 8 martidan “Inqilob quyoshi” gazetasi, hatto, Xorazm respublikasining shoyi qog’oz pullari ham bosib chiqarildi. 1920-30 yillarda Xivadagi matbaaxonada Xorazmning o’ngga yaqin, Qoraqalpog’istonning esa oltita gazeta va jurnallari chop qilingan.

1929 yili Otajon Abdalov zamonaviy poligrafiya sirlarini o’rganish, tajriba oltirish niyatida Toshkent va Moskvaga borib, ish jarayonini o’zlashtirib qaytdi. Vaholanki, bu paytda u 73 yoshga kirgandi. O’zbekiston rahbariyati uning matbaachilikka qo’shgan hissasi, fidoyiligini e’tiborga olib “Mehnat qahramoni” unvoni bilan taqdirladi. Otajon Abdalov hayotining oltmish yilini matbaachilikka bag’ishlab, Nizomiddin Shamsiddinov, Sodiq Halimov, Durdi Panoyev, Ollabergan Rahimov, Ota Miskinov, Boyjon Otajonov, Madrahim Saydaliyev, Qodir Abdullayev singari shogirdlarni yetishtirgan. Ollabergan, Jabborbergan, Rahmonqul ismli uch farzandni voyaga yetkazdi. Afsuski, “katta terror” avj olgan 1938 yil 10 fevralda Otajon Abdalov ham otuvga hukm qilinadi. Bu paytda u 82 yoshga kirgan qariya edi.

Shoir, xattot, muharrir va bastakor Muhammad Rasul mirzaboshi (taxallusi Komil) litografiyani tashkil etishda muhim rol o’ynadi. Komil Xorazmiy (asl ismi Pahlaxon Muhammadniyoz Abdulla Oxund o’g’li(1825-1899)) o’zbek shoiri, xattot, musiqashunos, tarjimon va davlat arbobi. 25-30 yoshlarida shoir sifatida tanilgan. Ogahiy uning nomini o’zining ”Gulshani davlat” nomli asarida keltirgan edi. Litografik kitob nashrlarining o’zini tahlil qilishdan xon Muhammad Rahim II ko’plab kitoblar nashrga tayyorlanishi va bosmadan chiqarilishini, shuningdek, litografiyaning noshirlik faoliyati va ishi ustidan umumiy nazoratni amalga oshirishni aynan Komil Xorazmiyga ishonib topshirgan edi,- deya xulosa yasash mumkin⁵². Komil Xorazmiy nashr etish uchun qo’lyozmalarni tanlab olar, ba’zan ularni o’zi qayta ko’chirar, matnni tahrir qilar va xatolarini tuzatar, nashrlarga

⁵² Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. T., “Tafakkur bo’stoni”, 2011, 384-bet.

so'zboshi yozar, kitoblar bosmadan chiqarilishi, taboqlash va muqovalash ishlarini nazorat qilar edi. Chor Rossiyasi bilan Xiva xonligi o'rtasida imzolangan sulh shartnomasi(Gandamiyon shartnomasi) aynan Komil Xorazmiy qo'li bilan yozilgan edi⁵³. Komil Xorazmiyning zamondoshi u haqda shunday yozadi: "Muhammad Rasul mirzaboshi musiqashunoslikda ham mashhur edi. Ta'liq va nasx xatlarini hiylagina chiroyli yozar edi. Muhammad Rahimxon va Isfandiyorxonlarning amri bilan bir necha kitoblarni yozib chiqqandir. Taqriban besh yuz kishiga xat ta'lim bergandir"⁵⁴. Sharq mumtoz musiqasi, xususan, maqomchilik an'analarini rivojlantirishga xomiylik qilgan, o'zbek kuylarini yozib olish uchun "Tanbur chizig'i" deb ataluvchi nota tizimini joriy etgan.

1880 yilda Komil Xorazmiyning uch sahifalik so'zboshisi bilan Yoqubxo'ja ibn Ibrohimxo'ja Xolisning "Devoni Xolis" to'plami nashr etildi. Unga shoir, xattot, yirik tarjimonning g'azallari, ruboiylari va muhammaslari kirgan edi. Komil Xorazmiy o'zbek milliy kitobat ishi tarixida birinchi bo'lib ikki ulkan ishni amalga oshirdi. 1878 yil davomida Alisher Navoiy "Xamsa" sini nashrga tayyorlash va bosmadan chiqarishga bosh-qosh bo'ldi. Lekin shu yili "Xamsa" ning faqat birinchi "Hayrat ul-abror" dostonini bosmadan chiqarishga ulgurildi. Kelasi 1879 yilda "Xamsa" ning to'liq kitobi nashrdan chiqdi. 1879 yilda Komil Xorazmiy muharrirligida va uning mufassal so'zboshisi bilan Alisher Navoiyning xalq orasida "Chahor devon" nomi bilan mashhur "Xazoyin ul-ma'oniyy" kitobi bosmadan chiqdi(1666 sahifa). Ana shu kitoblarni nashrga tayyorlash jarayonida Komil Xorazmiy tomonidan xon kutubxonasidan Alisher Navoiy hayotligidagi qo'lyozmalarga yaqin va eng to'liq asarlar qo'lyozmalarini tanlab olish bo'yicha ulkan matnshunoslik ishi amalga oshirilgan edi. Keyinchalik esa "Xazoyin ul-ma'oniyy" nashri shu turdagi noshirchilik ishlari orasida birinchisi va so'nggisi ekanligi ma'lum bo'ldi. O'zbek xususiy nashirlaridan birortasi Alisher Navoiyning

⁵³ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T., "Davlat ilmiy nashriyoti", 1999 yil, 519-bet.

⁵⁴ Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. X., "Narkompros nashriyoti", 1925.42-bet.

hamma to'rt devonini to'lig'icha nashr etishga jazm qilmagan. Faqatgina alohida devonlar nashr etilgani ma'lum xolos. Alisher Navoiyning "Xamsa" va "Xazoyin ul-ma'oniyy" asarlari nashr etilishi nafaqat o'sha kezlardagi Xorazm, balki butun Turkiston madaniy hayotida salmoqli voqeaga aylandi, zotan, bunday voqea o'zbek kitobat madaniyati tarixida ilk marotaba ro'y bergan edi.

1882 yilda Komil Xorazmiy buyuk turkman shoiri Fuzuliyning (1494-1556) devonini "Devoni Fuzuliy Bag'dodiy" nomi ostida nashrga tayyorlaydi va chop etadi. Bu nashr Turon zaminidan chiqqan Fuzuliyning birinchi bosma kitobi edi. 1897 yilda Komil Xorazmiy Xiva xoni Muhammad Rahim II (Feruz) she'rlar to'plamiga ham debocha yozib, nashrdan chiqargan edi. Bugungi kunda Xiva saroy toshbosma matbaasida chop etilgan 40 dan ziyod kitoblar ma'lum. Ularning ko'pchiligi adabiy-badiiy nashrlar, Alisher Navoiy, Munis Xorazmiy, Muhammad G'oziy, Muhammad Rizo Ogahiy, Ahmad Tabibiy, XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Xorazm adabiy muhitiga mansub boshqa shoirlar asarlar to'plamlaridir. Ana shular orasida Muhammad Rizo Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqiyn" (Sevishganlar tumori) devonini ikki nashri ham mavjud. Ikki kitobdan birinchi nashri 1882 yilda amalga oshirildi (536 bet, 18 sahifa, muallif debochasi), ikkinchisi esa, 1906 yilda chop etildi (434 bet, 16 sahifa, debocha). Komil Xorazmiy devonining ham to'rt nashri ma'lum. Birinchisi 1880-1881 yillarda Komil Xorazmiyning o'g'li Muhammad Rasul mirzo (taxallusi "Mirzo") tomonidan "Devoni Komil" sarlavhasi ostida e'lon qilindi (184 bet, 8 sahifa, debocha). Qolganlari esa 1895, 1905 - yillarda amalga oshirilgan. 1900 yilda Ahmad Tabibiy Xorazm shoirlari she'rlarini "Majmuat ush-shuaro" (Shoirlar to'plami) nomi bilan nashrga tayyorlaydi. "Feruz" taxallusi bilan she'rlar yozgan Xiva xonidan tashqari to'plamda 33 shoir o'z asarlari bilan qatnashdi. Kitob faqat alifbe tartibida berilgan, g'azallardan tuzilgan. Muhammad Rahim II g'azallaridan keyin barcha 23 shoirning aynan o'sha vazn yoki radifda yozilgan g'azallari berilgan. Har bir g'azaldan oldin qisqagina masnaviy berib boriladi. Ahmad Tabibiyning nashrga debochasi ham xuddi shu masnaviy vaznida yozilgan.

Masnaviyda to'plam mualliflarining nomlari va taxalluslari keltirilgan, ular orasida xonning o'g'illari hamda nevaralari ham bor edi. To'plamdagi 3099 g'azal 1655 sahifalik kitobdan joy olgan. Hasanmurod Qori Laffasiy "Xorazm shoirlarining tarjimai xoli" tazkirasida berilgan ma'lumotga ko'ra, Xiva xoni Muhammad Rahim II "Haft shahzoda" nomi ostida bayoz ham tuzdirgan. Unda u o'z jiyanlari va og'aynilari ijodidan she'rlar keltirgan. 1906-1909 yillarda bayoz Xiva litografiyasida to'rt marta nashr etildi. 1906-1909 yillarda Xorazm shoirlarining "Majmuat ush- shuaro" devoni to'plamining to'rt nashri amalga oshirildi. Uning birinchi nashri 1906 yili chop etildi (598 bet), ikkinchi nashri 1907 yilda (451 bet), uchinchisi 1908 yilda (1192 bet). Shuningdek, "Xurshid" saroy nashriyotining mahsuli sifatida Munisning "Devoni savodi ta'lim" (1878), Muhammad Yusuf Maxdumning "Devoni Rojii" (1879), "Devoni Xolis"(1880), "Chor kitob" (1880), Muhammad Rahimxonning "Devon"i (1880), Alisher Navoiyning "Badoye' ul-vasat" (1881, 1882), "G'aroyib us-sig'ar"(1881), "Navodir ush-shabob"i (1881), "Devoni Bedil" (1883, Umar Xayyom ruboyilari bilan birga), XV asr muallifi Ali Safiyning "Rashahotu ul-hayot" asari (1890), Lutfullo Nasafiyning "Sharh va tarjimai fiqhi Kaydoni" musammi ba targ'ir ul musammin" asari (1890). "Fiqhi Kaydoniy ma'sharh" ning o'zbekcha tarjimasi, "Devoni Ogahiy" (1905), "Devoni Bayoniy" (1906), "Devoni Komil va tavorix shohon Xorazm" (1909), "Devoni Tabibiy forsiya" (1909), Rizobek Xivaqiyning "Muntaxab ul- lug'at Rizoii" asari (sanasi qo'yilmagan), "Devoni Sultoni" (1906, 1907, 1908), "Devoni Sanoyi" (1909), "Devoni Sodiq" (1906, 1918), "Devoni Tabibiy" (1909, 1910), "Hayrat ul-oshiqin" (1910), "Devoni Oqil" (1906), "Devoni G'ujjiy" (1907, 1908, 1909), "Devoni Farrux" (1906), "Devoni Nazir" (1907, 1909), "Zayn al-arab" (1911), "Mazhar al-ishtiyoq" (1909) nashrlarni keltirish mumkin.

1895 va 1900 - yillarda Ahmad Tabibiyning o'zbek va fors tillaridagi "Hayrat ul-oshiqin", "Munis ul-ushshoq" va "Mir'ot ul-ushshoq" asarlari chop etildi. Markaziy Osiyo xonliklari ichida birinchilardan bo'lib litografik kitob bosish usulini joriy qilib, xalq ma'naviy madaniyatini o'stirishga va milliy madaniy

boyligimiz bo'lgan durdona kitoblarimizni kelajak avlodga yetkazib berishdek sharaflı vazifani bajargan Xiva xonligi matbaachiligining xizmatlarini hamisha yodda saqlaymiz.

Xronologik jihatdan Farg'ona vodiysida milliy kitoblar bosib chiqargan birinchi toshbosma matbaa ustaxonasi Marg'ilon shahrida 1884 yilda Muhammad Azim hoji Marg'iloniy tomonidan ochilgan edi. Muhammad Azim savodxon shaharliklar, o'rtahol odamlar ichidan yetishib chiqqan, o'z davri va o'z davrasiga nisbatan ilg'or qarashlarga ega bo'lgan bir inson bo'lgan. O'zbek yozuvchisi va o'ttizinchi yil nashriyot xodimi bo'lmish Husayn Shamsning O'zbekiston Davlat nashriyoti tomonidan 1936 yilda chop etilgan "Matbaachilik ham uning qisqacha tarixi" kitobida noshir Muhammad Azim tilga olib o'tilgan birdan-bir manba bo'lib qolmoqda. Muallif shunday yozadi: Haj safaridan qayta turib marg'ilonlik Muhammad Azim hoji Hindistonda to'xtaydi va litografiya ustaxonalaridan birida bosma kitob matbaachiligi san'atini o'rganib oladi. 1867 yilda Bombay shahrida litografiya uchun jihozlar sotib oladi. Turkistonga qaytib keladi va toshbosma dastgohlarini Qo'qon shahrida o'rnatadi, bu yerda u hukumatning ruxsatisiz o'g'illari bilan birga maxfiy ravishda ishlaydi. Bir qancha vaqt o'tganidan keyin litografiya butunlay yonib ketadi. Shaharning rus ma'muriyatiga litografiya mavjudligi ma'lum bo'lib qoladi, uning qolgan barcha asbob-uskunolari musodara qilinadi. Muhammad Azimning faoliyati shu taxlit poyoniga etadi⁵⁵. Husayn Shams o'zi bu ma'lumotlarni olgan manbani ko'rsatmagan. Muallif Azim hoji toshbosma ustaxonasida chop etilgan kitoblar to'g'risida ham eslatib o'tmaydi.

Qo'qon Adabiyot muzeyi xodimi, filologiya fanlari nomzodi Ahmadjon Madaminov tomonidan 1980 yillar boshlarida o'tkazilgan ilmiy izlanishlar Azim hoji Marg'iloniy toshbosma matbaasi ish boshlagan aniq bir sanani tayinlash, uning faoliyati xronologiyasini aniqlashga imkon berdi. Uning Muhammad Azim hoji Marg'iloniy tomonidan chop etilgan, unutilgan va muqaddam noma'lum kitoblarni topishi va sotib olishi o'zbek eski bosma kitoblari silsilasida mavjud

⁵⁵ Shams H. Matbaachilik ham uning qisqacha tarixi. Toshkent-Samarqand, "O'zdamnashr", 1936.

bo'lgan uzilishlarni ma'lum darajada to'ldirdi. G'afur G'ulom nomidagi Farg'ona viloyat Adabiyot muzeyida №234 raqam ostida saqlangan va noshirning o'zi tomonidan ko'chirilgan "Devoni Hofiz" Azim hoji toshbosma nashri titul varag'ining orqa tarafida keltirilgan annotatsiyadan u 1860 yil boshida haj safariga jo'nab ketgani ma'lum bo'ladi. Qaytib kelayotganida ma'lum vaqt Bombay shahrida to'xtaydi. Bu yerda u "Muzaffariy" toshbosma matbaasida bosma kitob matbaachiligi mahoratini o'rganadi. 1884 yilda u litografiya uchun jihozlar to'liq komplekti bilan birga vatanga qaytib keladi va ularni Marg'ilon shahrida o'rnatadi. Husayn Shams baxtga qarshi bu tafsilotlarning hammasini ham bilmagan va Azim Hojining toshbosma matbaachilik faoliyati 1887 yilda Qo'qon shahrida boshlangan deb hisoblagan. Shunday qilib, Azim hoji o'zi yozgan, keltirilgan manba, shuningdek, uning mufassal annotatsiyalari bo'lgan boshqa nashrlari Husayn Shams tomonidan ilgari surilgan fikrlarni barbod qiladi. Bu narsa tarix fanida barqaror tus olgan. Farg'ona vodiysida bosma kitob matbaachiligi faqatgina XX asr boshlarida vujudga kelgan edi,- degan nuqtai nazarni ham rad etadi⁵⁶.

Muhammad Azim hoji Marg'ilonda o'z toshbosma matbaasini tashkil qilgan o'sha yillarda (1884) butun Turkistonda atigi ikkita toshbosma matbaasi mavjud bo'lib, birinchisi - Xiva xoni Muhammad Rahim II saroyi qoshida 1874 yildan, ikkinchisi esa Toshkent shahrida S.I.Laxtin bosmaxonasi qoshida 1883 yildan beri mavjud edi. O'zbek taraqqiyparvar ziyolilari litografiya kitob matbaachiligini keng miqyosda tashkil qilishga hali kirishmagan edi. Shu ma'noda Muhammad Azim hoji Marg'iloniy birinchi qaldirg'och bo'ldi. Marg'ilon shahrida Muhammad Azim o'z faoliyatini to'liq imkoniyat bilan yo'lga qo'ya olmadi. Bu yerda Hindiston, Turkiya, Eron, Misr mamlakatlarining nisbatan arzon bosma kitoblari importi yo'lga qo'yilgan sharoitda kitobfurushlar bilan raqobatga dosh berish oson ish emasdi. Muhammad Azim hoji, albatta, foyda topishni istardi. Biroq kichik shahar bo'lmish Marg'ilon xaridorlari uning hamma mahsulotlarini sotib olishga qodir

⁵⁶ Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. T, "Tafakkur bo'stoni", 2011, 391-bet.

emasdi. Ana shuning uchun ham Muhammad Azim hoji o'z toshbosma matbaasini o'sha kezlarda butun Farg'ona vodiysi madaniyat va adabiyot markazi bo'lmish Qo'qon shahriga ko'chirishga qaror qildi. Faqat birgina Chorsu mavzeyida yigirmadan ziyod muqovasozlik ustaxonasi mavjud edi. Kitobfurushlar rastalari esa shahar bozorlari va mahalliy bozor-guzarlarining har birida besh-oltitadan bo'lgan. Har bir yangi kitob Qo'qon shahrining so'z san'atini sevuchi muxlislari orasida tezda qo'lma-qo'l bo'lib, tarqalib ketar edi. Muhammad Azim hoji o'z toshbosma matbaasini Qo'qon shahri Katta Chorsu mavzeyiga o'rnatdi. Bu yerda 1887-1891 yillarda 20 nomdagi kitoblar bosmadan chiqarildi⁵⁷.

Marg'ilon shahrida Muhammad Azim hoji faqat ikkita kitobni nashr etishga ulgurgan edi, xolos. Shulardan birinchisi "Devoni Hofiz" marg'ilonlik kitobfurush va muqovasoz Hoji Abdullabek Sahhof maslahati bilan 1884 - yilda bosmadan chiqarilgan. Muhammad Azim hojining Marg'ilonda nashr qilgan ikkinchi kitobi esa So'fi Olloyorning kitobi "Sabot ul- ojiziyn" asari bo'ldi (1885).

Muhammad Azim hoji toshbosma matbaasida chop etilgan birinchi kitob haqida gapiradigan bo'lsak, u buyuk fors-tojik shoiri Xoja Shamsiddin Muhammad Hofiz Sheroziyning she'rlar to'plami – "Devoni Hofiz"dir. Bu kitob hijriy 1302 yil sha'bon oyining 6 kunida (1884) xattot Abdulkarim Nasafiy tomonidan ko'chirib tugatilgan. Shu yildayoq kitob Muhammad Azim hojining Marg'ilon shahridagi toshbosma matbaasida bosmadan chiqarilgan edi. Kitob muqovasiga jigarrang uch ottiskasi tushirilgan. Titul varag'i ham mavjud bo'lib, unda "Hofiz" so'zi unvonda hoshiyalangan. Unvon ostida esa "Nasabi Hoji Abdullohbek sahhof dar boldayi Marg'ilon dar korxonayi Hoji Azimjon tab' yoft" jumlasini keltirilgan (Marg'ilon shahrida Hoji Azimjon korxonasida Hoji Abdullohbek sahhof buyurtmasi bo'yicha chop etilgan). Kitob 272 sahifadan iborat bo'lib, shundan 8 sahifasi an'anaviy "debocha", ya'ni so'zboshiga ajratilgan.

Muhammad Azim hojining vaqt jihatidan keyingi nashri Alouddin ibn Muhammad an-Najotiyning arab tili bo'yicha qo'llanmasi bo'lib, u Olimxon

⁵⁷Xolmatov R.N. Farg'ona noshirlari va nashrlari. T, "O'zbekiston". 1986 yil, 32-bet.

madrasasida Fayzullaxon ibn Muhammad Rizo al-Xo'qandiy tomonidan ko'chirilgan. Titul varag'ida quyidagi jumla keltirilgan: "Dar boldayi Xo'qand dar sob'oati Hoji Azimjon tab' gardida, mashhuri jahon shud" (Qo'qon shahrida Hoji Azimjon toshbosma matbaasida chop etilib, butun dunyoga mashhur bo'ldi). Kitob 240 betdan iborat bo'lib, ayrim sahifalarda tushunish qiyin bo'lgan arab so'zlariga izohlar berilgan. Oxirida kolofon keltirilgan unda "Alfozi nasiba" sarlavhasi ostida grammatika foydasi haqida 61 misra she'r ilova qilingan.

Qo'qon Adabiyot muzeyi xodimi Ahmadjon Madaminov Qo'qon shahrida yashovchi A.Ahmedovdan sotib olgan "konvolyut"⁵⁸ kitob Muhammad Azim hojining boshqa nashrlari orasida eng diqqatga sazovoridir. Bu kitob 5 ta mustaqil nashrlardan tashkil topgan bo'lib, ulardan har biri o'z titul varag'iga ega hamda ana shu titul varaqlarda asar nomi, muallif va litografiya nomi bronza bilan ko'rsatilgan. Konvolyut kitobga kirgan birinchi asar buyuk shoir va olim Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari bo'lib, 144 sahifaga joylashtirilgan. Titul varag'ida asar Abdulqodir Sahnaf puli hisobiga va Muhammad Azimjon Marg'iloniy tashabbusi bilan Qo'qon shahrida, hijriy 1307 yil (milodiy 1889 yil)da uning korxonasida chop etilgani ko'rsatib o'tilgan. So'nggi sahifada esa ushbu asar xattoti Abdulqayum binni Mulla Muhammad Umar ekanligi ko'rsatilgan. To'plamga kirgan ikkinchi kitob "Ta'binomai Xorun ar-Rashid" asaridir. To'plamning uchinchi kitobi So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojiziyn" asari bo'lib, 176 sahifadan iborat. Kitobning so'nggi sahifasida So'fi Olloyor vafotiga bag'ishlangan xronogramma hamda kitob nashr etilgan sana keltirilgan. Keyingi to'rtinchi kitob "Favz un-najot" diniy-didaktik xarakterda bo'lib, 248 sahifadan iborat, oxirida kitob yaratilishi tarixiga bag'ishlangan so'ngi so'z berilgan. Beshinchi oxirgi kitob "Farzi ayn" ham diniy mazmunda bo'lib, u 11 sahifadan iborat, garchi barcha sahifalar raqamlab chiqilgan bo'lsa-da, har bir sahifa oxirida

⁵⁸ Konvolyut - egasi tomonidan turli mustaqil nashrlardan (kitoblar, jurnallar, broshyuralar, ottisklar, maqolalar) tuzilgan va muqovalangan to'plam.

“hofizlar” mavjud. Kitobning barcha sahifalari to’la saqlangan. “Mantiq ut-tayr” dostonini ko’chirgan xattotnikidan tashqari boshqa xattotlarning ism-sharifi ko’rsatilmagan. Barcha kitoblar husnixati bir xilligi e’tiborga olinsa, hamma kitoblar bitta xattot, ya’ni Mulla Abdulqodir binni Mulla Muhammad Umar tomonidan ko’chirilgan deya ta’kidlash mumkin. Muhammad Azim hoji toshbosma matbaasida chop etilgan keyingi kitob “Toshbosma kitob” deb ataladi. Bu to’plam 14 mustaqil asardan tashkil topgan. Kitob 1891 yilda chop etilgan. Kitobning xattoti Mulla Abdullajon Mahmud, tuzuvchisi esa Muhammad Niyoz Xo’qandiydir. Uning jigarrang muqovasi besh rombsimon tishlama bezaklidir. Kitob 488 sahifadan iborat. Muqovaning ichki beti juda chiroyli naqsh bilan bezatilgan. To’plamga arab tilini o’rganish bo’yicha “Bidon” (Bilgil) va “Kofiya” o’quv qo’llanmalari, astronomiyaga oid “Shamsiya” kitobi, Abdulloh ibn Mas’ud ibn Tojning “Muxtasar ul-viqoyafi masn ul-Hidoya” asari, “Mulla Jalol”, “Tahzid” (bolalar uchun grammatika bo’yicha kitob) va boshqalar kiritilgan. Oxirgi kitobning so’nggi sahifasida xotima qismi mavjud bo’lib, unda kitob nashri Muhammad Azim hoji tashabbusi bilan amalga oshirilgani ko’rsatib o’tilgan.

Muhammad Azim hoji toshbosma matbaasi Husayn Shams ishora qilib o’tganidek, 1891 yilda ro’y bergan yong’indan keyin o’z faoliyatiga chek qo’ygandir. Ammo har holda bu litografiyada 1891 yildan keyin nashr etilgan kitoblar haligacha topilganicha yo’q. Balki Muhammad Azim hojining bizga hali noma’lum nashrlari xususiy kolleksiyalarda saqlanayotgan va hali o’z tadqiqotchilarini kutayotgandir. Bularning barchasi kelib chiqishi asli Farg’ona vodiysidan birinchi xususiy o’zbek milliy noshiri bo’lmish Muhammad Azim hoji faoliyati xronologik maydonini 1884— 1891 yillar bilan chegaralashga imkon beradi⁵⁹.

Xulosa o’rnida aytib o’tishimiz joizki, Markaziy Osiyo xonliklari ichida birinchilardan bo’lib kitob bosishni yo’lga qo’ygan Xiva xoni Muhammad RahimII

⁵⁹Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. T., “Tafakkur bo’stoni”, 2011, 394-bet.

o'z sa'y – harakatlari bilan ilm – fan rivojiga xomiylik qilib kelgan. Nodir kitoblarimizning asrlar osha yashab, kelajak avlodga yetkazish borasida juda kata ishlarni amalga oshirgan. Buyuk allomalarimizning durdona asarlaridan foydalanib yosh avlodni tarbiyalashdek savobli ishlarni yo'lga qo'yishgan.

Farg'ona vodiysi matbaachiligining tamal toshini qo'yib bergan ma'rifatparvar Azim hoji Marg'iloniyning xizmatlari juda arzirlidir. Uning ko'p yillik sayohatlari mahsuli o'laroq bosmachilik dastgohlari bilan qaytishini o'ziyoq uning yuksak ma'naviyat egasi bo'lganligidan dalolatdir. Azim hojining matbaachilik faoliyati uncha uzoq davom etmagan bo'lsada, ammo uning nashr etgan kitoblari hozirgacha o'z qadr-qimmatini yo'qotganicha yo'q.

II bob. Farg’ona vodiysi maatbaachiligi va unda mahalliy ziyolilarning o’rni.

II. 1-§. Is’hoqxon Ibratning “Matbaayi Is’hoqiya” bosmaxonasi va uning xalq ma’naviy hayotini boyitishdagi roli.

“Namangan qadimdan ko’p – ko’p iste’dod egalarining parvozig qanot bergan ilohiy bir makondir. Bu ko’hna yurtida tug’ilib ijod qilgan Maxdumi A’zam Kosoniy, Boborahim Mashrab, Fazliy, Nodim Namangoniy, Is’hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So’fizoda singari shoir va ma’rifatparvarlarning nomlarini xalqimiz hurmat bilan tilga oladi”⁶⁰.

Is’hoqxon Junaydullaxo’ja o’g’li Ibrat (1862— 1937) ning 1908 yil dastlab Namangan uyezdi To’raqo’rg’on qishlog’ida asos solingan, keyin esa, 1910 yili Namangan shahriga ko’chirilgan toshbosma matbaasi Farg’ona vodiysida xronologik jihatdan ikkinchi xususiy matbaa korxonasi bo’lib, o’zbek bosma kitob noshirchiligi vujudga kelishi va rivoj topishida katta ahamiyat kasb etgan edi⁶¹. Taraqqiyparvar, ma’rifatparvar shoir, o’z zamonasining yirik tilshunos olimi, iste’dodli xattot, pedagog, otashin publitsist Is’hoqxon Ibrat ayni mahalda ilk o’zbek noshirlaridan biri edi. Is’hoqxon Junaydullaxo’ja o’g’li Ibrat (Ibrat uning taxallusi) Namangan shahridan uncha uzoq bo’lmagan To’raqo’rg’on yaqinidagi Sayram qishlog’ida dehqon oilasida tavallud topdi. Uning otasi Junaydullaxo’ja o’g’li o’z zamonasining savodxon va madaniyatli kishisi bo’lib, uch tanob yer va chorboqqa egalik qilar, ularga ishlov berar, shu taxlit o’z oilasini ta’minlab kelar edi. Junaydullaxo’ja o’g’li adabiyotga qiziqar, “Nodim” taxallusi bilan she’rlar yozar edi. Is’hoqxonning onasi Hurbibi savodxon, ziyoli, qo’li gul ayol bo’lib, o’z uyida qishloq qizlarini savdaxonlikka o’rgatar, musulmonlikka o’tilganidan keyingi davrda Turkiston shahar va qishloqlarida odat bo’lganidek otinoyilik qilar edi. Is’hoqxon boshlang’ich ta’limni avvalboshda onasi qo’l ostida oldi, keyin esa

⁶⁰Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., “O’zbekiston”. 2017, 73-bet.

⁶¹Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. T., “Tafakkur bo’stoni”, 2011, 405-bet.

madrasada o'qidi. 1878 yili tahsilni davom ettirish uchun u Qo'qon shahriga keldi. Bu yerda u Muhammad Siddiq Tunqotar madrasasida o'qidi. U madrasa fanlari bilan kifoyalanib qolmasdan, Sharq mumtoz ijodkorlari asarlarini mustaqil ravishda o'rgana boshladi. Arab va fors tillari bilan bir qatorda rus tili, rus adabiyoti asarlarini ham o'rgandi, rus va o'zbek tillarida nashr etilgan "Turkestanskiye vedomosti" va "Turkiston vilovatining gazetisi" hamda "Tarjimon" gazetalari doimiy o'quvchisiga aylandi. Qo'qon madrasasi tahsili (1878-1886) yillari Is'hoqxon Ibrat uchun g'oyat samarali kechdi. Bu yerda u Qo'qon adabiy muhiti namoyandalari, jumladan, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Haziniy va Nodim kabi shoirlar ijodi bilan yaqindan tanishish, o'qib-o'rganish, oshno tutinish imkoniyatiga ega bo'ldi. Badiiy so'z tabiatiga oid Abu Nasr Forobiyning "Shoirlarning she'r yozish san'ati qonunlari haqida", Nizomiy Aruziy Samarqandiyning "Nodir hikoyatlar", Abdurahmon Jomiyning "Silsilat uz-zahhob", Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir", "Muhokamat ul-lug'atayn" va yana juda ko'p Sharq olimlari asarlarini mustaqil mutolaa qildi. Sharq mumtoz poetikasi fanining ko'pgina sohalarini puxta egalladi. Ibrat 1886 yili Qo'qon madrasasini tugatgach, ona qishlog'i To'raqo'rg'onga qaytadi va o'z faoliyatini ma'rifat tarqatishga qaratadi. "Usuli qadim" qabilidagi maktablarni isloh etib, jadid maktablarini ochishga kirishadi. Ammo ko'p o'tmay, mutaassib kimsalar tomonidan bu ilm ochoqlari "kofirlar maktabi" tamgasi bilan ta'qiqqa uchraydi⁶².

U xattotlik san'atiga qiziqdi va bu san'at sir-asroriga oshno tutindi. "Lug'ati sitta al-sina" ("Olti tilli lug'at", 1901) va "Jome' ul-xutut" ("Xatlar majmui", 1912) kitoblaridan ma'lum bo'lishicha, u yigirma besh yoshlarga kirgan kezlarda, ya'ni 1887 yilda uzoq davom etgan sayohatga otlangan edi, ya'ni Makkayi Mukarrama safariga otlanadi. Ammo onasi o'pka shamollashi oqibatida yo'lda vafot etadi. Is'hoqxon Ibrat Qobul, Istanbul, Jidda, Makka, Madina kabi shaharlarda bo'lib, so'ngra Hindistonga yo'l oladi, bir muddat Kalkutta, Mumbai, Dehli shaharlarida

⁶²Xolmatov R.N. Farg'ona noshirlari va nashrlari. T., "O'zbekiston". 1986 yil, 40--bet.

yashaydi. G'arbning Bulg'oriya - Sofiya, keyin Afina, Rim shaharlarida bo'ladi. Xalq hayoti, turmush tarzi bilan yaqindan tanishadi. Safar davomida arab, fors, hindi, urdu, ingliz tillarini o'rganadi va eng muhimi, yozilajak ilmiy asarlari uchun boy material to'playdi. 1895 yilga qadar u Sharq va G'arbning ko'pgina mamlakatlarida bo'ldi.

Ibrat 1896 yili Hindiston, Birma, Xitoy, Qoshg'ar orqali o'z vatani Namanganga qaytib keladi. O'z sayohati chog'ida Is'hoqxon Ibrat ko'plab mamlakatlar xalqlarining hayoti va turmushi bilan yaqindan tanishdi. U ana shu xalqlarning olimlari va shoirlari bilan, ularning yashash joyi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, do'stona munosabatda bo'lgan edi. Is'hoqxon Ibrat shunday yozadi: "Begona mamlakatdan bo'lmish savodxon kishini uchratganimda men undan yangi narsalarni bilib olishga, uning bilimlari qanchaligini anglab etishga harakat qilar edim". Is'hoqxon Ibratni ayniqsa, bu xalqlarning tillari va yozuvlari qiziqtirib qo'ygan edi. "O'z hayotimning salmoqli qismini men ularning yozuvi va tilini o'rganishga baxshida etdim, islom mamlakatlari barcha yozuvlarini o'rgandim, - deb yozadi u, - Hindiston, Bombay, ibroniy (ivri, eski yahudiycha), sunoniy, yunon, ingliz tillarini o'rgandim"⁶³.

Yevropaliklarning madaniy boyliklari, ularda dunyoviy fanlar va texnika yutuqlaridan foydalanilishi Is'hoqxon Ibrat ko'nglida o'chmas iz qoldirdi. Is'hoqxon Ibratning Yevropa madaniyati, fani va texnikasi bilan tanishuvi unga juda ko'p narsalarni taqqoslab ko'rish imkonini berdi. O'z sayohati davomida Is'hoqxon o'zining bo'lg'usi "Lug'ati sitta al-sina", "Jome' ul-xutut", "Farg'ona tarixi" va boshqa ilmiy ishlari uchun qimmatli material to'pladi.

Is'hoqxon Ibratning fan va madaniyat sohasidagi ko'p qirrali faoliyatini yuksak baholagan qo'qonlik shoir, ma'rifatparvar va publitsist Ibrohim Davron shunday yozgan edi: "Is'hoqxon to'ra ulumi diniyya va adabiyiyada ustoz komilligi butun Farg'ona va digar jihati Osiyoda ustoda inkor o'lunmas darajada bir mavqei mumtoz tutmishdur. Is'hoqxon to'ra fununi dunyoviyda, billoshubha,

⁶³Is'hoqxon Ibrat. "Jome' ul - xutut". N., "Matbaai Is'hoqiya", 1912, 4-bet.

injener, arxitektor, texnika va mexanik va fizikiyya ilminda, telefonist, telegrafist bir zoti oliy o'lib, fazoili insoniyyaga molik. Ba'zi ixtirolari ham bordur"⁶⁴.

Xorijiy mamlakatlar bo'ylab sayohatdan qaytib kelishi bilan Is'hoqxon Ibrat "Lug'ati sitta at-sina" ("Olti tilli lug'ati" – arab, fors, sanskrit, turk, o'zbek va rus)ni yaratishga qizg'in kirishib ketdi. Bu asarni 1896-yillar o'rtalarida yozib tugatdi va nashr etish uchun Toshkent shahriga jo'natdi. Chorizm senzurasini butun qattiqqo'lligi va hokimiyatdagi amaldorlarning butun to'ralarcha sansolarligini yengib o'tib, oradan olti yil o'tib, nihoyat, 1901 yil 23 sentyabrda lug'atni V.M.Ilin bosma va toshbosma matbaasida nashr etishga ruxsatnoma berilgan edi. Mahalliy Turkiston senzura qo'mitasi bo'lmaganligi barcha masalalar bo'yicha Peterburgga murojaat qilish zaruratini tug'dirar edi. Bosh senzura qo'mitasi esa milliy tillarda yangi kitoblar chop etish, yangi bosmaxona hamda litografiyalar tashkil qilishni rosa murakkablashtirar va muddatlarini cho'zib yuborar, milliy bosma kitob noshirchiligini kamsitish uchun ko'plab yolg'on faktlar qoldirgan edi. 1901 yilda chop etilgan bu asar keyinchalik o'zbekcha-ruscha va ko'p tillik lug'atlar yaratilishda muhim manba bo'lib xizml qiladi. Ibrat keyingi "Jome' ul-xutut" asarida (1912y) dunyodagi qirqdan ortiq tillar va yozuvlar haqida ma'lumot beradi. Ibratning teran fikrli moziyshunos salohiyatini namoyon etadigan asari, bu - "Tarixi Farg'ona"(1916)dir. Unda Qo'qon xonligi va umuman, Turkistondagi xonliklar inqirozi, mustamlakachilik zulmi, eng muhimi, xalqning yorqin kelajagiga ishonch ruhi o'z ifodasini topgan. Shuningdek, 1928 yilda yana bir muhim asari - "Mezon ul-zamon" yaratiladi.

Ma'rifat tarqatishga, xalqning madaniy saviyasi va savodxonligini ko'tarishga intilgan Is'hoqxon Ibrat o'z asarlarini chop etish yo'li bilan bu olijanob ishga o'z hissasini qo'shishni astoydil xohlar edi. Bosma kitob noshirchiligi madaniy-tarixiy ahamiyatini teran anglash va o'z lug'atini nashr etish bilan bog'liq bo'lgan ko'p

⁶⁴Turkiston viloyatining gazetasi. 1908, № 56.

yillik sarson-sargardonlik Is'hoqxon Ibratda shaxsiy bosma kitob noshirligini tashkillashtirish fikrini qat'iylashtirdi.

Is'hoqxon Ibratning xususiy toshbosma matbaasida nashr etilgan "Ilmi Ibrat" to'plamiga kiritilgan "Tarixi chopxona" she'rida u shunday yozadi:

Ming uch yuzu yigirma oltida chopmaxona⁶⁵,
Ochmoqqa bo'ldi ruxsat va so'z berib zamona,
Maqsad bu ishdan erdi olamga ilm kasri,
Ham qo'ymoqda asarlar yodovari jahona.

Is'hoqxon Ibrat sarmoyasini ko'paytirish payida bo'lgan tipografiyalar va litografiyalar sohiblari bo'lmish rus savdogarlari va mahalliy boylardan farq qilib, kitoblar nashr etishdan mutlaqo o'zgacha ma'rifatparvarlik maqsadlarini ko'zlar edi⁶⁶.

Litografiya uchun asbob-uskunalarini Is'hoqxon Ibrat 1907- yilda Orenburg shahridan olib keldi. Bu asbob-uskunalar mahalliy savdogar Gaufmandan to'lovini 11 yilda amalga oshirish sharti bilan sotib olingan edi. Qo'qon shahrigacha asbob-uskunalar poezdda olib kelingan bo'lsa, Qo'qon shahridan To'raqo'rg'on qishlog'igacha tuyalarda tashilgan edi. Orenburg shahridan Is'hoqxon Ibrat bir komplekt toshbosma va bir komplekt tipografiya jihozlari olib kelgan. Ruxsatnoma olinganidan so'ng u tipolitografiyani o'z uyida o'rnatdi. U sohibining nomi bilan "Matbaayi Is'hoqiya" (Is'hoqxon bosmaxonasi) deb atalgan edi. "Yaqin – yaqingacha, ya'ni 1960- yilgacha faoliyat ko'rsatib kelgan bu bosmaxonada o'tgan davr mobaynida qator ilmiy-ma'rifiy kitob va risolalar, milliy gazetalar nashr etilgani, ularni tarqatish uchun vodiyning shahar-qishloqlarida o'nlab kitob do'konlari tashkil etilgani sizlarga yaxshi ma'lum, albatta. Bu ulug' ma'rifatparvar inson ko'plab ilmiy, pedagogik hamda badiiy asarlar yaratgan, o'z qishlog'ida yangi maktab va kutubxona ochgan, aholi uchun zamonaviy bog' barpo qilgan,

⁶⁵ Ayrim lahja va shevalarda "bosmaxona" hozir ham shunday ataladi. Keng tarqalmagan, adabiy tilga kirmagan, XX asr boshlaridagi jadidlar istilohi.

⁶⁶ Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. T, "Tafakkur bo'stoni", 2011, 407-bet.

hozirgacha g'oyat noyob hisoblanadigan olti tilli lug'at yaratib, o'z bosmaxonasida chop ettirgan"⁶⁷. Dastlabki kezlarda bu yerda uch kishi ishlagan edi. Shulardan biri o'rta Povoljedagi Kuznetskiy okrugi Noviy Mostok qishlog'i farzandi, 1902 yilda Namangan shahriga kelgan Husain Zayniddinovich Makayev (1875— 1943) edi. Is'hoqxon Ibrat taklifiga ko'ra Husain Makayev uning yangi usuldagi jadid maktabida muallim bo'lib ishlayotgan edi. 1908 yildan boshlab u toshbosma korxonasida sahifalovchi, keyinchalik esa harf teruvchi bo'lib ishladi. Tipolitografiyaning ikkinchi xodimi Oxundzoda Abdurauf Mashhadiy edi. Bu kishi kitoblar noshiri bo'lib, u o'zi haqida ayrim ma'lumotlar qoldirgan. Jumladan, Is'hoqxon Ibratning "Ilmi Ibrat" to'plamida (1908) "Bayoni manzuriya" degan e'loni berilgan bo'lib, unda shunday ma'lumotlar keltiriladi: "Nashrga tayyorlovchi va noshir "Matbaayi Ishoqiya" mudiri - muhtaram Oxundzoda Abdurauf Mashhadiy". Bundan tipolitografiya faoliyatining ilk kezlarda Is'hoqxon rahbarlikni Oxundzoda bilan baham ko'rgan edi,- deya xulosa chiqarish mumkin. Tipolitografiyaning uchinchi xodimi esa to'raqo'rg'onlik tarjimon Jaloliy bo'lgan.

Dastlabki kezlarda litografiya e'lonlar, taklifnomalar, yozuv- chizuv jihozlari ishlab chiqargan, mayda buyurtmalarni bajargan edi. To'raqo'rg'ondek bir qishloqda tipolitografiya o'z sohibini qarzdorlikdan xalos eta olmas, shuning uchun ham Is'hoqxon Ibrat 1910 yilda uni Namangan shahriga ko'chirishga qaror qildi. 1910 yil 25 yanvarda Is'hoqxon Ibrat viloyat boshqarmasi nomiga o'tinchnoma yozgan, unda Namangan shahri To'raqo'rg'on mahallasida istiqomat qilguvchi Boydadaboy Matmusaboyev uyiga litografiyani ko'chirib joylashtirishga ruxsatnoma berishni iltimos qilgan edi⁶⁸. Ana shu o'tinchnomada uning korxonasida bitta tipografiya, bitta litografiya dastgohi, 90 pud shrift borligi haqida so'z yuritiladi. Sardoba mahallasi ahlidan bo'lmish 1911 yilda Is'hoqxon Ibrat toshbosma matbaasida ishlagan Abdusattor Abduxalilov o'z o'g'li Abdufattohga

⁶⁷Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., "O'zbekiston". 2017, 74-bet.

⁶⁸O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi, 19-f., 1-r., 2883-s., 17-v.

hikoya qilishicha, tipografiyada yana qo'lda harakatga keltiriluvchi "Amerikanka" dastgohi ham bo'lgan. A.Abduxalilov ana shu mashinada 1913 yilga qadar sahifalovch, keyin esa harf teruvchi bo'lib ishlagan. Namangan shahrida Is'hoqxon Ibrat bosma va toshbosma matbaasi yana uch yil ishladi. Biroq tez orada butunlay kasodga uchragan Is'hoqxon Ibrat 1915 yilda Namangan shahri ahlidan bo'lmish Nurullaboy Abdusattorovga sotib yuborishga majbur bo'ldi. Tipolitografiya egasi endilikda Nurullaboy Abdusattorov bo'lib qolganiga qaramasdan, Is'hoqxon Ibrat uning ishida faol ishtirok etaverdi. Kitoblar bu yerda xuddi avvalgidek "Matbaayi Is'hoqiya" markasi ostida chiqaverdi. Is'hoqxon toshbosma matbaasida asosan ilmiy, ilg'or ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng tarqatgan kitoblar, risolalar, to'plamlar, alohida ishlar nashri amalga oshirilar edi. Binobarin, agar Turkistonning boshqa litografiyalarida asosan o'tgan zamonlar mualliflari asarlari nashr etilgan bo'lsa, bu toshbosma korxonasida esa ko'p hollarda Is'hoqxon Ibratning o'zi va uning zamondoshlari asarlari bosmadan chiqarilganini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

1908 yilda Is'hoqxon Ibrat tomonidan yaratilgan, Mirrajab Bandiy tarafidan ko'chirilgan "San'ati Ibrat qalami Mirrajab Bandiy Mufradot" (Mirrajab Bandiy qo'li bilan ko'chirilgan Ibrat husnixat san'ati haqida Mufradot kitobi) risolasi chop etildi. 26 sahifadan iborat bo'lgan risola xattotlik san'atiga qiziquvchilar va unga o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan. Risolada xattotlik san'ati namunalari berilgan. Kitob noshiri Oxundzoda Abdurauf Mashhadiy bo'lgan. Kitob oxirida so'ngso'z berilgan, unda xaridorlarga murojaatnomada uning ahamiyati to'g'risida so'z yuritilgan. So'ngso'zda jumladan, "Eski usul maktab va madrasalarida ilm olish bilan mashg'ul bo'lganlar, kitoblar adadini ko'paytirish bilan qiziquvchilar uchun biz o'zimizning ilk sovg'amizni tortiq etayapmiz",- deyilgan⁶⁹. 1909 yilda litografiya "Ilmi Ibrat" risolasini nashr etdi, unda Is'hoqxon Ibratning yetti she'ri ham e'lon qilingan edi. Bu she'rlar ma'rifatparvarlik mazmunida bo'lib, arab, fors va o'zbek tillarida yozilgan.

⁶⁹Is'hoqxon Ibrat. "San'ati Ibrat qalami Mirrajab Bandiy Mufradot".N., "Matbaai Is'hoqiya". 1908, So'ngso'z.

1910 yilda litografiya Husayn Makayevning 72 betdan iborat bo'lgan “Ilmi hol” darsligini bosmadan chiqardi. Muallif va noshir Makayevning o'zi bo'ldi. Darslik yangi usuldagi jadid maktablari uchun mo'ljallangandi. Unda bolalarini ta'lim va tarbiya berish uchun ko'pgina tavsiya va maslahatlar berilgan. Kitob so'ngida “Matbaayi Is'hoqiya”da chop etilgan, sotib olish mumkin bo'lgan kitoblar ro'yhati keltirilgan, ulardan ayrimlariga qisqacha annotatsiyalar ham berilgan.

1912 yilda Is'hoqxon Ibratning “Jome' ul-xutut”, “Yozuv umumiy tarixi” (Yozuvlar majmuasi) ilmiy risolasi, jahon xalqlari turli yozuv tizimlarining kelib chiqishi, rivojlanishi va hozirgi ahvoli to'g'risida hikoya qiluvchi kitobi bosmadan chiqarildi. Bu kitobning noshiri Husayn Makayev bo'ldi. Kitobda jahonning qirqdan ziyod qadimiy va zamonaviy alifbelari: finikiya, oromiy, yunon, sanskrit, pahlaviy, yahudiycha kvadrat yozuv, suryoniy, lotin va uning hosilasi bo'lgan hozirgi zamon alifbelari, arman, gruzin, uyg'ur, slavyan va turli xalqlarning hosilalari bo'lmish zamonaviy alifbesi va boshqalar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Is'hoqxon Ibrat zamonaviy fanlar, jahon madaniy merosini egallashda lotin, ingliz, nemis, fransuz va rus tillarining roli va ahamiyatini alohida ta'kidlab ko'rsatadi.

O'z tadqiqolari muqaddimasida Is'hoqxon Ibrat shunday yozadi:

“Bul xatlarni boqiy va tarix qarori muddao bo'lib, ham millatimizga yagona bir tarix qoldirmoq niyat etib, mujibi:

Asardurki, olamg'a o'lg'ay nishon,

Kishi beasardur ketar benishon.

...Millatga nishona qoldirib hum millatimiz lisoni turkiy uchun umumiy turkiy ilan sartiyya xalqini naf olmoqqa muddao bo'lib, adabiy milliyona qilmay, ravshan turkiy qildim... Jami xatlarga jomi' uchun “Jome' ul-xutut” tasmiya etib, o'z xatimiz va o'z tilimiz va o'z matbaamizda tab' qilmoq maqsad bo'lib, ta'bi sharif, aqli raso va qalbi latif, ahli zakolarga peshkash qildim”⁷⁰.

⁷⁰ Is'hoqxon Ibrat. “Jome' ul-xutut”. N., “Matbaai Is'hoqiya”, 1912, 6-7-betlar.

Yozuvning ko'plab rang-barang tizimlari yozilishini aks ettirish talab etilgan "Jome' ul-xutut" risolasi bosmadan chiqarilishi noshirlar tomonidan muvaffaqiyat bilan bartaraf etilgan bir qator texnikaviy ko'rinishdagi qiyinchiliklar bilan birga kechgan edi. Bu kitob ham o'zining mundarijasi, ham texnikaviy ijrosi bilan o'sha olis zamonada o'zbek kitobat ishi tarixida noyob bir hodisaga aylandi. Darvoqe, haligacha o'zbek tilida bunday nashrga ega emasligimizni inobatga olsak, u o'z noyobligini hozirgi kunda ham saqlab qolmoqda.

1909 yilda Namangan shahri ahlidan bo'lmish Hoji Usmonbek zargarning "Ajoyib af'ol ul-fuzalo va ulamo" (Fozillar va olimlarning ajoyib fazilatlarini) asari nashr etildi. 72 sahifadan iborat risola chin ma'noda ilmiy-ommabop bir asar edi. Kitob 13 qismdan iborat bo'lib, Turkistondagi yangidan-yangi hodisalar va narsalar haqida so'z yuritiladi, bular: tikuv mashinasi, fotografiya, inkubatorlar. Bundan tashqari, unda xalq amaliy san'atining zargarlik ishi, kitobat ishi, sangtaroshlik, misgar va xattotlik hunarlari haqida ham hikoya qilinadi. Kitob so'ngida "Hikoyat" deb nomlangan so'ngso'z bo'lib, unda muallif o'zi haqida ma'lumotlar beradi. Olim ham, noshir ham emasligi, oltinga sayqal beruvchi zargar ekanligi haqida so'z yuritadi. Bundan tashqari 60 yillik umri davomida ko'pgina mamlakatlarga borgan, o'z sayohati chog'ida ko'z bilan ko'rganlari haqida hikoya qilib beradi.

1917 yilda Qoraxoniylar davlati asoschisi Sotuq Bug'raxonga bag'ishlangan "Tazkirayi Uvaysiy" asari chop etildi. Kitob namanganlik Mulla Qodirxon va Mulla Egamberdi sarmoyasiga nashr etilgan edi. Kitob xattoti esa Saidjalol Vosifiy bo'lgan. "Matbaayi Is'hoqiya" bosmaxonasining so'nggi nashrlaridan biri Muhiddin Ibrohim tomonidan tuzilgan "Loshmon" she'rlar to'plami bo'ldi (1917). 1916 yilda Birinchi jahon urushi janglari qizigan kezlarda, chor hukumati Rossiyadagi frontorti ishlariga Turkiston tub aholisi orasidan yoshlarni safarbar qilgan edi. Biroq, badavlat odamlarining farzandlari pora evaziga qoldirilgan, qashshoq kishilar bolalari esa majburiy safarbar qilingan ediki, bu narsa mehnatkashlar noroziligi va qo'zg'oloniga sababchi bo'ldi. To'plamga kiritilgan

asarlar o'sha kezlarda dolzarb bo'lgan ana shu mavzuga bag'ishlangan edi. To'plam noshirlari Mashrabiyy va Muhiddin Ibrohimiy bo'lishgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 2-noyabr kuni Namangan viloyati saylovchilari bilan uchrashuvda Is'hoqxon Ibrat haqida alohida to'xtalib, u kishiga atab zamonaviy bog' yaratish, yodgorlik majmuasi va "Ibrat maktabi"ni tashkil qilish tashabbusini bayon etgan edilar. Rahbarimiz taklifi jamoatchilik tomonidan keng qo'llab-quvvatlanib, To'raqo'rg'onda Is'hoqxon Ibratga bag'ishlangan so'lim bog', yodgorlik majmuasi va "Ibrat maktab"i tashkil etildi.

Ulug' ajdodimiz Ibrat taxallusini o'ziga bejiz tanlamagan, degan edilar Prezidentimiz. "Uning Vatan va yurt taraqqiyoti yo'lidagi fidokorona hayoti nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham barchamiz uchun haqiqiy ibrat namunasi bo'lib qolmoqda"⁷¹.

Davlatimiz rahbari mazkur kompleksni mazmun jihatidan takomillashtirish, til o'rgatish bo'yicha maxsus maktabni Namangan davlat universiteti qoshida tashkil etish, bu yerda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti hamda O'zbekistonon davlat jahon tillari universiteti, O'zbekiston davlat sharqshunoslik instituti bilan hamkorlikda horijiy tillarni ixtisoslashtirilgan tarzda o'rgatish kerakligini ta'kidlagandilar. Bilim dargohini a'lo baholar bilan tamomlagan o'quvchilar yurtimizdagi oliy o'quv yurtlariga imtiyozli tarzda qabul qilinadi. Hozirda maktabda umumta'lim fanlari va ingliz, nemis, fransuz, rus, arab, xitoy, koreys tillari filologiyasi chuqurlashtirilgan holda o'qitilmoqda.

"Gap yoshlar tarbiyasi haqida borar ekan, bu borada shoshmaslik, yoshlar va ota-onalarning talab - istaklaridan kelib chiqib, har tomonlama puxta o'ylab ish tutish kerak,"- deb ta'kidlab o'tgan edilar Prezidentimiz⁷².

⁷¹Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., "O'zbekiston". 2017, 75-bet.

⁷²Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., "O'zbekiston". 2017, 76-bet

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi "Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida atoqli ma'rifatparvar Is'hoqxon Ibrat nomidagi yodgorlik majmuasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori asosida keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Bugun davlatimiz rahbari tashabbusi bilan To'raqo'rg'on tumani markazida Is'hoqxon Ibrat xotirasini abadiylashtirish maqsadida barpo etilgan memorial majmua ko'lami, mazmun-mohiyati va ma'naviy-ma'rifiy, amaliy ahamiyati jihatidan yurtimizda buyuk insonlarga ehtirom ramzi sifatida qad rostladi. Xotira majmuasi Kosonsoy soyining chap sohilida 2 gektardan ziyod maydonni egallaydi. Umumiy loyiha qiymati 13 milliard 500 million so'm bo'lgan majmua bog'-xiyobon Is'hoqxon Ibratning haykali, milliy me'morlik uslubidagi ayvon, chet tillarga ixtisoslashtirilgan 400 o'rinli maktab-internat, hududdagi G'oyibnazar qozi madrasasi me'moriy yodgorligi asosida xalq amaliy san'ati va badiiy hunarmandlik markazi, Ibrat nomidagi zamonaviy bosmaxona, 140 o'rinli maktabgacha ta'lim muassasasi va boshqa badiiy kompozitsiyali elementlarni o'z ichiga oladi.

Bog' odamlarning mazmunli hordiq chiqarishiga qulaylik yaratish bilan ma'naviy olamini ham boyitadi. Bu yerda ma'rifatparvar bobomizning haykali o'rnatildi. Muzey Is'hoqxon Ibratning hayoti, serqirra faoliyati bilan tanishtiradi. "Ibrat maktabi"da yoshlar xorijiy tillarni o'rganmoqdalar. Bularning barchasi yaxlit kompleks sifatida allomaning xalqimiz uchun qilgan buyuk xizmatlarini qadrlash, merosini o'qib-o'rganish va targ'ib qilishda muhim o'rin tutadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ulug' ma'rifatparvar Is'hoqxon Ibrat nomi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va alohida e'tibori tufayli butun mamlakatimizga tanildi. Bungacha Ibrat haqida, uning ijodi va faoliyati haqida tor doira, ya'ni mutaxassis olimlarga bilar, ayrim kichik ilmiy tadqiqotlar qilingan bo'lsa-da, xalqimiz madaniy taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, ulkan xizmatlaridan keng omma bexabar edi. Is'hoqxon Ibrat dunyo kezib, Sharq va G'arb ilm- fani, madaniyati va san'ati bilan yaqindan tanishgan, yurtimizga ilg'or madaniyat va

texnika yangiliklarini olib kirishga harakat qilgan, bu boradagi amaliy ishlari bilan mazkur sohalar rivojiga katta hissa qo'shgan. Ma'rifatparvar allomaning she'riyat, xattotlik, naqqoshlik, bog'dorchilik, bunyodkorlik va boshqa ko'plab yo'nalishlarda ham o'z davrining yetuk ustasi bo'lgani ma'lum. Shu bois biz yoshlar oldida ko'p qirrali Is'hoqxon Ibrat merosini har tomonlama chuqur tadqiq qilish, allomaning buyuk xizmatlarini puxta o'rganishdek buyuk vazifa turibdi.

2.2-§. Vodiy matbaachiligi ravnaqida madaniyat va ma'rifat markazi bo'lgan Qo'qon matbaachiligi maktabining tutgan o'rni

Farg'ona vodiysi matbaachiligida madaniyat va ma'rifat markazi bo'lgan Qo'qon matbaachiligi maktabining o'rni beqiyos. Ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan Qo'qon haligacha tarixchi tadqiqotchilar tomonidan e'tibor markazida bo'lib kelmoqda.

O'zbek milliy kitoblari repertuarini boyitishda Qo'qon shahrida 1910-1918 yillarda faoliyat ko'rsatgan G.Shumakov toshbosma matbaasi ozining muayyan hissasini qo'shdi. Ushbu litografiya faoliyatining o'ziga xos jihati uning istisno tariqasida mahalliy millatlar tillarida kitoblar bosib chiqarishga yo'naltirilganligidir.

O'z faoliyatini G.Shumakov toshbosma matbaasi sifatida 1910 yilda boshlagan korxona oradan 4 yil o'tganidan keyin "Tovarichstvo G.Shumakova, M.Chekanina i Ko" markasi ostida kitoblar nashr eta boshladi, ya'ni sherikchilikka asoslangan aktsiyadorlik jamiyatiga aylandi.

G.Shumakov toshbosma matbaasida nashr etilgan xronologik jihatdan eng birinchi kitoblardan biri Ahmad Rumiyning 496 sahifalik "Daqoyiq ul-haqoyiq" asaridir (1912). Undan keyin o'zbek ma'rifatparvari Mirzo Xayrulla Xo'qandiy tomonidan tuzilgan "Tuhfat ul-atfol" (Bolalarga sovg'a) xrestomatiya tipidagi o'qish uchun kitobi keladi. Kitobga yozilgan so'zboshidan kitob maktab yoshidagi bolalarga mo'ljallangani, xrestomatiya asosan bolalar yosh darajasi va psixologiyasining o'ziga xosligini e'tiborga olgan holda o'zbek tiliga boshqa tillardan tarjima qilingan matnlardan tuzilgani oydinlashadi. Kitobga Furqat, Muqimiy, Xo'qandiyning o'zi va boshqa qo'qonlik shoirlarning didaktik mazmundagi baytlari kiritilgan. Kitob oxirida nashriyotning so'ngso'zi berilgan, undan kitob 1913 yilda tuzilgani, ko'chirilgani va nashr etilgani ma'lum bo'ladi. Mirzo Xayrulla Xo'qandiy tashabbusi bilan asos solingan "Ma'rifat" Kitob Uyi bu kitobning noshiri bo'lgan.

1913 yilda Qo'qon tevaragidagi Yayfan qishlog'idan bo'lmish iste'dodli shoir, dorugar tabib, faylasuf va ma'rifatparvar Mahmud Hakim Hojimuhammad o'g'li Yayfaniyning Qo'qon xonligi tarixi haqida hikoya qiluvchi "Xulosat ut-tavorix" (Tarix xulosalari) asari nashr etilgan edi. Kitob xattoti mulla Shohnazar hojidir. Kitob muallif shaxsiy mablag'i hisobidan nashr etilgandi. Asarda so'zboshi bo'lib, unda kitob Qo'qon xonlari, Arab xalifalari, Turk sultonlari va Eron shahanshohlari tarixi haqida hikoya qilib berishi haqida so'z yuritiladi. Xuddi o'sha yili Mahmud Hakim Yayfaniyning tabobatga oid "Tariq ul-iloj" (Davolash yo'llari) tadqiqoti nashr etilgan edi. Kitob muallifning shaxsiy mablag'i hisobiga va uning tashabbusiga ko'ra nashr etilgandi. So'zboshida keltirishicha, kitob 4 qismdan tarkib topgan. Ammo kitobda 4 qismdan faqat uchinchi va to'rtinchi qismlari e'lon qilingan edi. Muallif o'sha kezlarda aholi orasida keng tanilgan tabiblar va azayimxonlarni qattiq tanqid ostiga oldi.

Kitobning uchinchi qismi o'n to'rt bobdan iborat bo'lib, ularda o'pka xastaliklari, shamollash kasalliklari tavsiflanadi, to'rtinchi qism esa olti bobdan tarkib topgan, ularda teri kasalliklari va ularni davolash usullari haqida hikoya qilinadi. Kitobda Sharqda keng tarqalgan eng yangi dorilar haqida materiallar berilgan, shuningdek, Rossiya va Yevropa retseptlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

G.Shumakov toshbosma matbaasida 1913 yilda "Bayoz hajviyoti mavlono Muqimiy va Furqat" (Mavlono Muqimiy va Furqat hajviyoti bayozi) to'plami chop etildi. Kitob 132 sahifadan iborat bo'lib, Abdulqodir qori Xo'qandiy tomonidan ko'chirilgan, Mahmud Hakim Yayfaniy mablag'i hisobiga bosmadan chiqarilgan. Garchand titul varag'ida kitobga faqat Muqimiy va Furqat she'rlari kiritilgani ko'rsatib o'tilgan bo'lsa-da, Muhyi va Tajalliy ijodiy merosi namunalari, Zavqiyning "Dukchi eshon" she'ri, Muhammad Noqisning xalq orasida mashhur bo'lib ketgan "Hajringda zor o'ldim-u, g'amg'in, dimog'man" misrasi bilan boshlanuvchi lirik she'ri ham chop etilgan edi.

1914 yilda G.Shumakov toshbosma matbaasida qo'qonlik o'qituvchi Mulla Salohiddin binni Sirojiddin al-Majidiyning “Muallimi kusur” (Kasrlar muallimi) asari nashr etildi. Kitob noshiri mulla Is'hoqxon binni muallim Pirmuhammad bo'lgan. Ushbu o'quv qo'llanmasi “Rashidiya” maktabi uchun mo'ljallangan bo'lib, unda 30 ga yaqin savollar va ularga javoblar keltirilgan.

1917 yilda G.Shumakov toshbosma matbaasida o'qituvchi Shokir al-Muxtoriyning “Kim qozi bo'lsin?” deb nomlangan kitobi chop etildi. Uning xattoti Mirzo Xo'qandiy, noshiri esa “Birlik” Kitob Uyi edi. 24 sahifadan tashkil topgan bu kitob feodal tuzumning barcha illatlariga oshno bo'lgan amaldorlar va qozilar vakillarini fosh etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Muallif qashshoq odamlar chekiga tushgan jabr va zulmni, qozilar poraxo'rliги va shafqatsizligini yaqqol ko'rsatib bergan. U odamlarni ma'lumotli, ma'rifatli, halol va insonparvar ko'rishdek orzusi haqida hikoya qiladi. Bu kitob Rossiyadagi 1917 yilgi fevral inqilobidan keyinroq yaratilgan, quyidagi so'zlar shundan dalolat beradi: “Erkinlik e'lon qilindi va zolimlar va yaramaslar istibdodidan ozod bo'lishga yo'llar ochildi”. Muallif bundan keyin qozilarni faqat xalq o'zi saylashi kerakligi haqida so'z yuritadi. Kitobning 22-sahifasida xattot Xo'jandiyning “Kichkina tanqid” deb sarlavha qo'yilgan taqrizi e'lon qilingan, unda bu kitobning maqsad va vazifalari to'g'risida so'z boradi. Ma'lumki, inqilobdan oldingi ijodida Hamza Hakimzoda Niyoziy xalq qo'shiq va musiqasiga tez-tez murojaat qilgan edi. Hamza ommaviy xalq qo'shiqlarini to'pladi, ularni tartibga soldi, o'zi ham xalqchil ruhda matnlar yaratdi. 1913- 1917 yillarda “Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi” degan umumiy sarlavha ostida o'z lirik she'rlaridan bir qator to'plamlarni nashr ettirdi. Bu turkumga Hamzaning Qo'qonni turli litografiyalarida chop etilgan “Oq gul”, “Qizil gul”, “Yashil gul”, “Sariq gul”, “Pushti gul” va “Safsar gul” to'plamlari kirgan edi. Biroq ana shu to'plamlarning titul varaqlarida u yoki bu to'plamlar aynan qaysi litografiyada chop etilgani to'g'risida ma'lumot ko'rsatib o'tilmagan.

Faqat “Pushti gul” to’plami bundan mustasno bo’lib, unda Vayner toshbosma matbaasida chop etilgani ko’rsatib o’tilgan. Respublikada xizmat ko’rsatgan o’qituvchi, adabiyotshunos Hamza Hakimzoda Niyozini yaqindan bilgan Po’latxon Qayyumiyning 1957 yil 22 dekabrda To’xtasin Jalolovga maktubi Hamza to’plamlari aynan qayerda chop etilgani masalasiga oydinlik kiritadi. Jumladan, Po’lotxon Qayyumiy shunday yozadi: “Davronning kichik do’konchasi bo’lib, unda Hamzaning Shumakov litografiyasida 1914-1917 yillarda bosmadan chiqarilgan “Sariq gul” va “Safsar gul” to’plamlari sotilar edi”⁷³. Shunday qilib, Hamza Hakimzoda Niyozining “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi”ga kirgan hamma to’plamlari Qo’qondagi G.Shumakov va I.Vayner litografiyalarida chop etilgan edi,- deya xulosa yasash mumkin⁷⁴.

Qo’qonlik badavlat homiylar Mulla Iskandar Barotboy o’g’li va Sayid Nosir Mirjalol o’g’li aytib o’tilgan to’plamlar noshiri sifatida ish ko’rgan bo’lsa, Mirza Xayrulla Ho’qandiy uning xattoti bo’lgan edi.

1912 yilda G.Shumakov toshbosma matbaasida rus-tuzem maktabi o’qituvchisi Sarkaboy Okayev va Ashurali Muhammad Zohir o’g’li tomonidan tuzilgan “Xrestomatiya” nashr etildi. Xrestomatiyaga 77 didaktik hikoyalar va maqollar kiritilgan, ulardan teng yarmi tarjima qilingan asarlar edi. I.A.Krilov, A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy asarlari tarjimasi alohida diqqatga sazovor. Bu kitob va uning tuzuvchilar to’g’risida “Sho’ro” (Kengash) jurnalida maqola e’lon qilingan, bu kitob Qozonda ham nashr etilgani haqida ma’lumot berilgan.

I.N.Venchikovning “Azbuka - xrestomatiya s uprajneniyami” (“Alifbe - mashqli xrestomatiya”) o’quv qo’llanmasi rus maktablarida o’zbek tilini o’rganish uchun mo’ljallangan edi. Bu kitob G.Shumakov toshbosma matbaasida I.N.Venchikov mablag’i evaziga 1917 yilda chop etildi. Avvalboshda “Sart tilini amaliy o’rganish uchun ilk dasturilamal” deb nomlangan bu kitob Abdulqodir qori

⁷³Jalolov T. O’zbek shoirlari. 2-nashr. T., “Adabiyot va san’at”, 1980, 27-bet.

⁷⁴Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. T., “Tafakkur bo’stoni”, 2011, 414-bet.

Bahodirali o'g'i Ho'qandiy tomonidan qayta ko'chirilgan. Kitobda muallif so'zboshisi mavjud. So'zboshidan keyin rus tilida tuzilgan gaplar keltirilgan. Arab raqamlari, barcha arab harflari uchun misollar, shuningdek, masallar va hikoyalar ham keltirilgan.

1914 yilda Qo'qon shahri Boybo'ta mahallasida yahudiy savdogari I.Vayner toshbosma matbaasi ochildi. Husayn Shams "Matbaachilik va uning qisqacha tarixi" broshyurasida yozishicha, "Keyinchalik I.Vayner harf teruv bosmaxonasi ochdi. Bu yerda tipografiya bo'limi bo'lib, unda Ortiqboy va Nazirjon degan mahalliy ishchilar mehnat qilar edi"⁷⁵. I.Vayner bosma va toshbosma matbaasi 1915 yildan e'tiboran "Parovaya Tipografiya" (Bug'da ishlaydigan bosmaxona) sifatida ishlay boshladi. Ana shu tipolitografiyada Qo'qon ziyolilari va muallimlari tomonidan adabiy va ilmiy kitoblar nashr etilgan edi. Ular qatorida Hamza Hakimzoda Niyoziy muharrirlik qilgan "Kengash" va "Hurriyat" jurnallari, boshqa gazeta va jurnallar ham chop etilgan.

Ibrohim Davron tomonidan to'plangan, qo'lda qayta ko'chirilgan va nashr etilgan "Madaniy jumboqlar" to'plami ancha diqqatga sazovor. To'plamda ikki yuzta savol-jumboq va ularning javoblari keltirilgan. So'zboshida muallif jumboqlar bolalarning chanqoq zehni shakllantirishda juda muhim ahamiyat kasb etishi haqida fikr yuritadi. Jumboqlarga muallifi Ibrohim Davronning o'zi bo'lgan beshta realistik rasmlar ilova etilgan. Kitobda nashriyot reklamasi ham keltirilgan - Ibrohim Davronning 15 ta e'lon qilingan va bosmadan chiqarilishi kutilayotgan asarlari haqida e'lon chop etilgan.

1914 yilda I.Vayner bosma va toshbosma matbaasida Ibrohim Davron tomonidan tuzilgan "Ash'ori nisvon" (Xotin-qizlar she'rlari) to'plami e'lon qilingan edi. To'plam noshiri "Madora" Kitob Uyi, xattoti esa Ibrohim Davronning o'zi bo'lgan. Bu milliy kitob nashirligi tarixida shoirlar asarlari to'plami ilk bor chop etilishidek muhim bir voqea bo'ldi. To'plam 60 sahifadan iborat bo'lib, yigirma uch shoira she'rlari kiritilgan. So'zboshi sifatida "Bir so'z" va "Xotinlar

⁷⁵ Shams H. Matbaachilik ham uning qisqacha tarixi. Toshkent-Samarqand, O'zdamnashr, 1936, 26-bet.

haqinda bir nutq” deb nomlangan ikki maqola keltirilgan. Ularda ona maqomidagi ayol ulug’lanadi, insoniyat jamiyati tarixiy taraqqiyotida ayollarning salmoqli roli haqida so’z yuritiladi. To’plamda Ibrohim Davron o’zi yozgan tagso’z va izohlar bilan birga bir necha realistik rasmlar ham ilova etilgan. “Ash’ori nisvon” to’plami oxirida esa o’zbek toshbosma kitoblari uchun an’anaviy tus olgan e’lon keltirilgan, unda Ibrohim Davron asos solgan “Madora” Kitob Uyi tomonidan nashr etilgan kitoblar ro’yxati taqdim qilingan.

I.Vayner toshbosma matbaasida dorigar tabib Mahmud HakimYayfaniyning geodeziya bo’yicha “G’aniyat ul-masohat” (Mamlakatlar boyligi) degan o’ziga xos original o’quv qo’llanmasi nashr etilgan, uning xattoti esa Abdulqodir qori Ho’qandiy edi. 16 sahifadan iborat risola uch bobga ajratilgan, bu boblarda yer o’lchashning turli-tuman usullari bayon etilgan. Risola sahifalarida ana shu usullarni yaxshiroq tanishtirish maqsadida 35 ta chizma ham berilgan. Risola oxirida so’ngso’z e’lon qilingan bo’lib, muallif unda har bir o’quvchi yer o’lchash malakasini egallashi lozim deb alohida ta’kidlaydi. Xotima o’rnida to’rtlik keltirilgan, unda har bir odam yuksak darajada savodli bo’lishi, faqat shu taqdirdagina bu kishi el-yurt hurmatiga sazvor bo’lishi haqida so’z yuritiladi.

1915 yilda Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yangi saodat” deb nomlangan milliy romani e’lon qilingan, uning noshiri “Madora” Kitob Uyi, xattoti esa Mirza Xayrulla Ho’qandiy edi. Kitobning titul varag’ida bob nomi va ma’rifat foydasi haqida ikki misra she’r keltirilgan. Kitobga yozilgan so’zboshida esa asar tushunarli sodda tilda yozilgani va maktablar uchun mo’ljallanmagani, balki “Jamshid”, “Zarqum”, “Aldar ko’sa”, “Bayozi Dilxon Muxtor” kabi xalq kitoblari bilan keng tanish bo’lgan ma’rifatsiz erkaklar va ayollar uchun yozilgani haqida so’z boradi. Bu kitob yuqorida sanab o’tilgan kitoblar o’rnini egallaydigan degan bir umidda yozilgan edi. So’ngso’zda esa Hamzaning quyidagi so’zlar bilan tugaydigan yigirma misralik bir she’ri keltirilgan:

Ul haqiqat oynasiga sayqal istarsan, Nihon,

Ilm ista, ilm ista, istagil zinhor ilm.

Hamza Hakimzoda Niyoziy tomonidan 1916 yilda yaratilgan va Saidnosir Mirjalol o'g'li tomonidan nashr etilgan "Pushti gul" to'plami ham I.Vayner toshbosma matbaasida bosmadan chiqarilgan. Kitob xattoti Mirza Xayrulla Ho'qandiy bo'lgan. To'plamga Hamzaning yaxshilik, ezgulik, ma'rifat, sof insoniy muhabbatni tarannum etuvchi, qoloqlik, johillik va erksizlikni qoralovchi she'rlari kirgan. Har bir she'r avvalida muallif bu ashullaning musiqasi qanda ekanligi, qaysi xalqqa mansubligi va qachon yaratilgani haqida ma'lumot berib o'tgan.

I.Vayner toshbosma matbaasida 1916 yilda Alisher Navoiyning alohida ilmiy qiziqish uyg'otuvchi "Muhokamat ul-lug'atayn"(Ikki til haqida mulohazalar) kitobi nashr etildi. "G'ayrat" Kitob Uyi bu asar noshiri bo'lgan. Iste'dodli tilshunos va adabiyotshunos Ashurali Zohiriy bu asarni qayta ko'chirgan va nashrga tayyorlagan edi. Kitobda keltirilgan so'zboshi Shamsiddin Somiyning "Qomus ul-a'lom" (Ilmlar entsiklopediyasi) asaridan olingan bo'lib, "Mavlono Shamsiddin Somiy yuqorida sanab o'tganlardan tashqari Alisher Navoiyning boshqa ko'plab asarlari ham mavjuddir. Ana shundan kelib chiqib, xudo xohlasa, biz "Risolai vaqfiya" kitobini ham chop etishni mo'ljallayapmiz", degan jumlar ham shundan dalolat beradi.

1917 yilda I.Vayner toshbosma matbaasida Zahiriddin Muhammad Boburning "Mubayyin" (Bayonnoma) asari "Mubayyin ul-islom" (Islom bayonnomasi) nomi bilan nashr etildi. Bu kitob nashri qo'qonlik taniqli kitobfurushlar va muqovasozlar Mirza Abdul Sami va Mulla Muhammad Alim tashabbusi bilan amalga oshirilgan edi.

Boburning "Mubayyin" asari davlat boshqaruvi, aholini soliqqa tortish, toifalar haqidagi noto'g'ri hujjatlar masalalarini islom aqidalari nuqtai nazaridan sharhlaydi. Bobur bu asarni o'z o'g'li Humoyun Mirzoga bag'ishlagan. Kitob Humoyunga va boshqalarga davlat ishlarini boshqarish bo'yicha dasturulamal sifatida mo'ljallangan. "Mubayyin" dastlab Toshkent shahrida G'ulom Hasan Orifjonov toshbosma matbaasida 1905 yilda litografiya usulida nashr etilgan.

1917 yilda I.Vayner bosma va toshbosma matbaasida Mirza Rahim Mirza Bobozoda tomonidan tuzilgan “Tahsil ul-insho” (Insho tahsili) to’plami bosmadan chiqarildi. Bu kitob noshiri Qo’qondagi “Ma’rifat” Kitob Uyi egasi F.M.Rasulzoda, muqovalovchisi esa Mirza Xayrulla Ho’qandiy bo’lgan. Bu kitob darslik bo’lib, unda ish yuritishga oid xatlardan 24 namuna keltirilgan. Xat yozish va ish qog’ozlarini yuritishga oid turli-tuman qoidalar berilgan. 18-betda esa Zavqiyning “Millatimizdan bir rijomiz” va noma’lum muallifning “Asl islom avlodlariga xitob” deb nomlangan ikkita she’r ilova qilingan.

Xuddi o’sha yili I.Vayner toshbosma matbaasi “Rahbari tadris” (Dars o’tishga oid dasturulamal) darsligini bosmadan chiqardi. Darslik tarjimoni qo’qonlik ma’rifatparvar, muallim Muhammadjon Abduxalil o’g’li, noshiri va xattoti esa Mirza Xayrulla Ho’qandiy bo’lgan. Mirza Xayrulla Ho’qandiy kitob yaratilishi tarixi haqida so’ngso’z yozgan. Bu kitob o’zida ta’lim berish metodikasini mujassamlashtirgan.

I.Vayner toshbosma matbaasida nashr etilgan yana ikki kitob mashhur bo’lgan. Bular: “Madxali fanni nujum” (Astronomiya ilmiga kirish, 1916) va “Jumboq majmuasi” (Jumboqlar to’plami, 1917). Boshqa tipografiyalar va litografiyalar qatorida I.Vayner va G.Shumakov korxonalari ham 1918 yilda natsionalizatsiyaga tortilgan edi.

Bobda ko’rib chiqilayotgan tarixiy davrning turli sanalarida Turkiston o’lkasi shaharlarida, yuqorida aytib o’tilganlardan tashqari, milliy kitoblarni bosmadan chiqargan yigirmadan ziyod litografiya korxonalari mavjud bo’lgan. Ulardan ayrimlari qator yillar davomida ishlagan va o’nlab toshbosma kitoblar nashr etib ulgurgan. Ba’zilar esa to’rt-beshta nashrni bosmadan chiqarish bilan kifoyalangan. Uchinchi bir toifaga mansublari haqida esa shunday litografiya mavjud bo’lganidan tashqari qandaydir ma’lumot ham yo’q. Biroq, bu narsa uchinchi toifaga mansub korxonalar kitoblar chop etmagan yoki ularga noshirlar va buyurtmachi kitobfurushlar murojaat qilmagan deyishga imkon bermaydi. Ana shu nashr etilgan toshbosma kitoblar nusxalari davlat saqlovxonalarida saqlanib

qolmagan, xolos. Ammo ular xonadon kutubxonalarida saqlanayotgani, ancha yillar oldin vafot etgan egalarining ko'hna kitoblari orasida chang bosgancha unutilishga yuzlangani, yangi avlodlarga tegishli bo'lsa-da, ular eski milliy alifbeni bilishmagani tufayli, afsuski, o'qilmasdan qolib ketayotgani ham ehtimoldan yiroq emas.

Istiqlol millatimizning asriy orzusi edi. Mustaqillik uchun jadidlar, ziyoli qatlam, Yurtning asl kishilari jon fido qilganlar. Muxtor, mustaqil, demokratik davlat qurish, xalqqa ziyo, nur berish, yangilik yaratish, ozodlikka chiqarish ularning asl maqsadlari edi. Ularning kurashlari, intilishlari shu edi.

Turkiston xalqlarining ozodlik va mustaqillik uchun kurashining mevasi bo'lgan Turkiston muxtoriyatining tarixi, davlatchilik tajribasini O'zbekiston mustaqillikka erishgachgina butun haqiqati, tarixiy ahamiyati bilan to'laqonli yoritish mumkin bo'ldi.

O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'liga qadam qo'yishi otabobolarmizning ozodlik va erk uchun uzoq kurashi tarixini qayta idrok etishga, milliy ozodlik harakati mavkurasining shakllanish jarayoniga davlat mustaqilligiga erishishni ta'minlagan omillar sifatida katta ijtimoiy qiziqish uyg'otmoqda. Tarixiy haqiqatni qayta tiklash imkoniyati paydo bo'lgan bugungi tub o'zgarishlar sharoitida butun milliy ozodlik harakati jarayoni, shuningdek, ayrim ijtimoiy-siyosiy oqimlarning ahamiyati va o'rni haqidagi eski qarashlarni butunlay qayta ko'rib chiqish ehtiyoji yuzaga keldi.

Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov xalqimiz tarixini xolisona o'rganish zarurligini ta'kidlab shunday degan edi: "Biz tariximizni yoritishda uni davr, muayyan siyosiy guruhlar yoki ayrim shaxslar manfaatiga moslab talqin etishni qoralaymiz. G'oyat murakkab va ziddiyatli tariximizni xolisona va ilmiy o'rganish – tarixchi olimlarimizning ma'suliyatli va oliyjanob vazifasi deb hisoblaymiz".⁷⁶

XX asr boshi Turkiston tarixida erk va ozodlik, huriyat va istiqlol uchun kurashgan vatan va millat fidoiylarining pok nomlari orasida qo'qonlik jadid

⁷⁶Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., O'zbekiston, 1998. 3-6et

Obidjon Abduxoliq o'g'li Mahmudovning ham ismi bor. U mazlum xalqimizni jahondagi ilg'or, taraqqiy topgan millatlar qatorida ko'rishni orzu qilgan va buy o'lda o'z umri davomida tinmay say-harakat qilgan buyuk vatanparvarlarimizdan biri edi. Turkistondagi jadidchilik harakati vakili, yirik sarmoyador, noshir va jamoat arbobi va siyosat arbobi Obidjon Abdulxoliq o'g'li Mahmudov Farg'ona taraqqiyparvarlarining peshqadam vakilidir. U 1871 yili Marg'ilonda tug'ilgan. Taxminan 1898 yilda Cheleken yarim oroli (Kaspiy dengizi)ga borib, turli ishlar bilan mashg'ul bo'ldi. Sherikchilikka olgan yeridan neft chiqib, boyib ketadi.

Sankt-Peterburg universitetining tog'-kon muhandisligi fakultetini tugatgan. U xalqimiz orasidan yetishib chiqqan birinchi tog'-kon muhandisidir. Qo'qonga qaytgach, tog'-kon sanoati bilan shug'ullanib, Farg'ona vodiysida bir necha neft konlarini ochishda ishtirok etgan. Sho'rsuvdagi oltingugurt konini sotib olgan. Farg'ona vodiysidagi jadidchilik harakatida qatnashgan va ularni moddiy jihatdan ta'minlab turgan. Qo'qonda bosmaxona tashkil qilgan (1914). "Sadoi Farg'ona" (1914), "Tirik so'z" (1917) va rus tilida chiqqan "Ferganskoe exo" (1914) gazetalarining muharriri va noshiri. Bu nashrlar nafaqat Turkistonda, balki Rossiya musulmonlari orasida ham mashhur bo'lgan.⁷⁷

Hayot yo'lida ko'p mashaqqat va qiyinchiliklarni ko'rgan, ularni mardonavorlik bilan yenggan Obidjon Mahmudov XX asr boshlariga kelib Farg'ona vodiysining yirik mahalliy sarmoyadorlaridan biriga aylandi. Uning savdo do'konlari, neft va oltingugurt konlari bor edi. Hayotning oq-qorasini yaxshi bilgan Obidjon Mahmudov Turkiston xalqlarining ayanchli ahvolini, mustamlakachilarning beayov zulmi va talonchiligini ko'rib, bu mudhish ahvolga chek qo'yishning yo'llarini izlay boshladi⁷⁸. Izlanishlar uni jadidchilar harakati vakillariga ro'baro qildi. Millatning taraqqiyot va erk – ozodlik yo'li ilm-ma'rifatda ekanini anglab yetdi. O. Mahmudov boy savdogarlarimiz ichidan birinchilardan bo'lib jadidlarga ma'naviy va moddiy jihatdan ko'mak bera

⁷⁷O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T., "Davlat ilmiy nashriyoti", 1999 yil. 369-bet.

⁷⁸Qo'qon asrlar silsilasida. Qo'qon.2004.-277-bet.

boshladi. Jumladan, u mahalladoshi muallim Po'latjon Abdulqayum o'g'liga 1911-yilda jadid maktabi tashkil etib, o'quv dargohi uchun zarur bo'lgan barcha o'quv qurollari va ashyolarini olib berdi, darslar o'tish uchun maxsus bino ajratdi. Qo'qonlik boshqa jadid muallimlari: Abduvahob Ibodiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Ashurali Zohiriy, Muhammadjon Xoliqiy, Mahmudxo'ja Rizoiiy kabilar ham Obidjon Mahmudovning moddiy va ma'naviy yordamida bahramand bo'lganlar.

Farg'ona vodiysida jadidchilik g'oyalarini tarqatishda va mazlum millatning ko'zini ochishda matbuotning ahamiyati katta ekanini anglab yetgan O. Mahmudov 1914-yilning boshlarida Qo'qonda matbaa ochadi va unda turli tillardagi kitob, varaqa va boshqa matbaa mahsulotlarini chiqarishga muvoffaq bo'ladi. 1914-yilning 3-aprelida esa uning noshirligi va muharrirligida Farg'ona vodiysi tarixidagi ilk o'zbekcha gazeta – "Sadoyi Farg'ona" chop etila boshlandi. Mazkur nashrni faqat noshiri va muharrir faoliyatining natijasi deb o'ylash xato bo'ladi. "Sadoyi Farg'ona" eng avvalo, Qo'qon jadidlarining, qolaversa, Farg'ona vodiysi jadidlarining ulug' va mashaqqatli yo'ldagi say'-harakatlarining natijasi sifatida dunyoga keldi. "Sadoyi Farg'ona" tez orada vodiyy jadidlarining minbariga aylandi⁷⁹. Dastlab undagi asosiy ishlarni – maqolalarni taxrir etish, maket tuzish, musaxxihlik kabi ishlarini mashhur jadidlarimizdan Ashurali Zohiriy bajargan. Keyinchalik esa bu ishlarni Nuriy Usmoniy ado etildi. Vodiyydagi jadidchilik harakatning deyarli barcha taniqli namoyondalari – X. X. Niyoziy, Cho'lpon, Ibrat, P. Qayumov, M. Holiqiy, A. Ibodiy, I. Davron, Sh. Muxtoriy, A. Musabek, Mahmudjon qori, Ibrohim Nurmuhammad o'g'li, Dadamirza qori va boshqalar "Sadoyi Farg'ona"ni aholi o'rtasida targ'ib va tashviq etish, unga maqolalar, she'rlar, feletonlar yozish bilan mashg'ul bo'lgan.

Rossiyadagi inqilobiy faoliyat muvaffaqiyatlaridan ruhlangan Turkistondagi liberal-islohotchilik harakati faollari o'z faoliyatini kuchaytirib bu harakatlarga

⁷⁹Tojiboyev R. Obidjon Mahmudov – Turkiston jadidchilik harakatining yirik vakili. Sadoyi Farg'onai //Qo'qon asrlar silsilasida. – Qo'qon 2004. 276-277-betlar.

boshchilik qildilar. Qo'qonda bunday harakatlarga Obidjon Mahmudov, Ashurali Zohiriy, Po'lat Soliyevlar boshchilik qildilar. Ular Rossiya va Sharq mamlakatlari – Eron, Turkiya, Misr, Suriyada yuzaga kelayotgan siyosiy jarayonlarni, siyosiy partiyalarning dasturlari, faoliyatlarini o'rgandilar. 1917 yil fevral burjua-demokratik inqilobidan so'ng Turkiston o'lkasi musulmonlarining siyosiy uyg'onishida Obidjon Mahmudov kabi jadidchilarning roli katta bo'ldi. U tashki letgan “Sadoyi Farg'ona” gazetasi, “Turon”, “Ulug' Turkiston”, “Najot”, “Kengash”, “Hurriyat” gazetalari bilan birgalikda inqilob ma'nosini anglatish, sirlari, sabablari va foydalarini anglatishda katta ro'l o'ynaydi. Obidjon Mahmudov o'z gazetasi sahifalarida jadidlarning dasturiy hujjatlarini xalqqa yetkazishda jonbozlik ko'rsatdi. Jadidlarning “Rossiya Federativ Demokratik Respublikasi tarkibidagina Turkistonni farovon mamlakatga aylantirish mumkin” – degan fikrlarini qo'llab-quvvatlab, Turkistonga hududiy milliy muxtoriyat berishni talab qilib chiqqanlar safida bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov xaqli ravishda ta'kidlaganidek: “Ulkan madaniy merosga ega bo'lgan Turkiston ne-ne jafolarni ko'rmadi, ne-ne tarixlarni boshidan kechirmadi. O'tgan yetmish yil mobaynida ma'naviy qadriyatlarimiz ancha toptaldi, unitildi. Bugungi yangi o'zbek davlatini barpo etar ekanmiz, biz tarixdan, ajdodlar merosidan, ularning ruhi pokidan, Turkiston xalqlarining qadriyatlaridan, ma'naviy merosidan, san'tidan bahramand bo'lishimiz mumkin va tabiiydir”⁸⁰.

Darhaqiqat, chor Rossiyasi tomonidan 1863 yilda va sho'ro hokimiyati tomonidan 1917 yilda qayta zabt etilgan Turkiston mustamlaka sifatida milliy hayotini davom ettirishga, inson haq-huquqlari va erkinlikdan bahramand bo'lishga haqli emas edi. Qariyb bir yarim asrlik mustamlakachilik siyosati tufayli, hur dunyo nuqtayi nazaridan Turkiston asorat o'ti ichida qoldi.

Toshkentda 1910 yillarda “Sadoyi Turkiston”, Qo'qonda “Sadoyi Farg'ona” (1914 yil muharriri Obidjon Mahmudov), Buxoroda “Turon” (1913) kabi gazetalari

⁸⁰Karimov I.A Bizdan ozod va obod vatan qolsin. // Xalq so'zi. 1993. 7 sentyabr

chiqib turdi⁸¹. Barcha matbuot organlari singari o'zbek ijtimoiy-siyosiy va adabiy-badiiy gazeta va jurnallari ham xalq tarixi, uning ma'naviyati, adabiyoti, milliy qadriyatlari tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Zotan har qanday matbuot nashr – hoh jurnal, hoh gazeta bo'lsin zamon tarixini yozishga, bu tarixni yaratishga hissa qo'shadi, xalqimiz tarixining muayyan jihatlarini aniqlab, oydinlashtirishga yordam beradi.

U Qo'qon shahar Dumasi raisi o'rinbosari (1917), Turkiston Muxtoriyati hukumatining oziq-ovqat vaziri (1917—18), Muxtoriyat tugatilgach, Moskvaga borib, RSFSR Millatlar ishlari xalq komissarligi qoshidagi Turkiston vakolatxonasida matbuot bo'limi mudiri va boshqa lavozimlarda ishlagan (1919—21). Toshkentga qaytgandan so'ng, dastlab Turkiston MIQ da ishlagan (1921), so'ng Farg'ona vodiysiga borib, “Milliy ittihad” tashkilotining bo'limini tuzgan va sovetlarga qarshi faoliyat olib borgan.

Shu bilan birga Turkiston Muxtoriyati asoschilaridan biri o'z sarmoyasi bilan “Sadoyi Farg'ona” gazetasiga asos solgan, o'zi ham maqolalar yozib turgan. Obidjon Mahmudovning “Sadoyi Farg'ona” gazetasi haqida tadqiqod olib boramiz. “Sadoyi Farg'ona” gazetasi 1914 yil 3 aprelda Qo'qonlik Obidjon Mahmudov tomonidan nashr etilgan. Gazeta noshiri va muharriri Obidjon Mahmudov ham gazeta ta'sischi Ashurali Zohiriy ham jadidlardan bo'lgan. Taraqqiyparvarlar ma'rifatparvarlik va Turkiston mustaqilligi yo'lida faoliyat ko'rsatishgan. 1917 yilgi oktyabr to'ntarishi narijasida Rossiya hukumatini egallagan bolsheviklar jadidlar burjuaziya sinfi vakillari bo'lgan va burjuaziya sinfi man'fatlarini himoya qilgan, degan nuqtayi nazardan yondashadilar, ularni ishchilar va dehqonlar sinfi, proletariyar diktaturasi dushmani deb e'lon qilib, ularning butun faoliyatini – ma'rifatparvarlik, adabiy-badiiy, noshirlik, jurnalistik va publisistik faoliyatini o'rganishni taqiqlab qo'yganlar. Bunday ta'qiq to 1991 yil sobiq SSSR parchalanib, sobiq ittifoq tasarrufida bo'lgan respublikalar mustaqillikka erishib, suveren davlat maqomini olguncha davom etib keldi.

⁸¹Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – T.: 1999. 108-109-bet.

O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingandan keyingina jadidlar faoliyatini o'rganishga keng yo'l ochildi. Jadidlarning adabiy- badiiy va ma'rifatparvarlik faoliyatini tobora keng ko'lamda va chuqurroq o'rganish avj oldi. Shuningdek, ularning pedagogik va noshirlik va jurnalistik va publitistik faoliyatini tadqiq etishga keng yo'l ochildi. Lekin bu savobli ishlar endigina boshlandi. Hali jadid publitistlar, noshirlar, muharrirlar faoliyati atroflicha o'rganilib bo'lishgani yo'q. Ularning matbuot organlari ham to'la tadbqiq etilmagan. Shu jumladan "Sadoyi Farg'ona" gazetasi faoliyati ham⁸². Biz tadqiq qilayotgan "Sadoyi Farg'ona" gazetasi to'g'risidagi ayrim fikrlarini ko'rib chiqamiz. Masalan, 1924-yilda Abdulla Avloniy o'zining "Bugungi o'zbek vaqtli matbuotining tarixi" maqolasida shunday deyiladi. "Sadoyi Farg'ona" gazetasi 1914 yil Qo'qonda "Sadoi Turkiston" bilan bir kunda Obidjon Mahmudovning ma'sulligi ostida chiqqa boshladi. Bu gazeta har jihatdan "Sadoi Turkiston"dek bo'la olmadi. Qalam ahlining o'ziga jalb qila olmasdan inqirozga yuz tutib, nihoyat bu ham to'xtadi.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat kutubxonasining nodir nashrlar bo'limida hozir ham saqlanayotgan gazeta to'plamlari shuni ko'rsatadiki, u 1915 yil 6 iyunga qadar nashr etilgan bo'lib, 122 ta soni chiqqan.

Gazetaning 1914 yil aprel, payshanba kuni chiqqan 1-sonida shunday yozilgan: "Haftada 3 marta chiqadurg'on ilmiy, faniy, siyosiy turkcha gazetadur" demak gazeta ilmiy-siyosiy nashr bo'lgan, qog'oz bichimi A-2 formatda, o'rtacha sifatli yupqa qog'ozda, Qo'qon shahar Haydarbek mahallasida, Obidjon Mahmudovning shaxsiy bosmaxonasida 4 sahifada bosilgan. Obidjon Mahmudov Ziyo Said aytganidek, gazetaning ham noshiri, ham muharriri bo'lgan.

Gazetaning obuna narxi Qo'qon shahri va Rossiya shaharlari aholisi uchun 1 yilda 5 so'm, 6 oyda 3 so'm, 3 oyda 2 so'm, 1 oyda 6 tiyin; xorij mamlakatlari fuqarolari uchun esa deyarli ikki barobar qimmat, 1 yilda 12 so'm, 6 oyga 7 so'm, 3 oyda 4 so'm, 1 oyga 1,5 so'm bo'lgan.

⁸²Pidayev T.R. – O'zbekiston matbuotining o'tmishi va kechmishi. // O'zbekiston matbuoti, 1996 yil, 5-son.

Yuqorida aytilganidek, gazeta sahifalarida xususiy e'lonlar hamda jamoa e'lonlari ko'plab bosilgan. Gazetada berilgan e'lonlarda yozilishicha, qo'qonliklar uchun e'lon bahosi 1-sahifa uchun har satri 20 tiyin, oxirgi sahifa uchun 15 tiyin. Boshqa shaharliklar uchun esa 1-sahifaning har satri uchun 60 tiyin, oxirgi sahifa 30 tiyin. Oylik va yillik e'lonlarga munosib sur'atda manzil aytiladi. E'lon berilgan gazetaning har nusxasi uchun ayricha 15 tiyin olinadi.

“Sadoyi Farg’ona” gazetasi manziliga yuborilgan maqolalar yozgan ulamolar sohiblariga qaytarilmas. Markasiz yuborilgan maktublar pochtdan olinmasdi.

“Hurmatli adresga maqola yuboruvchilardan iltimos qilamizki, ochiq ravshan qilib yozsinlar. Nechunki, o'qiyolmasdan g'aflat bosilib chiqmasun. Adresni almashturg'on domlalaridan Xo'qandda 25 va boshqa shaharlardagi odamlardan 50 tiyin olinur. Maxsus so'zlashish uchun mudir qabul etadur. Kechqurun soat 6 gacha”.

E'lonlar asosan 3-4 sahifada bosilib, ularning ko'pchiligi iqtisodiy mavzuda bo'lgan sanoat mahsulotlari reklama qilingan. Shuningdek, turli kasb egalari aholiga o'z xizmatlarini taklif etib ham e'lonlar berishgan⁸³.

“Sadoyi Farg’ona”ning maqsadi haqida uning noshiri va muharriri Obidjon Mahmudov gazetaning 1-sonida bosilgan “Maqsad va maslak” maqolasida shunday yozadi: “Gazetani nashr etishdan maqsadimiz tijorat emas, balki, xalqimizga qo'limizdan kelgan qadar xizmat etmoqdir. Xalqimizda matbuot va gazetaga kundan-kun shavq va rag'bat o'zgardi”.

Gazeta moddiy jihatdan ta'minlangan. Gazetaning ana shu 1-sonida Ashurali Zohiriy qalamiga mansub bo'lgan “So'z boshi” maqolasi ham bosilgan bo'lib, unda nihoyatda muhim, juda ajoyib ijtimoiy-siyosiy, adabiy-falsafiy g'oya ilgari surilgan. Bu maqolada aytilganidek, “Gazeta har bir millatning tilidur, gazetasiz millat tilsizdur. Zero, tili va adabiyoti yo'q millat millat emasdur.”⁸⁴

⁸³Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917) / N.A. Abduazizova. – T.: Akademiya, 2000. – 160-bet.

⁸⁴Uzoqov H. Ashurali Zohiriy. T., “Cho'lpon”, 1996. 29-b.

Demak, gazeta va adabiyot har bir millatni millat sifatida ko'rsatuvchi, millat sifatida shakllantiruvchi eng asosiy ko'rsatgich, sifat xususiyatdir. Bunday bir ulug', zo'r ijtimoiy-siyosiy g'oya birinchi bor Ashurali Zohiriy tomonidan "Sadoyi Farg'ona" gazetasida, uning 1914 yil chop etilgan 1-sonida ilgari surilgan.

Buni shuning uchun ham ta'kidlab o'tmoq kerakki, "adabiyoti millat millat emasdur. Adabiyoti yo'q millat – o'lik millatdur," – degan fikrni shu paytgacha biz birinchi bo'lib Cho'lpon o'zining "Adabiyot nadur?" maqolasida aytgan deb hisoblab kelgan edik. Baholanki, aslida bunday emas ekan. Ashurali Zohiriy o'zining ushbu maqolasida yozadi: "Gazeta har millatni tarjimonidirki, bilmag'on narsalarni bildirur va ham millatning muddaosini boshqalarga bildirur. Yana bir so'z bilan aytilsa, gazeta har bir millatning tilidur, gazetasiz millat tilsizdur. Zero, tili va adabiyoti yo'q millat millat emasdur. Har kimning dunyoda tirik turmog'i uchun havo bilan suv qanday lozim bo'lsa, har qavmning hayoti va saodati uchun ul millatning matbuoti va adabiyoti bo'lmog'i lozim."

Demak, muallif fikricha, gazetasiz, adabiyotsiz millat millat emas. U jamoa sifatida, qavm sifatida, inson sifatida bo'lishi, yashashi mumkin, lekin gazetasi va adabiyoti bo'lmasa, millat sifatida yo'qdir, millat sifatida o'likdir. Millatni millat sifatida ko'rsatuvchi asosiy belgi har bir millatning o'z matbuoti va adabiyotini bilishidur. Boz ustiga, muallif fikricha havo bilan suv qanday zarur bo'lsa, har bir millat har bir qavmning jamiyatda to'laqonli yashamog'i uchun matbuot va adabiyot millat tirikligining nishonasidir.

Shu o'rinda bir narsaga aniqlik kiritib ketish zarurki, Ashurali Zohiriyning "So'z boshi" maqolasi "Sadoyi Farg'ona" gazetasining 1-sonida, ya'ni 1914- yil 3 aprelda bosilgan. Cho'lponning "Adabiyot nadur?" maqolasi "Sadoi Turkiston" gazetasining 1914-yil 4-iyun sonida berilgan Cho'lpon bu paytda Andijon shahrida yashayotgan Ashurali Zohiriy esa Qo'qonda bo'lgan. To'g'ri "Sadoyi Farg'ona" gazetasi redaksiyasi bilan Cho'lpon o'rtasida yaqin aloqa bor edi. Obidjon Mahmudov va jadid ziyolilari o'lkaning ko'p joylariga xat jo'natib "Sadoyi Farg'ona"da o'z maqolalari bilan qatnashib tushirishlarini so'raydi. Lekin

Cho'lpon Ashurali Zohiriyning "So'z boshi" maqolasi bosilgan "Sadoyi Farg'ona"ni olganmi, yo'qmi buni bilmaymiz. Demak, Cho'lpon Ashurali Zohiriyning bu fikridan mutlaq behabar bo'lgan deya olamiz. Hozirgacha bir asosli gap aytilmagan. "Adabiyot nadur?" maqolasini yozganda Cho'lpon 16-17 yoshga kirgan yigitcha edi.

Demak, yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, Ashurali Zohiriy ham, Cho'lpon ham adabiyotning ijtimoiy hayotdagi roli va o'rini bir xil tushungan va bir xil talqin qilgan. "Adabiyoti yo'q millat inqirozga yo'l tutar...⁸⁵",- deydi har ikkisi ham. To'g'ri Ashurali Zohiriy bu fikrni Cho'lpondan 2 oyu 10 kun oldin aytgan, ya'ni ochiq holda jamoatchilikka bildirgan. Biz bu o'rinda Cho'lpon Ashurali Zohiriy fikrini ilgari surgan, g'oyani o'ziniki sifatida ilgari surgan fikrdan yiroqdamiz. Bu fikrni bir-birlaridan bexabar aytishgan. "Sadoyi Farg'ona" da uch xodim – O. Mahmudov, A. Zohiriy. U. Nuriydan tashqari H.H. Niyoziy, Cho'lpon, Tavallo, Hamid Said, Saidahmad Vasliy, Ibrohim Davron, Mulla Abdullobek Musabekxoji o'g'li, Shokirali Mutorovlar ham o'z maqolalari va materiallari bilan qatnashib turgan. Demak, Ziyosaid yozganidek, "Sadoyi Farg'ona" gazetasining "... muhbir va yozuvchilari yo'q." degan fikri ham unchalik asosli emas, "bo'lsa ham kam" degan fikrga ma'noda qoshilish mumkin.

Ashurali Zohiriy "Sadoyi Farg'ona" ning ham tasischisi, ham eng faol, qiziqarli maqolalar bilan qatnashib turgan mualliflardan biridir. U gazetasining maslagi, yo'nalishini belgilab turgan asosiy tashkilotchisi. "Ashurali Zohiriy, - deb yozadi XX asr 1-choragida Qo'qon adabiy muhiti boyicha doktorlik ilmiy ishini yozgan taniqli tadqiqodchi Rustam Tojiboyev o'zining "Ma'rifatparvar muallim" maqolasida"⁸⁶. Madaniyatimiz, maorifimiz tarixida chuqur iz qoldirgan siymolardan biri. U 1907-1917 yillarda Qo'qondagi 2-tuzem maktabida muallimlik qildi. 1910-yildan boshlab Turkiston matbuotida qatnasha boshladi. Uning ma'rifatparvarlik faoliyati 1912 yilda chop etilgan "Turkiy xrestomatiya"da, 1916-

⁸⁵Abduazizova N. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi (1870-2000). T., "kademiya", 1999. 23-bet.

⁸⁶Tojiboyev R Ma'rifatparvar muallim. // Sovet maktabi. – 1988. – 1-son. 19-bet.

yilda chop etilgan “Imlo” darsligida yaqqol ko’zga tashlanadi. A.Zohiriy A. Navoiyning “Vaqfiya” va “Muhokamatil lug’otayin”, Boburning “Boburnoma” asarlarini nastaliq xati bilan ko’chirib, nashrga tayorladi. Shuningdek, “Olti yillik o’zbek adabiyotiga bir nazar”, “Taqdir ham unga javoban haqida bir necha so’z”, “Kelurnoma” va bir necha ilmiy ommabop maqollar nashr ettirdi. Uning “Olti yillik o’zbek adabiyotiga bir nazar” deb nomlangan yirik maqolasi “O’zbek adabiyoti” deb atalgan bo’lsada, aslida 1918-1924 yillar oralig’ida Turkistonda chop etilgan matbuot organlari haqidagi, ya’ni Turkiston matbuoti haqidagi risoladir.

O.Mahmudov boshqa ziyolilar qatori el-yurtini obod va farovon, xalqni ma’rifatli qilish orqali mustamlakachilik zulmidan ozod qilish mumkin deb o’ylaydi va xalqni ma’rifatli qilishda eng samarali yol` - gazeta va jurnallar orqali bo’lishin yaxshi anglagan. Shuning uchun u Qo’qonda o’zinng “Sadoyi Farg’ona” gazetasini ochib ishga tushirgan. Ochiq fikrli, millatparvar va o’tkir qalam sohibi, gazetaning muharriri va noshiri – Obidjon Mahmudov o’z gazetasida tez-tez maqolalar yozib, muhit –jtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy mavzularda maqolalar yozib gazeta sahifalarida berib turgan. Masalan, “Usuli jadidni ixtiro qilib turib, yana boshqalarga shikoyat qiluvchularga taajub”, “Gazeta nadur va nechun lozimdur” kabi maqolalari shular jumlasidandir. O.Mahmudov “Gazeta nadur va nechun lozimdur” deb nomlangan maqolasida shunday yozadi: “Gazeta butun dunyodagi madaniy millatlarning tirikchilik yo’llari, olamdagi darajalari, insoniyat taraqqiy va tolesi uchun lozim bo’lgan harakatlar to’g’risida bir-biridan maslahat va kengashish uchun vosiyadur”.⁸⁷ Saidahmad Vasliy Samarqandiy ham “Sadoyi Farg’ona” gazetasi sahifalarida ko’plab maqolalari bilan ishtirok etgan. U Samarqand shahrining Ko’kmasjid gazetasida pichoq yasovchi usta Saidazim xonadonida tug’iladi. Dastlab mahallasida eski maktabda, keyinchalik Toshkent va Buxoro madrasalarida tahsil oldi. So’ng Buxoroda, 1909 yildan esa Samarqanddagi Orifjon boy va Ulug’bek madrasalarida mudarrislik qiladi.

⁸⁷Avloniy A. “Milliy uyg’onish – bugungi o’zbek matbuoti tarixi”. – T., “ToshDU nashriyoti”, 1999. 29 - b

Madrasalarni isloh qilish haqidagi ko'plab maqolalar yozadi. U o'z davrining taniqli shoiri bo'lib, 3 tilda o'zbek, fors, arab tillarida ijod qilgan. 1909 yili uning "Devoni forsiy Vasliy" nomli 1-devoni Samarqanddagi Demurov matbaasida chop etiladi. O'zbekcha she'rlar to'plami esa 1912 yili bosilib chiqqan. Matbuotda faol ishtirok etgan.

Vasliy "Sadoyi Farg'ona" gazetasi bilan bir vaqtda "Taraqqiy", "Turkiston viloyatining gazetasi", "Oyna", "Al isloh-al izoh", "Sadoi Turkiston" kabi gazeta va jurnallarda o'z maqola va she'rlari bilan qatnashib turgan.

"Sadoyi Farg'ona" gazetasi ilgari surgan asosiy muammolardan biri "Usuli jadid" ni joriy etish, ya'ni maktabni isloh etishni keng targ'ib etish bo'ldi. Saidahmad Vasliyning gazetada bosilgan ko'plab maqolalari va she'rlari ham ana shu mavzuga bag'ishlangan edi. Uning "Sadoyi Farg'ona"da bosilgan "She'rlar va ilmiy balog'at", "Madaniyat", "Taraqqiy yo'li", "Gazeta va usuli jadid" kabi maqolalari fikrimizning dalilidir. U o'zining "Usuli jadid" maqolasida yangi usuli eski o'qitish tizimidan afzal ekanligini sodda va tushunarli qilib quyidagicha bayon etadi: "Emdi yangi tartibda o'qimoqni ma'nosi shulki, maktabga kirgan bolaga ko'rsatib saboq berish bilan bir vaqtda harflarni yozib ko'rsatur. Yangi tartibda o'qigan bola 4-5 oyda o'qimoq va yozmoqni o'rganur. Qadimda maktablarimizda kalomu sharifni tadvijisiz o'rganib, chor kitobni o'qib 10-12 yil ovora bo'lib bu kitoblardan birontasini ma'nosini bilmas edilar". Vasliy ushbu maqolasida 10-12 yil o'qigan mullalar eng muhim ilmlardan behabar qolganliklarini ta'kidlash bilan birga ularni madrasalarda o'rgangan bilimlari amaliy hayot ehtiyojlaridan juda uzoq bo'lganligi hamda jamiyat taraqqiyotida turtki bo'la olmay, taraqqiyotdan ajralib qolganligi haqida muhim ijtimoiy-siyosiy masalani ilgari suradi.

Obidjon Mahmudovning "Sadoyi Farg'ona" gazetasining yana bir ishtirokchisi Shokir Muhtorovdir. Uning "Islohni nimadan boshlara" deb nomlangan va "Sadoyi Farg'ona"ning 1914 yil 1-sonida bosilgan maqolasi ham yuqoridagi mavzuga bag'ishlangandir. Unda muallif "Men Ovrupa xalqining bu darajadagi taraqqiy va tole'larining 1-sababini va bosh sababini ko'p axtardim.

Lekin ibtidoiy tarbiyalarning muammalligidan boshqa saba topolmadim” – degan lo’nda xulosaga keladi va shu asosda o’z fikrini davom ettirib deydi: binobarin, islohatimizning maktab ibtidoiylaridan boshlamoq darkor deb hisoblayman. Muallif Turkistondagi maktab va madrasalarning kamchiliklari, ular zamon talablaridan orqada qolib ketayotganligini achinib bayon etadi. “Madrasa talablariga tarixiy milliya va hisob o’qitmoq odati bizda yo’q. Jug’rofiya va riyozarga sabr qiluvchi darslar albatta mudarislarimiz o’qimaydilar. Shogirtlarga o’qitmaydurlar... Ammo ibtidoiy rus shogirdi tamoman boshqadur. U o’zining ona tili o’z qoidalarini biladur. Jug’rofiya, hisob, tarix milliyasidan habardor”.⁸⁸

Mazkur muammolarga bag’ishlangan maqolalarni “Sadoyi Farg’ona” gazetasi sahifalarida ko’plab uchratish mumkin. Misol uchun, Mulla Abdullabek hoji o’g’lining “Isloh – al Isloh”, Sh. Muhtorovning “Isloh”, H.H Niyoziyning “Maktab daliretim” (60-son), A.Zohiriyning “Ona tili” (3-son), Yahyo Qorining “Hozirgi eski va yangi maktablarimiz”, Mavloniyning “O’qimoqdin maqsad nima?” kabilar shular jumlasidandir.

Obidjon Mahmudov o’z gazetasi sahifalarida yuqoridagi maqolalarni ko’proq nashr etishni hohlardi. Chunki, uning maqsadi “Sadoyi Farg’ona” mustamlaka tuzumi ostida ezilgan, qoloqlashib ketgan o’zbek xalqini erkinlikka va farovonlikka olib chiqish edi. Obidjon Mahmudov gazeta va jurnallar xalq ommasini ongini o’stirishda muhim qurol ekanligini yaxshi anglagan. Matbuot orqali xalqni ziyoli qilish samarali usul ekanligini bilgan. Shuning uchun u konchilik ishlaridan, savdo ishlaridan olgan daromadidan “Sadoyi Farg’ona” gazetasini muntazam mablag’ bilan ta’minlab turgan. Gazetada ozi ham maqolalar yozib xalqni yangiliklar bilan oshno etib turgan. U o’z gazetasida ilm fan va madaniyatga juda keng o’rin ajratib beradi.

“Sadoyi Farg’ona” da bosilgan materiallar ichida yana bir qator maqolalarga to’xtalib o’tamiz. Maslan, gazetaning 1914-yil 71-sonida bosilgan S. Vasliyning “Madaniyat” deb nomlangan sarlovha ostida chiqqan turkum maqolalardir. Muallif

⁸⁸Abduazizova N. Turkiston matbuoti tarixi (1917-1991).T., “Akademiya”, 2000. 166-bet.

o'z maqolalarida ijtimoiyyotchi olim safatida fikr yuritib, madaniyat tushunchasini asoslarini falsafiy jihatdan bayon etadi. Umuman olganda, Vasliyning bu turkum maqolalarini falsafiy asarlar deb baholash maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki, muallif bu maqolalarida o'tkinchi muammolarning quruq bayonchisi emas, balki madaniyat tushunchasining tub asosiy ildizlarini – belgilarini atroflicha talqin va tahlil etadi.

Shuningdek, maqolada muallif madaniy turmushning muhim qismi bo'lgan yana bir boshqa jihatlariga – ilm-fan, ma'rifat, san'at kabi asosiy unsurlarning har biriga alohida-alohida maxsus to'xtalib, ularda ham atroflicha ta'rif beradi.

Shunday qilib, milliy matbuot o'z faoliyati bilan Turkiston xalqlarining siyosiy uyg'onishi jarayonlarini faollashtirishga hissa qo'sha boshladi. Turkiston muhtoriyati uchun kurashda uning sahifalarida bosilayotgan chaqiriqlar va xitoblar xalqni tartibsiz chiqishlaridan endi asta-sekin uyushgan, turli ittifoq, qo'mitalar va sovetlar shaklidagi siyosiy tashkilotlarga birlashtira boshladi.

Turkistonda muhtoriyatchilik harakatining taniqli mafkurachilari qatori Obidjon Mahmudov ham o'z gazetasi "Sadoyi Farg'ona"da siyosiy qarashlarga oid materiallarni ham bosib chiqara boshladi. Uning sahifalarida Ashurali Zohiriy, Co'lpon, I. Davron, Hamid Said, Shokirali Muhtorov, H.H. Niyoziy, Tavallo kabi jadidchi ziyolilarning qarashlari o'z aksini topa boshladi.

Ma'lumki, ma'rifatparvarlar tomonidan kun tartibiga qo'yilgan dolzarb muammolardan yana biri ona tili masalasi bo'lgan. "Sadoyi Farg'ona" gazetasi ham bu masalani o'z nazaridan chetta qoldirmagan. Masalan, Ashurali Zohiriy gazetasining 3-sonida bosilgan "Ona tili" nomli maqolasi ruhiyat jihatidan o'zbek tilini mensimovchi shovinistlar, o'z ona tiliga mensimay qarovchilarni asosli tanqid ostiga olar ekan, u ayni chog'da o'zbek tilining boy va go'zal ekanligini til tarixi faktlari, tatar tiliga qiyoslangan dalillar bilan ochiq ko'rsatib bergan. O'z tilini hurmat qilish odobiga chaqiradi. Yaxshisi, ushbu maqoladan bir parcha o'qing: "Durust, forsiycha, arabcha, o'ruscha va boshqalarni ham bilaylik, bilaylikkina emas, juda yaxshi bilaylik. Lekin ona tilimizni hammasidan sozroq va

ziyodroq bilaylik va ham shunday bo'lg'onda arabcha, forsiycha va boshqalarga tushunarmiz. Qachonki o'z ona tilimizni yaxshilab bilmadikmi, boshqa tilni albatta durust bilmaymiz.

Shuning birla na oni bilurmiz, na buni”.⁸⁹

Ashurali Zohiriy maqolasining eng muhim nuqtalaridan biri shundaki, u gazetaning “ko'zga ko'rinmaydigan bir foydasi” hususida ibratli bir fikr aytadi. U deydi, tatar tili va adabiyoti bundan 10-15 yil ilgarigiga nisbatan ancha o'sdi, mukammallashdi. Bunga sabab tatar tilida nashr etilayotgan gazeta va jurnallardir. Sababi gazeta va jurnallar milliy tilning rivoji va gullab-yashnashiga yaxshi sharoit yaratadi va muhim omil bo'ladi.

“Sadoyi Farg'ona”da bosilgan va muhim ahamiyatga molik bo'lgan maqolalardan yana biri Hamid Saidning “Tarbiyaning siri a'zamdur” maqolasidir.

Turkiston jadid ma'rifatparvarlarning eng asosiy vazifalaridan biri ham xalqni ziyo yo'li bilan uyg'otishdir. Anashu maqsadlarda Obidjon Mahmudov “Sadoyi Farg'ona” gazetasi sahifalarida tez-tez Turkiston xalqiga harakat qiladi. Muallif bu maqolasida Turkiston xalqi taraqqiyotdan chetda qolganligini oddiy til ila bayon etmaydi, bu masalani ijtimoiy-siyosiy jihatidan ham diqqat-e'tiborini taraqqiyoti tanazzulning bosh sababchisi bo'lgan inson shaxsi, uning tarbiyasi masalasiga qaratadi.

1917 yil inqilobiy harakatdan so'ng Qo'qonda gazetadan tashqari jurnallar chop etila boshlandi.

Farg'onada milliy matbuot taraqqiyotining ikkinchi bosqichi fevral to'ntarishidan keyin boshlandi. 1917 yilning noyabrigacha, ya'ni hokimiyat tepasiga bolsheviklar kelguniga qadar vodiya chiqqan gazeta va jurnallar o'z davrining siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy ruhiy holati solnomasiga aylashandi. Bunga mazkur gazeta va jurnallarni tahlil etilganda to'la ishonch hosil mumkin.

“Tirik so'z” gazetasi. 1917 yilning 2 apreldan Qo'qonda nashr etila boshladi. U o'zini mushtariylariga shunday tanishtirgan: “Haftada 3 marta chiqadurg'on

⁸⁹Boltaboyev. X. Cho'lpon. T., “Jamiyat va boshqaruv”, 1998. 36-bet.

adabiy, iqtisodiy, taraqqiy gazetadir”. Muharrir va noshiri Obidjon Mahmudov. “Pechatnoe Delo” matbaasida chop etilgan⁹⁰. Dastlabki sonida gazetaning nima maqsadda tashkilqilinganini muharrirning o’zi shunday bayon etadi: “...faqir 1914 nchi yildan to 1915 yilgacha “Sadoi Farg’ona” nom gazet birlan millatga xizmat qilgon edim, ba’zi muomalot, olam necha xil mone’liklar sabab bo’lub to’xtab qolgan edi... Xalqni uyg’otmoq uchun munodi qilmoqni (fikir bermog ma’nosida) o’zumga lozim bildim, ahvoli zamonga qarab ba’zi puxta joylarda eshitkan va bilgon so’zlarni gazet orqali bildurub turmoqni zarur fahmlab, ya’ni “Tirik so’z” gazetasini chiqarmoqga majbur bo’ldum, muddao gazet chiqormoddan foyda qilish yoki boshqa muddao emas, balki faqirni(ng) muddaosi mutafriqa fikrlik (qo’rmoq fikrli, ya’ni fikir jihatidan alohida alohida ma’nosida) millatlarni(ng) fikrlarini jam qilish, millat oralaridagi nafsoniyatlarni yo’q qilish, ishda, fikrda, maslahatda kattakichiklarni bir birlariga yaqinlashturush. Gazeta maslaki birlik va ittifoqlik, din, dunyoviy ishda taraqqiy qilishning asbobidur...”⁹¹

Muharrir Farg’ona muzofotidagi musulmonlarning vazifasini shunday ifodalaydi: “...alxoldagi vaqtni bekorg’a o’tkazmay bir-birlariga xabarlashib, bir millat majlisini hozirlamoq va yangi hukumatg’a yordam qilmoq, maslahatxonalar ochmoq, xar joyda, har shaxarlarda va har qishloqlarda yig’ilishib, millat majlisi tayyorlab, birbirlari bilan xabarlashib, muddaolarini yuzag’a chiqarsalar mumkin”.

“Tirik so’z”ning qancha son va qachongacha chiqqani hozircha aniqlanmadi (taxminimizcha, 20 son qadar chiqqan).

Farg’onada 1917 yilga kelib ma’lum muddat “Farg’ona sahifasi” (1917 yil 15 martdan chiqqan), “Farg’ona nidosi” (1917 yil 15 noyabrdan chiqqan), “Ravnaq ul-islom”, “Xalq g’ayrati” kabi gazetalar ham nashr etilgan. Bu gazetalardan ikkisining muharriri Husayn Makaev, uchinchisiniki Toshmuhammad Nurmuhammad o’g’li degan shaxslar bo’lgan. Mazkur gazetalar o’sha paytda viloyat ijtimoiy siyosiy hayotida muayyan rol o’ynagan. Muhimi, u yerdagi

⁹⁰ Obidov M, Farg’ona jurnalistikasi, T: Sharq 2009 y, 24 bet.

⁹¹ Obidov M, Farg’ona jurnalistikasi, T: Sharq 2009 y, 24-25 betlar.

ijtimoiy-siyosiy voqealarga munosabatini ochiq bildirgan. Jumladan, “Farg’ona sahifasi”ning 11sonida “Z.M.” imzosi ostida Andijonda “O’rta maslak jamiyati” sarlavhali maqola bosilgan. Muallif Andijonda tashkiletilgan yang’i jamiyatning mohiyatini shunday tushuntiradi: “Majlisg’a “O’rta maslak” nom qo’yildi. Chunki taraqqiypeshalar harakatlari janob ulamo nazarinda ifrot (haddan oshish) ko’rilub, agar taraqqiy shul bulsa, anga qadam qo’ymoq maslaki shari’atdan yiroqlashmoq deyurlar. Inchunin ustodlarim maqomi tafridda mutavak Sadoyi Farg’onaun (ikkalanish maqomida tavakkalda) bo’lishub, ahvoli zamong’a muvofiq islohi xaloyiq va axloqg’a qo’shish (harakat) qilmay, mazkur ifrot darajalik yoshlarni misol ko’rsatub, rohi jadid (jadid yo’li)ni(ig) xatosini isbot qilmoqchi bo’ladurlar”.

“El bayrog’i” gazetasi. 1917 yilning 8 sentyabrpdan Qo’qon shahrida chiqqan boshlagan siyosiy, adabiy va ijtimoiy gazeta. Dastlabki muharriri Astraxan viloyatida tug’ilib voyaga yetgan, asli o’zbek, yashash sharoitiga ko’ra tatarlashgan Bulat Soliev degan tarixshunos olim, keyin unga Ashurali Zohiriy ham muharrir. Noshiri Qo’qondagi “G’ayrat” kutubxonasi. Adadi 800-1000 nusxa atrofida. Mix bosmada chop etilgan⁹². Gazetaning vazifasi shunday bayon etiladi: “...turk elining hozirgi zamondag’i moddiy va ma’naviy ehtiyojidan bahs etadur ham muvaqqat hukumatning tadbir va siyosatlaridan va muhoraba xabarlarining eng mujuklaridan yozadur”. Shiori: “Yashasun qo’shma xalq jumhuriyati!” Gazeta haftada ikki marta chiqib turishi va’da qilgan bo’lsada, 1918 yilning yanvaridan boshlabgina bu va’dasiga amal qildi. Uning birinchi sahifasida o’sha davrning muhim da’vatlari bosildi. Jumladan, 1 sonda “Musulmonlar! Goroduskoy dumag’a saylov kunlari yaqinlashadur. G’ofil qolmanglar!” degan chaqiriq bor. “El bayrog’i” dastlabki sonlaridanoq mahalliy xalqni zamonning dolzarb bo’lib turgan ijtimoiy-siyosiy voqealaridan ogoh etib borishga intildi. Uning birinchi sonidagi “Rusiyada olti oydan berli inqilob davom eta” sarlavhali bosh maqolasida Turkistonning mahalliy aholisi fevral inqilobi samaralaridan foydalanishni yetarli darajada bilmaydi, deya kuyinib yozilgan. Holbuki, “eskidan hozirligi bo’lg’on millatlar... askariy

⁹² Obidov M. Farg’ona jurnalistikasi, T., “Sharq” 2009 y, 27 bet

tashkilotlari, mahalliy organizatsiyalari, minglarcha jamoat xodimlari, milliy fundlari mukammal bo'lg'ong'a o'zlarin mustaqil etub e'lon etarga jasorat etdi ham etar".

O'zbek matbuoti tarixining tadqiqotchisi Ziyoy Saidning yozishicha, "El bayrog'i" yigirma son atrofida chiqib, Turkiston muxtoriyati bostirilishi bilan bolsheviklar tomonidan to'xtatilgan.

"Kengash" jurnali hijriy 1335 yilning 15 jimoduloxiri, milodiy 1917 yilning 8 martidan Qo'qonda o'qituvchilar jamiyati tomonidan chiqarila boshladi. Muharriri muallim Hamza Hakimzoda. 1 va 2 sonlari sakkiz, 35sonlari 16 sahifali bo'lib chiqqan. Jurnal maslak va maqsadini bayon etuvchi an'anaviy maqola bermagan. 1-sonida ta'kidlanishicha, u "Har ikki haftada chiqadurgon ta'mimi maorifdan bohis (ma'rifat yoyishdan bahs etuvchi) jurnal". "Kengash"ning tutgan maslaki va yo'nalishini muharrirning mazkur sondagi "Jum'a qandoq kun?" sarlavhali maqolasi yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Muallif yozadi: musulmonlar uchun jum'a bir bayram sifatidagi kun. Bu kunni uzoq vaqtlardan buyon bayram (dam olish kuni) tarzida o'tkazolmay keldik. Endi fikr yuritib, o'zimizning muammolarimiz haqida gapirishimiz mumkin⁹³. Shukrki, "...umumiy hurriyat, musovot, adolat bo'ldi, qo'loyog'imizdagi zanjiri siyosatni yechdi, ozod qildi, tillarimizdagi qizil tamg'alarda qirildi, to'kuldi. Har bir to'g'ridan ayonochuk so'zlab, qichqirub xalqimizi uyg'otmoqqa, ogoh qilmoqqa keng yo'l berildi. Qo'rqunch bosqunch kabi nafas bila ichka kirub-chiqub turgon zaharlik roz (gaz)lardan yuraklarimiz tozalandi". Juma kuni to'g'risida fikrimizni bemalol aytish imkoni tug'ildi va bunga komil xalqimiz ham bor.

Jurnal besh soni chiqqandan so'ng to'xtagan⁹⁴.

"Hurriyat" jurnali. 1917 yilning 7 aprelidan chiqa boshlagan. Uning dastlabki ikki soniga Hamza Hakimzoda Niyoziy muharrirlik qilgan. Noshiri Hoji Rahimjon

⁹³ Obidov M, Farg'ona jurnalistikasi, T: Sharq 2009 y, 35 bet

⁹⁴ Obidov M, Farg'ona jurnalistikasi, T: Sharq 2009 y, 36 bet

Shodi. Hamza jurnalining 1sonida “Hurriyat” sarlavhali tabriknoma yozib, barcha vatandoshlarini “abadiy ozodlik” olinganligi bilan qutlaydi.⁹⁵ Uning

“Bukungi kadrlik kunlar!” sarlavhali maqolasi ushbu tabriknomaning davomi sifatida berilib, unda yetishgan kunlar nimasi bilan qadrli ekaniga izoh berilgan: “Mana, deb yoziladi bosh maqolada, bukun haqiqat, hurriyat vositasi bila eski xoin va zolim mustabid hukumatni(ng) ellik yildan beri bo’yin, qo’l va ayog’imizga sezimsiz solub kelgan umrlik og’ur zanjirlarni ko’zga ko’rsatub yeshdi, xalos qildi. Bukun haqiqat, musovot vositasi bila bir taraf zolim amaldorlar, 2 nchi tarafdin rahmsiz, shafqatsiz talonchilar temir tirnog’i ostida pustlari (terilari) butun sidirilub, yuraklari ezilub, cho’kub, xonumonlaridan ajrab kelub turg’on mazlum, nohaq (haqsiz), faqiru bechora, yetim, g’ariblarni(ng) burgutlar panjai margidan raho qildi (burgutlarning o’lim panjasidan qutqardi). Bukun Ostroumuf, Ilminskiy kabilarning tarbiyasida yoshagon va oning maslakiga xizmat etuvchi vatandagi o’z oramizdan chiqqan din xoinlarini xiyonatlarin haqiqat maydoniga!” (olib chiqib yuzidan niqobini yechib tashladi). So’ng maqola muallifi millatdoshlaridan yoshlargina (“yoshlar” atamasi “qadimchilar”ga qarshi qo’yilgan) erishilgan kunlarning qadriga yeta o’lishi mumkinligini ta’kidladi.

“Hurriyat” jurnali olti son chiqqaidan so’ng faoliyatini to’xtatgan⁹⁶.

“Yurt” jurnali. “Siyosiy, ijtimoiy, tarixiy va adabiy haftalik majmua”. Muharriri hamda 12 sonlarining noshiri Ashurali Zohiriy. 3-sonidan noshir hoji Mavlon Ashurboev. Jurnal 1917 yilning 1 iyunidan chiqa boshlagan. Shiori “Yashasun muxtoriyatli xalq jumhuriyati!” Adadi ming nusxa atrofida. Qo’qondagi I. I. Vayner tipolitografiyasida chop etilgan. 1sonida jurnal taxririya tomonidan “Maqsad va omolimiz” sarlavhali maqola e’lon qilingan bo’lib, unda nashrdan ko’zlangan maqsad va niyat bayon etilgan. Bosh maqolaga nemis mutafakkiri Shillerning quyidagi gapi epigraf tarzida keltiriladi: “Sadoyi

⁹⁵ Obidov M, Farg’ona jurnalistikasi, T: Sharq 2009 y, 39 bet

⁹⁶ Obidov M, Farg’ona jurnalistikasi, T., “Sharq”, 2009 y, 39- bet

Farg'onaik vayron bo'lub, azmon o'zgarub, xarobalarda yongi hayot ochiladur"⁹⁷
(Izoh: "Azmoi" so'zi arabcha "zaman", ya'ni "zamon" so'zining ko'plik shakli).
Maqolaning kirish qismida shunday ta'kid bor: "Bizning qoshimizda taxminan
bundan o'n, o'n besh yillar avvalda bir hayot mas'alasi qo'zg'aldi; u eskicha,
Sadoyi Farg'onaikni takdis (muqaddas bilish) va tahfiz etmak (saqlamoq,
muhofaza qilmoq) yoki Ovro'po va rus madaniyatini qabul etib, tarixdan yongi bir
davr ochmaq mas'alasi edi".

"Yurt" jurnalining qancha soni chiqqani aniq emas. Toshkent kutubxonalarida
1 - 3-sonlari mavjud.⁹⁸

Jadidchi Obidjon Mahmudov tashkil etgan "G'ayrat" jamiyatining faoliyati.

Turkiston mustaqilligi yo'lida faoliyat ko'rsatgan taraqqiyparvar,
ma'rifatparvar – Obidjon Mahmudov o'zining jadidchilik faoliyati bilan
xalqimizning ozodlik va mustaqilligiga katta hissa qo'shgan. O'z sarmoyasi bilan
xalqimizni ma'rifatli qilish uchun faol kurashgan. U mazlum xalqimizni jahondagi
ilg'or, taraqqiy topgan millatlar qatorida ko'rishni orzu qilgan va bu yo'lda o'z
umri davomida tinmay say' - harakat qilgan buyuk vatanparvarlarimizdan biri edi.
U Turkiston xalqlarini ayanchli ahvolini, mustamlakachilarni beayov zulmi va
talonchiligini ko'rib, bu mudhish ahvolga chek qo'yishning yo'llarini izlay
boshladi. Obidjon Mahmudov boy savdogarlarimiz ichida birinchilardan bo'lib
jadidchilarga ma'naviy va moddiy jihatdan ko'mak bera boshladi. U maktablar
ochib, ularni o'z sarmoyasi bilan ta'minlab, bolalarni o'qitish uchun maxsus
binolar ajratdi. Ularni darslik va o'quv jihozlari bilan ta'minladi. 1914 yil 3-
aprelda Farg'ona vodiysi tarixida ilk o'zbekcha gazeta bo'lgan "Sadoyi Farg'ona"
ni tashkiletdi. Yana shu yili "G'ayrat" nomli shirkat ochib, unda ma'rifatparvarlik
ishlarini davom ettirdi⁹⁹.

⁹⁷ Obidov M, Farg'ona jurnalistikasi, T., "Sharq", 2009 y, 40 -bet

⁹⁸ Obidov M, Farg'ona jurnalistikasi, T: Sharq 2009 y, 42 bet

⁹⁹ Jo'rayev. N O'zbekiston tarixi: (Turkiston Chorizm mustamlakachligi davrida). 1-kitob. – T.: Sharq 2011 yil . 409 bet.

Biz yuqorida uning Turkiston Muxtoriyati uchun kurashchi sifatida ko'rib chiqdik. Uning Turkiston Muxtoriyati hokimiyatchiligida oziq-ovqat vaziri va savdo ishlari vaziri sohasidagi faoliyati, Qo'qon shahri hokimi o'rinbosari sifatidagi faoliyatini ko'rib chiqdik. Bu bo'limimizda uning "G'ayrat" nomli shirkati faoliyatini ko'rib chiqamiz.

"G'ayrat" jamiyati ko'plab ziyoli ma'rifatparvar mahalliy xalq vakillari va Turkistonga surgun qilingan Georgiy Pavlyuchenko kabi rus sotsial demokratlari bo'lgan.

Dastlab kitob savdosi va noshirlik yo'lga qo'yilgan. Dastlab ishlar juda qiyinchilik bilan siljigan. 1915 yilda bor-yo'g'i 136 pay sotilib, bor sarmoyasi 3975 so'mni tashkil qilgan. Paychilarning aosiy qismi mayda savdogarlar bo'lib, butun umrini kitob va uning savdosiga bag'ishlagan. Turkiston o'lkasining barcha joylari, hatto Konstantinopolda ham kitob savdo qilgan Abbosxo'ja Kalom Hojiyev bu jamiyatga rahbarlik qilgan.

"G'ayrat" jamiyati o'zining dastlabki qadamlarini yangi usul maktablarini o'quv-qo'llanmalari, kitob-daftarlar bilan ta'minlashdan boshlagan. So'ng sarta kitob, gazeta, jurnallarni tarqatishdan boshladi. Jamiyatga qarshi do'konlarga gazeta-jurnallar savdosi qizg'in borgan. Orenburgda chiquvchi tatarcha "Vaqt" gazetasi, Moskvada chop etiladigan tatarcha "So'z" gazetasi, Andijunda chiquvchi ruscha "Turkistanskiy golos" gazetalarning bozori chaqqon bo'lgan.

"G'ayrat" shirkat jamiyati hissadorlar jamiyatigina emas, balki demokratik asosga qurilgan izchil artel sifatida o'zini namoyon qila olgan jamiyatdir. Buning natijasida mustamlakachi ma'murlar bu birodarlik faoliyat egalarini muhofaza bo'limi tomonidan doimo ko'z-quloq bo'lib turishlikka majbur etgan. Mustamlakachi ma'murlar va muhofaza bo'limi doimo ular bilan hisoblashishga majbur bo'lganlar.

Muhofaza bo'limining bir tomoni polkovnik Volkovga shunday axborot yo'llagan: "Chaykin fikricha bosh maqsadi mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilish bo'lgan "Turkistanskaya golos" gazetasi o'zining paylaridan ko'pini Qo'qon

shahridagi “G’ayrat” deb atalmish mahalliy musulmon ma’rifatchilar jamiyatiga joylashtirishga muvofaaq bo’ldi. (85 000 so’mlik). Bu jamiyat Andijon shahrida 1916 yil oktyabr oyida boshlarida “Turkistanskiy golos” redaksiyasi rahbarligida sarcha matbuot organini nashr qilishga kirishmoqchi¹⁰⁰. Mazkur masalani uzil-kesil hal qilish uchun oktyabrda “G’ayrat” jamiyati a’zolarini shoshilinch majlis chaqirildi. Majlisda jamiyat ustaviga ba’zi o’zgarishlar kirish, pay kapitalini 12 500 so’mdan, 50 000 so’mga ko’paytirish, xususiy bosmaxona sotib olish va musulmon gazeta chiqarish masalalari muhokama qilindi. “Turkistanskaya golos” gazetasi redaksiyasi “G’ayrat” jamiyatiga o’zining xususiy nashr organini Andijonda emas, balki Qo’qonda “Turkistanskiy kray” gazetasi redaksiyasi rahbarligida chiqarishni taklif qildi. Agar “Gayrat” jamiyati bu gazeta paylarini ma’lum qismini oladigan bo’lsa, uning bosmaxonasidan foydalanishi mumkinligi ham aytilgan. Bu masala hal bo’lishi arafasida “G’ayrat” jamiyati hozircha “Turkistanskiy golos” gazetasining 25 000 so’mlik paylarini sotib oldi.

“Turkistanskiy golos” gazetasiga obuna yig’ish uchun Andijondan gazeta kotibi Nikolay Mixaylov Norinskiy (tahallusi Turkistanskiy, Samamatin) Qo’qonga jo’nab ketgan. U Namangan, Skobelevda ham bo’lib, “G’ayrat” jamiyati a’zolaridan tashqari boshqa ko’plab obunachilarni topgan.

Agentura ma’lumotlariga ko’ra, Qo’qonda 9-oktyabr kuni Obidjon Abduxoliq o’g’li Mahmudov uyida “G’ayrat” jamiyati a’zolarining xususiy 2-yig’ilishi bo’lib o’tdi. Unda Qo’qonda xususiy bosmaxona ochish sart tilida musulmoncha gazeta ciqarish masalasi muhokama qilingan. Boy sartlar bu tadbirga mablag’ berish haqida rozilik bildirishgan. Bu ishda 1914-yilda ilg’or yo’nalishdagi “Sadoyi Farg’ona” gazetasini nashr qilgan Obidjon Abduxoliq o’g’li Mahmudov salmoqli ta’sirga ega. U boy va mulkdor, tadbirkor kishi... Panislomizn g’oyalariga juda berilgan. U ko’p marta yig’inlarda turkiston o’lkasi ruslardan ozod bo’lishi kerakligi haqida gapirgan.

¹⁰⁰G’ofurov I. Milliy hayollar va fiboiy Turkiston // O’zbekiston adabiyoti va san’ati. 1998 yil 11 mart.

“Turkistanskiy golos” gazetasida 1916-1917 yillardagi muhim voqealar o‘z aksini topgan.

Obidjon Mahmudovning gazeta chiqaruvchilik sohasida yaqin yordamchisi Qo‘qonda yashovchi chatsniy poverenniy, iste‘fodagi gubernator kotibi Sarenbay Jumaqul Okayevdir.

Mustamlakachi ma‘murlar bunday shirkatlar faoliyatidan ehtiyot bo‘lishni va ularga ko‘z-quloq bo‘lib turishni “josus” larga topshirishdi.

“G‘ayrat” shirkati o‘z ishini davom ettirib, 1917-yil sentyabr oyidan boshlab “El bayrog‘i” gazetasini nashr eta boshladi. Qo‘qonda milliy burjuaziyaning fikr tarqatuvchisi bo‘lib chiqsa ham, Qo‘qonda muxtoriyat hukumati e‘lon qilingach, uning (muxtoriyat hukumatining) rasmiy nashr afkori bo‘lib chiqa boshladi. Shiori: “Yashasin Turkiston muxtoriyati!”, “Yashasin qo‘shma xalq jumhuriyati” edi. O‘zgacha qilib aytsak, “turk elining moddiy va ma‘naviy ehtiyojidan baxs etadi, muvaqqat hulumatning tadbir va siyosatlaridan yozadi”¹⁰¹.

Bu gazeta, Qo‘qon muxtoriyatining fikrini tashib, unga ko‘p xizmat qiladi, mehnatkashlarning ko‘zini ochdi, ko‘pchilikda bolsheviklarga nafrat tuyg‘usini tug‘dirishga urindi.

Fikrini, til va imlosini bilish uchun gazetani o‘zini tinglaylik: “Turk elining ichida yashagan turli din, muxtalif millatlar barchasi ham yaxshi nazarlarini bildirdilar, faqat birgina partiya, g‘oyat o‘z xalq – bolsheviklargina bu kungacha qarshi so‘zlab, qarshi yozdilar. Bulargina muxtoriyatni turli bahona birlan soya va qaro qilmoqqa harakat etdilar...Turkistonda paxta o‘rniga habobot (g‘alla) Sadoyi Farg‘onaur.”

“Alhamdulillah, biz buyuk Turkiston xalqi, shonli turk avlodi, bu sevikli vatanimizni muxtoriyatli deb e‘lon qildik. Aholisining 75 % sof turk irqidan iborat bo‘lgan bu buyuk qit‘a Russiyaning boshqa qit‘alari qatorida o‘ziga muxtoriyat oldi. Qorni och kishi taomga naqadar ruju qilsa, Turkistonning har bir rukunidagi aholi ham muxtori – shu darajada husni tavajjuh bilan qarshi oldilar.”

¹⁰¹Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917)- Akademiya. T.: 2000 yil

Bu gazeta jamiyatda katta o'rin tutdi, deb bo'lmaydi. Chunki bu gazeta faqat tor doiradagina tarqalar edi.

Gazetaning tutgan maqsadi – Turkiston musulmonlarini milliy hukumat, milliy davlat bayrog'i ostida to'plamoq va shu yo'lda tashviqot yurgizmoqdan iborat ekanini ochib bersa kerak. Bu gazeta o'zining 20 nomerlik umrini Qo'qon muxtoriyatining ideyasini tarqatishga sarf qilib, oxirida o'zi Qo'qon mehnatkashlarini yondirish uchun ochgan o'tida kuyib kul bo'ldi.

Muharrir Bo'lot Soliyev va Ashurali Zohiriy, yozuvchilari: Sardor, Abdulla Begiy, Nushiravon Yovushev, Abdulla Hayrulla o'g'li, Ubaydulloxon, O'g'izxon, Teshaboy, Ismoil Odiliy, Nosirjon, Xoji Hofiz Nurmuhammedov, Uyg'un, Shokirjon Rahimiy va boshqalar edi. Mix bosmada bosilar haftada 2 marotaba berilardi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida ma'rifatparvarlar tomonidan nashr etilgan noyob, durdona kitoblar Farg'ona vodiysi xalqlari hayoti, mamlakatning ho'jaligi, iqtisodiy munosabatlar, xalq harakatlari va siyosiy voqealarning ijtimoiy-iqtisodiy ildizlarini ochib bera olgan tarixchilarimiz o'lkani o'rganishda, solnomalar tuzishda, etnografik va toponimik materiallar to'plashda bu mahalliy matbalardan oqilona foydalanishlari mumkin. Matbaachilikka oid manbalar o'lka tarixini o'rganishda muhim hisoblanib, ularning muharrirlari bevosita o'sha davrda yashagan, ro'y berayotgan voqea va xodisalarni o'z ko'zlari bilan ko'rgan, shuningdek ularni oldingi davr voqealari bilan qiyoslagan. Bu manbaalar faqat Farg'ona vodiysi emas, balki o'lkadagi ijtimoiy - siyosiy jarayonlarni ochib berganligi ahamiyatlidir.

III bob. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Farg'ona vodiysi matbaachiligi tarixini O'zbekiston tarixi darslarida qo'llanilish jarayonlari.

III.1-§. Farg'ona vodiysi matbaachiligi mavzusini o'qitish jarayonida ta'lim samaradorligiga erishishda loyiha texnologiyasidan foydalanish.

Axborotlar almashinuvining globallasuvi, shuningdek, ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarida ro'y berayotgan ilmiy yangiliklarning son va sifat jihatidan keskin o'sib borishi o'z-o'zidan talabalarga ular borasida tezkor sur'atda va batafsil ma'lumotlar berishni kun tartibiga qo'ymoqda. Ushbu talabning ijobiy ravishda qondirilishi, eng avvalo, ilmiy-nazariy hamda amaliy bilimlarni o'zlashtirishning qulay, maqbul shakli bo'lgan ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonining maqsadga muvofiq, samarali tashkil etilishi o'quv manbalari (o'quv dasturi, rejasi, darslik, qo'llanmalar) saviyasi, shuningdek, pedagogning bilim darajasi va pedagogik mahoratiga bevosita bog'liqdir.

Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'quv dasturi mazmunining mukammalligi, darslik hamda qo'llanmalarning zamonaviy talablar asosida yaratilganligi, o'quv rejasi mohiyatining nazariy va amaliy hususiyatlariga ko'ra yagona maqsadga erishish uchun xizmat qilishi, mashg'ulotlarni samarali tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligi, o'qituvchi hamda talabalar o'rtasida ijobiy, samimiy munosabatlarning qaror topishi kabi masalalar inobatga olinadi.

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llashning yana bir omili - bu muayyan, yaxlit ta'limiy jarayonni oldindan loyihalash, talabalar tomonidan o'zlashtiriladigan nazariy va amaliy bilimlar, ko'nikma va malakalar darajasini tashxislash hamda ta'lim maqsadining muvaffaqiyatli natijalanishini avvaldan bashoratlay olishdan iboratdir. Ayni vaqtda pedagogik yo'nalishda faoliyat olib borayotgan ilmiy tadqiqot institutlari, xalq ta'limi muassasalari va oliy o'quv yurtlari oldida o'quv jarayonini loyihalashning eng maqbul, barcha turdagi o'quv muassasalarida shakli, metod va vositalaridan qat'iy nazar tashkil etiladigan ta'lim jarayoni uchun birdek xizmat qiluvchi andozani

yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu borada muayyan muvaffaqiyatlar ham qo‘lga kiritilgan, ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga biz pedagogik texnologiya va uning mohiyatini ochib beruvchi, chunonchi, B.P.Bespalko, M.V.Klarin, V.Slastenin, M.O.Ochilov, N.Saidaxmedov, K.Zaripov va boshqalar tomonidan yaratilgan adabiyotlar orqali xabardor bo‘lishimiz mumkin. Quyida biz yuqorida nomlari keltirilgan pedagog olimlarning nazariy qarashlariga tayangan holda ta‘lim jarayonini loyihalash borasidagi shaxsiy mulohazalarimizni bayon etmoqchimiz.

Muayyan o‘quv mashg‘uloti jarayonining loyihasini ishlab chiqish quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

1-bosqich. Ta‘lim jarayonini loyihalashning dastlabki bosqichi o‘quv predmetining mundarijasidan joy olgan mavzu yoki faoliyat mazmuniga doir manbalarni o‘rganish, chunonchi, materiallarni yig‘ish va ularning g‘oyasi (mohiyati) bilan tanishib chiqish, ularda ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish, turkumlashtirish hamda yaxlitlashdan iborat.

O‘quv predmetining mavzusi yoki faoliyat mazmuniga doir manbalar mohiyatini o‘rganib chiqish o‘qituvchi uchun talabalar e‘tiboriga taqdim etilayotgan mavzu (faoliyat mazmuni) xususida ularga batafsil, mukammal ma‘lumotlarni bera olish, ta‘limning umumiy jarayonini tasavvur etish imkonini beradi.

2-bosqich. Ikkinchi bosqich o‘quv predmetining mavzusi (faoliyat mazmuni) yuzasidan yagona, umumiy maqsadni aniq belgilash, umumiy maqsad doirasida kichik bo‘lim (band)lar bo‘yicha hal etiluvchi xususiy maqsadlarni ham belgilash, ta‘lim maqsadiga erishish yo‘lida ijobiy hal etib borilishi lozim bo‘lgan vazifalarni ishlab chiqishga yo‘naltiriladi.

Ta‘lim maqsadi va vazifalarining aniq, puxta belgilab olinishi o‘qituvchi, shuningdek, talabalar faoliyatini muayyan yo‘nalishga solish, ta‘lim maqsadiga erishishda vaqtdan unumli foydalanish, ta‘lim jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan didaktik va tarbiyaviy muammolarning oldini olish, mavjud shart-sharoitlardan oqilona foydalanishga zamin hozirlaydi. Ikkinchi bosqich natijasi

o'quv predmeti (faoliyat mazmuni)ning mavzusi bo'yicha yagona, umumiy hamda xususiy maqsadlar, shuningdek, vazifalarni qayd etish bilan tavsiflanadi.

3-bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashning uchinchi bosqichi ta'lim maqsadi va vazifatariga tayanilgan holda, o'quv jarayonining mazmunini ishlab chiqishdan iboratdir.

Ta'lim jarayoni o'quv materiali mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayyan mavzu (faoliyat mazmuni) bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini ifoda etish imkonini beradi. Ta'lim mazmunida, shuningdek, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, ko'nikma hamda malakalarning xajmi ham o'z ifodasini topa olishi lozim. Zero, ta'lim mazmunining g'oyaviy jihatdan mukammalligi talabalar tomonidan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish darajasi bilan belgilanadi. Uchinchi bosqich samarasi talabalar tomonidan ma'lum tushunchalarning o'zlashtirilishi, ko'nikma va malakalarning shakllanishini ta'minlovchi shartlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi.

4-bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashning eng muhim bosqichi sanalgan to'rtinchi bosqichda mashg'ulotning shakli, metod va vositalarini tanlash kabi harakatlar amalga oshiriladi.

Mazkur bosqichning muhimligi shundaki, aynan mashg'ulot shakli, metod va vositalari ta'lim jarayonining muvaffaqiyati ta'minlanishiga olib keladi. Ular yordami bilangina o'quv predmetining mavzusi (faoliyat mazmuni) borasidagi nazariy bilimlar talabalarga uzatiladi, talabalar tomonidan esa ushbu bilimlar qabul qilib olinadi. Muayyan mashg'ulot uchun eng maqbul deb topilgan shakl, metod va vositalarning belgilanishi ta'lim jarayonining qariyb 90 foizlik muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati aynan mana shu bosqichda ochib beriladi. Talabalarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi mashg'ulotlarning qiziqarli, bahs-munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki beradi. Mana shu holatdagina talabalar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, O'qituvchining zimmasida esa ularning

faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, umumiy faoliyatni nazorat qilish, murakkab vaziyatlarda yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahatlar berish hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi.

5-bosqich. Navbatdagi (beshinchi) bosqichda talabalar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi uchun yetarli deya belgilangan vaqt xajmi, ya'ni, muayyan mavzu (faoliyat mazmuni) yuzasidan ma'lum tushuncha, ko'nikma va malakalarning talabalar tomonidan qancha vaqt oralig'ida o'zlashtirilishi mumkinligi aniqlanadi.

6-bosqich. Oltinchi bosqichda mashq (topshiriq)lar tizimi ishlab chiqiladi. Bosqich natijasi sifatida ishlab chiqilgan mashq (topshiriq)lar tizimining samaradorligiga alohida ahamiyat berish talabi mazkur bosqichning asosiy sharti hisoblanadi.

Mazkur bosqichda ishlab chiqilgan mashqlar tizimini quyidagi guruhlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

a) mashg'ulot jarayonida talabalar tomonidan yechilishi (hal etilishi) lozim bo'lgan mashqlar;

b) darsdan tashqari sharoitlarda bajarilishi ko'zda tutilgan mashqlar (uy vazifalari).

Talabalar e'tiboriga havola etilayotgan mashqlar bir-birini to'ldirishi, o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik va eng muhimi evolyutsion xususiyat kasb eta olishi lozim.

7-bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashtirishning yettinchi bosqichida talabalarning umumiy faoliyatlarini nazorat qilish va test tizimini ishlab chiqish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri bo'lgan test tizimining ishlab chiqilishi talabalarning mavzu (faoliyat mazmuni) yuzasidan muayyan tushunchalarni o'zlashtirish, shuningdek, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantira olganlik darajalarini to'g'ri va xolis aniqlay olish imkonini beradi. Test tizimini ishlab chiqishda testlarning izchil, uzviy hamda bir-biri bilan uyg'un bo'lishlariga ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.

8-bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashning so'nggi bosqichi yaratilgan loyiha (andoza)ning ta'lim jarayoniga tadbiq etilishi, ta'lim jarayonining yakuniy darajasi (samaradorligi)ni o'rganish bilan nihoyalaniadi.

Mazkur bosqichda ta'lim jarayonining umumiy ahvoli, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularning yuzaga kelish sabablari tahlil etiladi, navbatdagi mashg'ulotlar jarayonida sodir bo'lgan kamchiliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanadi.

Bildirilgan fikrlardan anglanganidek, har bir bosqichda amalga oshirilayotgan vazifalar o'rtasida muayyan izchillik mavjud bo'lib, u ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonini loyihalashda har bir holatning puxta bajarilishiga erishish amaliy faoliyat (o'quv jarayoni)ning muvaffaqiyatini ta'minlashga olib keladi.

Uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishdan iboratligi ta'kidlab o'tildi. Ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlashda quyidagi shartlarning bajarilishi muhim ahamiyatga ega:

1) o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ta'lim amaliyotida faol qo'llanilishi;

2) rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo'lish;

Ta'lim jarayonini loyihalashtirish pedagogik faoliyatning muhim ko'rinishlaridan biri bo'lib, u quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- loyihani yaratish;
- talabalar faoliyatini tashxislash;
- pedagogik jarayonni tashkil etish;
- pedagogik jarayonning samarali kechishini ta'minlash;
- talabalar faoliyatini nazorat qilishni o'z ichiga oladi;

Pedagogik vazifaning hal etilishiga o'qituvchi va talaba faoliyatlarining mazmuni, vositalarini loyihalash orqali erishadi. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish uni loyihalashga nisbatan yangicha yondashuv, ya'ni, ta'lim jarayonini texnologik strukturasiga muvofik yoritish zaruratini taqozo etadi.

O'qituvchi kasbiy faoliyatini tashkil etishda ta'lim jarayonini loyihalash alohida ahamiyatga ega. Har bir o'quv kursini o'rganish alohida mavzu va bo'limlarni loyihalash asosida amalga oshiriladi.

O'quv fani: "O'zbekiston tarixi".

O'quv mavzusi: "Farg'ona vodiysi matbaachiligi".

Ishtirokchilar: oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan 1-kurs talabalari.

Ta'limiy maqsad: o'quv materialini bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish, oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan yoshlarni ma'naviy meros, milliy va diniy qadriyatlar asosida tarbiyalash bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish.

Rejalashtirilayotgan o'quv natijalar: Farg'ona vodiysi matbaachiligining tariximizdagi ahamiyatini belgilaydilar; Farg'ona matbaachiligining xususiyatlarini ajratadilar; vodiylar matbaachiligining o'ziga xos jihatlari aniq qayd qilinadi;

Quyidagi loyiha faoliyati malakalariga: muammo, maqsadni belgilashni shakllantirish va vazifalarni ifodalash, ularga erishish yo'llari va vositalarini asosli tanlash, o'z faoliyatini rejalashtirish; o'zini-o'zi tahlil qilish va o'z ishini boshqalarga nisbatan baholash; ma'lumotlarni kontekstli (parchaviy) izlashni o'tkazish, uni bir tuzilmaga keltirish va tahlil qilish, asosiy ajratib ko'rsatish, ma'lumotnomali axborot va hisobot shaklda taqdim etish; taqdimot qilish va muloqot malakalariga egalar.

Tayanch bilim va ko'nikmalar. Loyihani muvaffaqiyatli bajarish uchun talabalar quyidagilarni bilishi va uddalashi lozim: milliy marosimlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati va ularning xususiyatlari, ma'lumotlarni qayta ishlash, maqsadni belgilash va hamkorlikda ishlash.

Namunaviy belgilariga muvofiq loyiha tasnifi:

- ☐ *loyiha turi:* axborotli;
- ☐ *mavzu-mazmunli sohasi:* fanlararo;
- ☐ *talabalarning loyiha faoliyati yo'nalishlarining tasnifi:* loyiha ishtirokchisiga o'xshatishli, yashirin (bevosita);
- ☐ *ishtirokchilar soni:* guruh talabalari;
- ☐ *muddati:* bajarish davomiyligi.

Loyiha bo'yicha ish tartibi: dars sharoitida bajariladi. Seminar mashg'ulotlarida ham taqdimot qilinadi.

O'qitish modelining qisqa tasnifi: loyihali o'qitish jarayonida quyidagilardan foydalaniladi:

O'qitish usullari: loyihalar usuli, aqliy hujum, yo'riqnoma berish, matn bilan ishlash.

O'qitish shakllari: umumiy, guruhli, jamoaviy, yakka tartibli.

O'qitish usullari: loyiha topshirig'i, uslubiy ko'rsatma, komp'yuter texnologiyalari.

Ishtirokchilar loyiha bo'yicha birinchi marta ishlayotganliklari hamda loyiha faoliyati bo'yicha malakalarga ega emasliklari bois, "Uslubiy ko'rsatmalar" da quyidagilar taqdim etiladi: muammo, vazifa va faoliyat turlari.

Loyiha doirasida yechimini topish talab etiladigan, muammo: "Farg'ona vodiysi matbaachiligini o'qitishda noan'anaviy usullardan foydalanish" bo'yicha axborotli ma'lumotnomani tayyorlash.

Loyiha taqdimoti

Og'zaki taqdimot qoidasi:

- ☐ Taqdimot o'zini taqdim etish bilan boshlanadi, ya'ni loyiha ijrochilari bilan tanishtirish: "Men....".
- ☐ So'zga chiquvchilar belgilangan vaqtga rioya etadilar. Taqdimotni umumiy davomiyligi: 7-10 daqiqadan kam emas va 15 daqiqadan ko'p emas.

•□ Taqdimot vaqtida belgilangan tartibdan chiqish holatlariga yo'l qo'yilmaydi.

Loyihani MS Power Point da taqdimotga tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma

1. Taqdimot quyidagi **tavsiflardan** iborat bo'lishi zarur:

1.1. Slaydlar *miqdori* (18-22).

1.2. *Slaydlarni mazmunli ko'rsatkichlari*:

(1) birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, №... o'quv guruhi, yaratilgan kundan iborat;

(2) oxirgi slayd axborot manbasiga bag'ishlangan;

(3) boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.

2. Texnik namoyish etish:

Slaydlar o'z-o'zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi.

Loyiha texnologiyasining sharti – guruhni mavzu paragraflar bo'yicha guruhlariga ajratish, bunda tanlab olingan voqea va xodisalarning izchillik va ketma-ketligi, guruh vakillari ham o'zlari namoyish etayotganlarida shu ketma-ketlikka amal qilishi lozim. Ularga material bilan ishlash uchun beriladigan vaqt material hajmi va ta'lim muassasasi turiga qarab belgilanadi. Shuningdek, beriladigan vazifalar soni ham materialning bandlari bilan bog'liqdir. Masalan:

Mavzu: Farg'ona vodiysi matbaachiligi.

1.bosqichda – guruhlariga vazifa beriladi. Guruh vakillari materialni olib, u bilan tanishadilar, to'ldiradilar (10 min.).

2.bosqichda – guruh vakillari voqea va xodisalar ketma-ketligi qarab himoya etadilar (10 min.). O'qituvchi har bir guruh namoyishini izohlashi zarur.

3-bosqichda – guruhlariga o'qituvchi tomonidan qo'shimcha manbalar, adabiyotlar ham beriladiki, ulardan o'zlari tayyorlagan materialga oidlarini ajratib oladilar va yangi jumlalar ustida ishlaydilar (10 min.).

1- guruh – Farg'ona vodiysi matbaachiligi xususiyatlari. O'zbekistonda vodiyy matbaachiligining o'rganilishi.

2-guruh – Matbaachilik nomoyondalari.

3-guruh – Ular nashr qilgan kitoblar.

Loyiha texnologiyasidan uy vazifasini baholashda, yangi mavzuni tushuntirishda, mavzuni mustahkamlashda, umumiy takrorlash, umumlashtirish darslarida foydalanish mumkin.

Loyiha texnologiyasini murakkablashtirish ham mumkin: O'qituvchi yangi mavzuni o'tishda mavzuning asosiy qismiga oid ma'lumotlarni tushuntirish, so'ngra mavzuga oid qiziqarli, qo'shimcha adabiyotlar (yozma manbalar, hujjatlar, ilmiy va ommabop, badiiy adabiyot)dan mavzuga oid nusxalarini tarqatma material sifatida tarqatib, mavzu matnini boyitishi mumkin.

Loyiha mazmuni:

I. "Farg'ona vodiysi matbaachiligi".

➤ □ Farg'ona vodiysi matbaachiligi, uning O'zbekiston tarixini yoritishdagi ahamiyati.

➤ □ Farg'ona vodiysi matbaachiligi va uning o'rganilishi tarixi.

Ish turlari:

• □ Mavzu, muammoning dolzarbligini asoslash, loyiha maqsadi va vazifalarini ifodalash.

• □ Axborot manbasini tanlash, uni yig'ish, tuzilmaga keltirish, matn, jadval, chizma hamda sharhlash ko'rinishida rasmiylashtirish, xulosalarni yozish, (vazifalar bo'yicha) foydalanilgan manbalar ro'yhatini tuzish.

• □ Loyihani rasmiylashtirish.

• □ Hisobotni tayyorlash.

• □ Loyihani taqdimotga tayyorlash.

Loyihani taqdim etish shakli: taqdimot, aqliy hujum

LOYIHA USULIGA ASOSLANGAN O'QITISHNING TEKNOLOGIK XARITASI

O'qitish turi. Ish bosqichlari. Belgilangan vaqt	Faoliyat	
	O'qituvchi	Talaba
<i>Seminar №</i>		
1. Tayyorgarlik bosqichi. 1.1. O'quv motivatsiyasi. Loyiha mavzusini tanlash 1.2. Loyihada vazifa va ish turlarini ajratish	Talabalarni loyiha faoliyati mohiyati va uni bo'lg'usi mutaxassislik mahoratiga ta'siri bilan tanishtiradi. Talabalarni loyiha ishiga bo'lgan motivatsiyalarini uyg'otish maqsadida savol – javob o'tkazadi (ilova). Mavzularni taklif etadi, loyiha mazmuni to'g'risida ma'lumotlar beradi, ularni sohalarini ifodalaydi, ish turlarini ko'rsatadi, ularning natijalarini	Guruhlarga birlashadilar. Muhokama qiladilar va mavzu bo'yicha umumiy xulosalarga keladilar.

	aytadi. 3 kishidan iborat bo'lgan guruhlarga birlashishlarini va loyiha mavzusini tanlashni taklif etadi.	
	Axborot manbasini, uni yig'ish va tahlil qilish yo'llarini taklif etadi.	Muhokama qiladilar.

2. Loyiha faoliyatini rejalashtirish.	Vazifa va ish turlarini ishtirokchilar o'rtasida taqsimlab olishlarini taklif etadi. Muhokamada maslahatchi bo'lib faol ishtirok etadi.	Harakat rejasini ishlab chiqadilar: loyihani yo'nalishini va bajarish bosqichlarini aniqlaydilar, guruh a'zolari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydilar, hamkorlikni shakllarini aniqlaydilar.	
Auditoriyadan tashqari ish			
3. Loyihani bajarish	Guruh ishlariga maslahat beradi, boshqaradi, ular faoliyatini rag'batlantiradi, kuzatadi, axborot manbasini izlashga yordam beradi. Faoliyatga qisman rahbarlik qiladi.	Ishtirokchilar o'zlarining vazifalariga muvofiq ishlarni bajaradilar.	
4. Natijalarni rasmiylashtirish	Guruh ishlariga maslahat beradi, boshqaradi, ular faoliyatini rag'batlantiradi, kuzatadi.	Natijalarni belgilangan shaklda rasmiylashtiradilar. Loyiha taqdimotiga tayyorlanadilar.	

Xulosa qilib aytganda, biz foydalangan o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalardan hozirgi kunda zamonaviy tarix o'qituvchisi umumta'lim maktablarida, akademik litsey kasb hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida ushbu metodlardan foydalana olsa maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi. Hozirgi o'qitishning bunday texnologiyalari zamon talabi ekanligini e'tiborga olishimiz zarur. Zamonaviy o'qitish usuli bo'yicha bob yuzasidan ba'zi bir tavsiyalar berildi.

III.2-§. Farg'ona vodiysi matbaachiligi mavzusi bo'yicha 2 soatlik dars ishlanmasi

Mavzu	Farg'ona vodiysi matbaachiligi
--------------	---------------------------------------

Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni 70 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejas	1.Farg'ona vodiysi matbaachiligining o'rganilishi va uning xususiyatlari. 2. Farg'ona matbaachiligi. 3. Vodiy matbaachiligining rivojlanish bosqichlari.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Farg'ona vodiysi matbaachiligining o'rganilishi, matbuot materiallari, Qo'qon matbaachiligi haqida ilmiy tasavvurni hosil qilish.

<i>Pedagogik vazifalar:</i> O'qituvchi: Farg'ona vodiysi matbaachiligining o'rganilishi va uning xususiyatlarini -yoritish; -Farg'ona vodiysi matbaachiligiga oid ma'lumotlarni ilmiy asoslash; - Farg'ona vodiysi matbaachiligi va uning bosqichlari mazmun-moxiyatini tushuntirish;	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba:Farg'ona vodiysi matbaachiligining o'rganilishi va uning xususiyatlari - haqida ilmiy xulosalar oladi; - Farg'ona vodiysi matbaachiligi yuzasidan ma'lumotga ega bo'ladi; - Farg'ona vodiysi matbaachiligi va uning bosqichlari haqida bilimlarni shakllantiradi va rivojlantiradi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Vizual ma'ruza, blits-so'rov, insert metodi, bayon qilish, muammo texnologiyasi, klaster, "ha-yo'q" texnikasi
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, proektor, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoitlari	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Kirish (10 min.)	1.1.Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan ko'tilayotgan natijalar ma'lum qilinadi	1.1.Eshitadi, yozib oladi
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1.Talabalarning e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javoblar o'tkazadi. 2.3.Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qaratishni va yozib olishni ta'kidlaydi. 1.Milliy matbuot deganda nimani tushunasiz 2.Farg'ona vodiysi matbaachiligiga oid qaysi yodgorliklarni bilasiz. 3.Farg'ona vodiysi matbaachiligida qanday o'zgarishlar yuz berdi. 4.Farg'ona vodiysi matbaachiligini kimlar o'rgangan. 5.Farg'ona vodiysi matbaachiligining rivojlanish evolyutsiyasini belgilang.	2.1.Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarga izoh beradi. O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2.Sxema va jadvallar bilan tanishib, ularning mazmunini muhokama qiladi.

		2.3.Eslab qoladi. Tarixiy faktlar va ta'riflarni yozib oladi.
3-bosqich Yakuniy (10 min.)	3.1.Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalaga qaratadi. 3.2.Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiriladi va baholaydi. Vazifa beriladi.	3.1.Eshitadi, o'z fikrlariga aniqlik kiritadi. 3.2.Topshiriqni yozib oladi.

Xulosa

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Farg'ona vodiysi matbaachiligi tarixi xolisona o'rganildi. Shuningdek, Farg'ona vodiysi matbaachiligini yoritilishiga oid ma'lumotlar tahlil qilinib, manbalarni zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilishi va mustaqillik davrida talqin etilishi, hamda bugungi O'zbekiston tariximizni o'rganishdagi ahamiyati va manbalardan ta'lim jarayonida qo'shimcha manba sifatida foydalanish usullari tahlil va xulosalar asosida ochib berildi. Mustaqilik yillarida o'rganilgan mahalliy matbaalar, ilmiy asarlar va amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar o'zining nazariy va metodologik jihatlari bilan avvalgi tadqiqotlardan farqlanadi va mazmun jihatdan ob'yektiv ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ma'rifatparvarlar tomonidan yaratilgan matbaachilik mahsulotlari manbashunoslik, tarixshunoslik metodologiyasini rivojlantirishda muhim manbalardan bo'lib, milliy tarixchilik sohasini rivojlanishiga qo'shilgan ulkan hissa bo'ldi,- desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Mazkur tadqiqotda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Farg'ona vodiysi matbaachiligi tarixi va bugungi kungacha bo'lgan davr oralig'ida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, nashr etilgan gazeta va jurnallar hamda e'lon qilingan ilmiy maqolalarning tahlilini amalga oshirish orqali o'rganib chiqilishi natijasida quyidagi xulosalar yuzaga keldi:

Birinchidan, tadqiqotda XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti va uning matbaachilikka ta'siri asosida mana shu davrda chiqqan mahalliy va rasmiy matbaalar misolida va ilmiy tadqiqotlar asosida umumiy tavsifi keltirib o'tildi.

Ikkinchidan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo mintaqasining Rossiya mustamlakachiligi tarkibiga kiritilishi hayotning barcha sohalarida bo'lganidek, o'lkada nashr qilingan matbaa nashrlari faoliyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi deb aytsak bo'ladi. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida ma'rifatparvarlar tomonidan nashr etilgan noyob asarlar va kitoblar Farg'ona

vodiysi xalqlari hayoti, mamlakatning ho`jaligi, iqtisodiy munosabatlar, xalq harakatlari va siyosiy voqealarning ijtimoiy-iqtisodiy ildizlarini ochib bera olgan tarixchilarimiz o`lkani o`rganishda, solnomalar tuzishda, etnografik va toponimik materiallar to`plashda bu mahalliy matbalardan oqilona foydalanishlari mumkin.

Uchinchidan, mustaqillik yillarida Farg`ona vodiysi mahalliy matbaalarini o`rganilishi va vodiylar tarixshunosligining rivojlanishi masalalarining tadqiq etilishi, bu matbaalarning O`zbekiston tarixini o`rganishdagi ahamiyati ilmiy tadqiqot ishida ko`zlangan eng asosiy vazifalardan biri sifatida belgilanib olindi. Bunda tadqiqot jarayonida vodiylar tarixshunosligining eng muhim jihatlari tahlil etish, mustaqillik yillarida chop etilgan ilmiy adabiyotlar, to`plamlar, ilmiy tadqiqot ishlari va ularning natijalari, xulosalarining tahlilini amalga oshirish natijasida quyidagilarni ko`rsatib o`tish mumkin.

To`rtinchidan, mahalliy-xususiy matbaalarda chop etilgan kitoblar, gazetalardan foydalanib ta`lim jarayonida qo`shimcha adabiyot sifatida foydalanish uchun tavsiyalar berildi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamon talabidir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o`quvchilarda matn bilan mustaqil ishlashni, o`z fikrini ravon bayon qila olishni, shu mavzu asosida qo`shimcha materiallar topish, ularni o`rganishni, o`z fikri va guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakalarini shakllantiradi. Mahalliy matbalardan qo`shimcha adabiyot sifatida foydalanish uchun berilgan tavsiyalar, tarixiy asarlarning yanada kengroq va chuqurroq tahlilini tadqiqot ob`yekti sifatida o`rganilishini, vodiylar tarixi bo`yicha ma`lumotlarni yanada mukammallashtirishi mumkin.

Tadqiqot natijasidan kelib chiqib, shuni qayd etish lozimki, Turkistonda matbaachilikning paydo bo`lishi va uning taraqqiyoti o`lka xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida muhim tarixiy voqea bo`ldi. Ayniqsa, jadidlar asos solgan o`zbek milliy matbaachiligi o`z yo`lidagi g`ovlarga qaramay, milliy ong, milliy til, milliy adabiyot va matbuotni shakllantirishga barakali ta`sir ko`rsata

oldi. Yurtimizda qaror topgan mustaqillik tufayli biz endilikda tarixiy merosimizni haqqoniy o`rganish va baholash imkoniga erishdik.

Tadqiqot natijalari va tahliliga ko`ra, biz quyidagi xulosalarga keldik:

- Turkiston matbaa tarixining alohida xususiyati shundaki, bu hududda matbuot Yevropa va Osiyodagi boshqa mamlakatlardagiga nisbatan ancha kech tashkil topdi va tarqqiy qildi;
- Turkistondagi rasmiy matbaalar rus hukumatining Turkiston ma`muriyati mablag`i hisobidan nashr qilinib, ularning o`lkada mustamlakachilik siyosatini o`tkazish vositasi bo`lib xizmat qildi;
- XIX asrning so`ngi o`n yilligida Turkistonda matbaa sohasida ro`y bergan yana bir yangilik xususiy matbaachilikka asos solinishi bo`ldi;
- O`zbek milliy matbaachiligi tarixida mahalliy-xususiy matbaachilar alohida o`rinni egallaydi. Ammo, bu matbaalar faoliyati mashaqqatli kechdi. Bunday milliy nashrlar aksariy hollarda moliyaviy qiyinchiliklar tufayli o`z faoliyatini to`xtatgan;
- Mazkur davrdagi matbaa nashrlari o`zbek xalqining madaniy-ma`rifiy ong darajasini o`stirishga xizmatlari beqiyos bo`lgan;

Xulosa o`rnida yana shuni aytib o`tish joizki, hozirgacha O`zbek matbaachiligi tarixiga oid bir qancha kitoblar, manografiyalar va tadqiqotlar yaratilgan. Biroq, ularning aksariyati sho`ro mafkurasi asosida dunyoga kelgan va bugungi kunda g`oyaviy jihatdan milliy-ma`naviy qiymatini yo`qotgan. Shu nuqtayi nazardan Turkiston milliy matbuoti tarixini yoritishda tadqiqotchilar tomonidan tarixiy-qiyosiy usullardan foydalanilgan holda, haqqoniylik, xolislik prinsplariga amal qilinsa maqsadga muvofiq bo`lar edi. Bizningcha, mazkur masala kelgusida o`z tadqiqotchilarini kutib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

- 1.1.Karimov I.A Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – T.: O'zbekiston 1996 yil.
- 1.2.Karimov I.A yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5- jild. O'zbekiston 1997 yil.
- 1.3.Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. – T.: Sharq. 1998.
- 1.4.Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. – T.: Sharq. 1998.
- 1.5.Karimov. I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T. "Ma'naviyat", 2013.
- 1.6.Karimov. I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T. "Ma'naviyat ", 2013.
- 1.7.Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. "Turkiston" gazetasi muxbirining bergan savollariga javoblar "Turkiston" gazetasi. 1999-yil 2-fevral.
- 1.8.Karimov I.A. Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. T. O'zbekiston, 1999.
- 1.9.Karimov I.A. Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. T. O'zbekiston, 1999.
- 1.10. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. "Turkiston" gazetasi muxbirining bergan savollariga javoblar "Turkiston" gazetasi. 1999-yil 2-fevral.
- 1.11. Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T.: O'zbekiston, 1998. 3b
- 1.12. Karimov I.A Bizdan ozod va obod vatan qolsin. // Xalq so`zi. 1993. 7 sentyabr
- 1.13. Mirziyoyev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T."O'zbekiston", 2017.

1.14. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., “O‘zbekiston”. 2017,

Umumiy adabiyotlar

2.1.O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.,”Davlat ilmiy nashriyoti”, 1999 yil.

2.2.O‘zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob.T., “Sharq”, 2000.

2.3.Is‘hoqxon Ibrat. “San‘ati Ibrat qalami Mirrajab Bandiy Mufradot”.N., ”Matbaai Is‘hoqiya”. 1908, So‘ngso‘z.

2.4.Is‘hoqxon Ibrat. “Jome‘ ul – xutut”. N., “Matbaai Is‘hoqiya”, 1912

2.5.Bartold V.V. Kultura musulmanstva. Soch. T., 6. M.: 1966.

2.6.Ersoy O. Turkiyene matbaaynin girisi ve ilk bosilan eserler. Ankara, 1959.

2.7.Samoylovich A.N. Xivinskie pridvorni’e knigoxranilixa i knigopechatnya. 50-varaq.”Izvestiya AN Turkmenskoy SSR Seriya obxes. Nauk”. 1981, №1,

2.8.Zimin L. Bibliografiya G’ G’ Srednyaya Aziya. Yejemesyachnoe literaturno-istoricheskoe izdanie. T., Kn. II. 1911

2.9.Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li va Muhammad Yusuf devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. X., “Narkompros nashriyoti”, 1925.

2.10.Shams H. Matbaachilik ham uning qisqacha tarixi. Toshkent-Samarqand, “O‘zdavnashr”, 1936.

2.11.Simonov N.F. Turkistonda bolshevistik matbuot(1902–1907 yy). T., “O‘zFan nashriyoti”, 1941.

2.12.Chabrov G.N. Iz istorii poligrafii i izdatelstva literaturi na mestnix yazikax v do revolyutsionnom Turkestane (1868-1917). - V kn.: Istoriya nauki. Kn. 7. Tashkent, 1954, s. 82 G' Trudo' SAGU. Novaya seriya. Vo'p. 57.2.23.Saidov. S. Ma`rifat libosidagi ozodlik. – T.: O`zbekiston. 1997.

2.13.Ernazarov T., Akbarov A . Turkistonda vaqtli matbuot. T., “O‘zDavnashr”, 1959.

2.14.Jalolov T. O‘zbek shoirlari. 2-nashr. T., “Adabiyot va san‘at”, 1980, Ziyaev X. Bukxaryu- dvesti let. Pravda Vostoka. 1984,31 iyulya.

- 2.15. Yazberdiev A. Turkmenskaya kniga na arabskoy grafike. Ashxabad, O'lo'm, 1981.
- 2.16. Abduazizova. N Sahifalarda o'lka hayoti. // O'zbekiston matbuoti. 1996 yil 4 son.
- 2.17. Boltaboyev X Cho'lpon. // jamiyat va boshqaruv. 1998 yil 2-son.
- 2.18. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – T.: O'zbekiston 1998.
- 2.19. Tojiboyev R. Toshxo'jayeva Sh. Obidjon Mahmudov – Turkiston jadidchilik harakatining yirik vakili. – T.: Akademiya, 2000y.
- 2.20. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917). // tuzuvchi N. Abduazizova. – T.: Akademiya. 2000 yil.
- 2.21. G'ofurov I. Milliy hayollar va “Sadoyi Turkiston”. // O'zbekistonn adabiyoti va san`ati. 1998. 11-mart.
- 2.22. Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi: (Turkiston chorizm mustamlakachiligi davrida) 1-kitob. – T.: Sharq. 2011.
- 2.23. Tog'ayev T. Cho'lponning nomalum asarlari: Turkistonda matbuot. // Jamiyat va boshqaruv. 1998 yil. 2-son.
- 2.24. Uzoqov H. Er kishi bitta gapiradi. – T.: 1996-yil.
- 2.25. Do'stqorayev B. Tomirlarning qoni, jonlarning jononi – Vatan yohud jadidlar mafkurasiga chiziqlar. // O'zbekiston adabiyoti va san`ati. 1998 yil 4-sentyabr.
- 2.25. Avloniy A. “Milliy uyg'onish” – bugungi o'zbek matbuoti tarixi. T.: Tosh.D.U nashriyoti. 1999.
- 2.26. Tojiboyev R. Ma'rifatparvar muallim. // Sovet maktabi. 1998yil. 3-son.
- 2.27. Uzoqov H. Ashurali Zohiriy. – T.: Cho'lpon, 1996- yil.
- 2.28. Abduazizova N. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. (1870-2000). – Akademiya. 1999 yil.
- 2.29. Pidayev T.R. – O'zbekiston matbuotining o'tmishi va kechmishi. // o'zbekiston matbuoti. 1996 yil. 5-yanvar.

2.30.Mustafo Cho`qay. Istiqlol jadidlari. – T.: Fan. 1999 yil. 23-bet. (1917-yil voqealari).

2.31.Turkiston Muhtoriyati – jadidlar milliy-demokratik g`oyalarning amaldagi ifodasi // turkiston Muxtoriyati. – T.: Ma`naviyat. 2000.

2.32.Komilov N. Tafakkur karvonlari. – T.: Ma`naviyat. 1999yil.

2.33.A`zamxo`jayev S. Turkiston Muxtoriyati. // Milliy demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. – T.: Ma`naviyat. 2000 yil.

2.34.Orifjonov E. K. Chor Rossiyasining O`rta Osiyodagi mustamlakachilik siyosati va uning oqibatlari. – T.: 1995 yil.

2.35.Abduazizova N. O`zbekiston jurnalistikasining shakllanishi va ravnaqi. – T.: Akademiya. 1998-yil.

2.36.Azamxo`jayev S. Turkiston Muxtoriyati. – T.: Ma`naviyat. 2000.

2.37.Abduazizova N.A., Qayumov A. Turkiston matbuoti tarixi tarixchilar nazdida. T., “Jamiyat va boshqaruv”. 2004. №4.

2.38.Rahmonov K. Buxoro Respublikasining matbuot organi. T., “Jamiyat va boshqaruv”, 2004. №2.

2.39.Rasulov A. Turkiston madaniy hayotida tatarlar. T., “Ijtimoiy fikr, inson huquqlari”, 2004. №1.

2.40.Shodmonova S.1917 yilda Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning davriy matbuotdagi monitoringi. T., “Ijtimoiy fikr, inson huquqlari”, 2006. №1.

2.41.Abduazizova N.A. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917-yy). T., “Akademiya”, 2000. 238- bet, Milliy jurnalistika tarixi(Genezis va evolyutsiya). 1-jild, T., “Sharq”, 2008.

2.42.Esenboyev Z. Matbuotga baxshida umr. T., “G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti”, 2001.

2.43.Yazberdiev A. K voprosu o nachalnom periode knigoizdatelskoy deyatelnosti Xivinskoy litografii (1874 - 1880) G` G` Izvestiya AN Turkmenskoy SSR. Seriya obshestvenno`x nauk. 1971, №4 .

2.44.Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. T., “Tafakkur bo`stoni”, 2011.

2.45.Validiy Z. Xotiralar. // Sharq Yulduzi. 1993. 7-8-son.

2.46.Qo`qon asrlar silsilasida. // Respublika ilmiy-nazariy konfrensiyasi. – Qo`qon.

2.47.Xolmatov R.N Farg`ona noshirlari va nashirlari. – T.: O`zbekiston. 1986 yil.

2.48.Qosimova S. Behbudiy va jadidchilik. // O`zbekiston adabiyoti va san`ati. 1990. 19-yanvar.

2.49.Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukumronligiga qarshi kurash. – T.: Sharq. 1998.

2.50. Khalid, Adeeb. The Politics... – P.123

2.51. Obidov M, Farg`ona jurnalistikasi, T., “Sharq”, 2009 y.

2.52.Мохначева М. П. Журналистика и историческая наука. В 2 кн. Кн. 2: Журналистика и историографическая традиция в России 30 - 70- х гг. XIX в. – М. РГГУ. 1999.

Gazeta va jurnallar

3.1. Turkiston viloyatining gazetasi, 1870 yil

3.3.Turkistankiy vedmosti,.1870 yil

3.3.Russkiy Turkestan; .1898 yil

3.4.Sadoyi Farg`ona”. 1914 yil

3.5.Yurt jurnali 1917 yil

3.6. Hurriyat jurnali 1917 yil.

3.7.Kengash jurnali 1917 yil

3.8.Inqilob quyoshi. 1924, № 16.

Gazetalardagi maqolalar

4.1.Yulduz. Milliy hol va maishatdan. № 28, 16.07.1910,

4.2.Vaqt. Milliy maishat. Ho`qand. № 3, 14.01.1911

4.3.Turon. Milliy maishat. № 46, 6.12.1912

4.4.Onisa. Ta`ziya teleg`raflari. 14-sentyabr. № 204, 7.10.1914

4.5.Sadoyi Farg'ona" idorasi. Ta'ziya teleg'raflari. 14-sentyabr. № 204, 7.10.1914

Mavzu yuzasidan o'rganilgan dissertatsiyalar.

5.1 Shodmonova S, Davriy matbuotda Turkistonning ijtimoiy –iqtisodiy va madaniy axvoli masalalari, doktorlik dissertatsiyasi,T: 2012 y.

5.2.Isoqboyev A, Turkiston ijtimoiy siyosiy va madaniy hayotida Tatar-Boshqird ma'rifatparvarlarning faoliyati(XIX asr oxiri XX asr boshlari), nomzodlik dissertatsiyasi, N: 2008 yil

5.3.Vohidova K, Ishoqxon Junaydulohxo'ja o'g'li Ibrat va uning tarixiy merosi, nomzodlik dissertatsiyasi, T:2010

5.4.Uzoqov X. O'zbekistonda mustaqillik uchun kurash tarixi 1900-1940(jurnalistlar faoliyati misolida): Tarix fan. nom. dis. T.

5.5.Jabborov M.R. Farg'ona viloyati tarixining "Turkestanskiy sbornik" da yoritilishi(XIX asr oxiri XX asr boshlarida): Tarix fan. nom. dis. T., 2000.

5.6.O'rinova B.Z. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni yoritilishida vaqtli matbuotning roli(1991-2000-yillar): Tarix fan. nom. dis. T., 2002.

5.7.Fatma Achiq. "Yosh Turkiston" tarixiy-adabiy manba sifatida: Filologiya.fan.nom.dis. T., 2002.

5.8.Raxmonov J.K. "Buxoro axboroti" va "Ozod Buxoro" gazetalari – Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixini o'rganish manbasi: Tarix fan. nom. dis. T., 2008.

5.9.Halimova S.A. "Sadoi Turkiston" gazetasi: yo'nalishi, til, uslub va janr xususiyatlari: Filologiya.fan.nom.dis. T.

5.10.Nishonova G.U. O'zbek publististikasining shakllanishi hamda rivojlanishida "Oyna" jurnalining o'rni va ahamiyati: Filologiya.fan.nom.dis. T., 2008.

5.11.Mahmudova R.M. Toshbosma asarlar va ularning o'zbek adabiyoti tarixidagi ahamiyati (XIX asr oxiri — XX asr boshlari). Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 1971.

Internet saytlar

- 6.1. <http://www.lebed.com/2004/art3813.htm>
- 6.2. <http://.google.com/Ziyonet.uz>
- 6.3. [http:// www. state. Gov/p/nea/rls/rm/26019.htm](http://www.state.Gov/p/nea/rls/rm/26019.htm)
- 6.4. [http:// www.theator.com/bills](http://www.theator.com/bills) 109/hr1133. html.
- 6.5. Meros.Ziyonet.uz/uz default/type
- 6.6. <http://www.Lex.uz>
- 6.7. <http://www.natib.uz>
- 6.8. [www. referat.uz](http://www.referat.uz)
- 6.9. www.arxiv.uz
- 6.10. www.testing.uz

Glossariy

Atamaning nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamalarning izohi
Bosmaxona	Типография	Typography	Matbaa mahsulotlari(kitob, jurnal, gazeta, plakat, blank va b.) tayyorlaydigan sanoat korxonasi
Matbuot	Пресс	Press	Barcha bosma mahsulotlar majmui; tor ma'noda davriy nashrlar, asosan, gazeta va jurnallarni ifodalaydi.
Xattotlik	Каллиграф	Calligrapher	(arab.- husnihat yozuvi), kalligrafiya-yozuv(xat) san'ati, kitob ko'chirish hamda me'moriy inshootlar, badiiy buyumlarning kitobalarini yaratish kasbi.
Kotib	Секретарь	Secretary	(arab.- yozuvchi) turli qo'lyozmalarni ko'chirish ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxs, mirza, xattott

Poligrafiya	Полиграфия	Polygraphy	(poli... va ... grafiya) – gazeta, jurnal, plakat va b. bosma mahsulotlar tayyorlash bilan bog'liq texnika sohasi; matn va grafik tasvirlardan nusxa ko'paytiradigan texnika vositalari majmui; matbaachilikning moddiy-texnika negizi.
Litografiya	Литография	Lithography	(lito... va ... grafi)- bosma qolip tayyorlash uchun ohaktosh (litografik tosh), rux yoki alyuminiy varaqasidan foydalaniladigan tekis bosma usuli.
Zullisonaynlik	Зуллисонайн	Zullisonine	(arab) –q. Ikki tillik
Xrestomatiya	Хрестоматия	Cheristamatia	(yun. Chrestos – foydali va manthano – o'qiyman)- ta'limning biror sohasi bo'yicha muayyan ichki tamoyillar asosida tartib bilan berilgan o'quv kitobi. O'zbek tilida “majmua” deb ham yuritiladi.

Noshirlik	Издатель	Publisher	Nashriyot ishi - nashriyotlar tashkil etish, kitoblar, gazeta, jurnallar, tasviriyy san'at asarlari va bosma mahsulotlarini tayyorlash, nashr qilish va uni tarqatishga oid soha.
Bayoz	Баэз	Baez	(arab.- oq, oqlik) – she'rlar to'plami. Bayozlar ikki va undan ortiq shoirlar she'rlari.